



Ravshan ABDUZOHIROV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: – abduzohirov_r@nuu.uz

O'zRFA Tarix instituti professori, t.f.d A.Ashirov taqrizi asosida

SOME CONSIDERATIONS ON CHILD EDUCATION IN MIGRANT FAMILIES

Annotation

Intergenerational continuity is important among the nations of the world. Among the nations of the world, there is a nation that, based on its own spiritual and cultural mentality, nurtures the future generations, shows kindness and love to them. However, there is a big difference between the instinctive need for continuity of the generation and the individual love for the child. The impact of migration on child rearing remains one of the most urgent issues. Because migration processes have significantly affected the lifestyle and culture of all nations today. This indicates that it is necessary to pay attention to a number of problems and deficiencies in the upbringing of children in migrant families.

Key words. Child, family, migrant, parents, adolescence, family education, mother's love, father's function, migration processes and others.

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО ОБРАЗОВАНИЮ ДЕТЕЙ В СЕМЬЯХ МИГРАНТОВ

Аннотация

Преемственность поколений важна для народов мира. Среди народов мира есть народ, который на основе собственного духовного и культурного менталитета воспитывает будущие поколения, проявляет к ним доброту и любовь. Однако существует большая разница между инстинктивной потребностью в преемственности рода и индивидуальной любовью к ребенку. Влияние миграции на воспитание детей остается одной из наиболее актуальных проблем. Потому что миграционные процессы сегодня существенно повлияли на образ жизни и культуру всех народов. Это свидетельствует о том, что необходимо обратить внимание на ряд проблем и недостатков в воспитании детей в семьях мигрантов.

Ключевые слова: Ребенок, семья, мигрант, родители, подростковый возраст, семейное воспитание, материнская любовь, функция отца, миграционные процессы и другие.

MIGRANTLAR OILASIDA FARZAND TARBIYASI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya

Jahon xalqlari orasida avlodlarning davom etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo xalqlari ichida har qaysi xalq borki, o'z ma'nnaviy va madaniy mentalitetidan kelib chiqqan holda kelajak avlodlarni o'stiradi, ularga mehr-muruvvat ko'rsatadi va sevadi. Biroq avlod davomiyligiga instinktiv ehtiyoj bilan bolaga bo'lgan individual mehr-muhabbatning orasida katta farq bor. Farzand tarbiyasida migratsiyaning ta'siri g'oyat dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki, migratsion jarayonlar hozirgi kunda barcha xalqlarning turmush tarzi va madaniyatiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazdi. Bu esa migrant oilalarida bir qancha farzand tarbiyasiga doir muammo va kamchiliklarni e'tibor qaratish kerakligidan dalolat beradi.

Kalit so'zlar. Farzand, oila, migrant, ota-onal, o'smirlik, oilaviy tarbiya, ona mehri, otalik funksiyasi, migratsion jarayonlar va boshqalar.

Kirish. Kishilik tarixi taraqqiyoti davomida oila va oilaviy munosabatlар insonlar turmush tarzi va hayot faoliyatining asosiy qismi sifatida namoyon bo'lib kelmoqda. Unda shaxsning turmush tarzi va kundalik hayotida jamiyatning asosiy tamoyillari, talab va ehtiyojlarini ko'rishimiz, ijtimoiy munosabatlarni tub o'ziga xos xususiyatlarini kuzatishimiz mumkin. Hozirgi vaqtida oila yangi insonni vujudga keltirish, farzandlarni tarbiyalash, shaxsning jismoniy va ma'nnaviy shakllanishini ta'minlash orqali muayyan ijtimoiy jarayonga o'z ta'sirini faol ko'rsatib kelmoqda. Xususan, bugungi kunda oila jamiyat hayotida faol ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Oilaviy munosabatlarni bilan bog'liq masalalar turli soha vakillari tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, antropologiya, etnologiya, pedagogika, sotsiologiya, demografiya, falsafa, madaniyatshunoslik va boshqa fan sohalarini keltirishimiz mumkin.

Masalan, etnolog olimlar tomonidan oila va oilaviy munosabatlarga moddiy va ma'nnaviy qadriyatlar yaratuvchisi, etnosiga xos madaniy an'analar, urf-odat va marosimlar

manbai, etnik qayta ishlab chiqarish asosi, barcha madaniy xususiyatlarni o'zlashtiruvchi hamda avloddan-avlodga o'tkazib turuvchi asosiy qism sifatida o'rganadilar. Tarbiyaga oid an'analarni saqlanib qolishida oilaning o'mi nihoyatda kattadir.

Oilaviy tarbiya – bu shunchaki oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga etika, psixologiya, pedagogika sohalaridagi bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jihadir. Oilaviy tarbiyaning xususiyatlari har bir xalqning milliy, etnopsixologik, hududiy, demografik jihatlaridan kelib chiqadi[11]. Bu esa sohaning o'rganish uchun fanlararo yondoshuvdan foydalanish kerakligini bildiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oilaviy tarbiya – bu shunchaki oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga etika, psixologiya, pedagogika sohalaridagi bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jihadir. Oilaviy tarbiyaning xususiyatlari har bir xalqning milliy, etnopsixologik, hududiy, demografik jihatlaridan kelib chiqadi[11]. Bu esa sohaning o'rganish uchun fanlararo yondoshuvdan foydalanish kerakligini bildiradi.

Xorijiy tadqiqotchilardan M.Mid, I.Kon, Y.Smirnova, V.Suxomlinskiy, A.Xarchiyev, M. Oreon, J. R. Barro va J. Rashforlar, hamda mahalliy tadqiqotchilardan

G.B.Shoumarov, Sh.B.Shoumarov, B.M.Ubaydullayeva va boshqalar oila va farzand tarbiyasiga oid amalga oshirgan tadqiqotlar tahlil etildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umumqabul qilingan tarixiy-etnologik metodlardan keng foydalangan holda yoritildi. Bunday metodlarga – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, so'rovnomra, kuzatuv va boshqa metodlar kiradi. Bu kabi metodlar tadqiq etilayotgan mavzuni yorishidagi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Ko'plab xalqlarning asrlar davomida moddiy va ma'naviy dunyoqarashlari rivojlangani kabi, ota-onalik muhabbati ham uzoq va ziddiyatlari tarraqqiyot natijasidir. Kishilik jamiyatining dastlabki davrlarida individual ota-onalik mavjud bo'lman va bolalar parvarishi, tarbiysi urug'-qabilachilik jamoasining asosiy ishlardan biri bo'lgan.

Soha bo'yicha izlanishlar olib borgan ba'zi tadqiqotchilarining fikricha, insonni tug'ish va bola o'stirishga majbur qilgan narsa ularning iqtisodiy jihatdan foydaliligi deb hisoblashardi. Xususan, o'g'il bolalar ishchi kuchiga aylanlar edilar, qiz bolalar esa bundan tashqari, qalin keltirardi. Umuman, katta patriarchal oilani biz har qaysi tomonдан olib qaramaylik, ko'p farzandli bo'lish, ayniqsa, ko'p o'g'il bolalar oilaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan mustahkamligining kafolatlaridan biri bo'lgan. Boshqacha tomonidan qaraganda, bolaga ehtiyoj "sotsializatsiyalashgan" individning sotsial psixologik xususiyatidir, u shu holda namoyon bo'ladi, bolalarsiz yoki tegishli bolalar sonisiz individ shaxs sifatida qiyinchilikni his qilardi"[6].

Buning hozirgi kundagi holatlarda namoyon bo'lishiga to'xtaladigan bo'lsak, bolalar soni oilaning iqtisodiy salohiyatini ham oshirishda yordam berishmoqda. Yuqoridaq fikrler dalilsi sifatida ko'p farzandli oilaning o'g'illari otalari bilan migratsiyaga tortilganligi kuzatildi. Qashqadaryo viloyati shahar qishloqlaridagi ko'p farzandli migrant oilalarida o'gil bolalar otalari bilan birgalikda oilaning iqtisodiy ahvolini yaxshilashga yordam bermoqdalar.

"Menga boshqa onani bering va sizga boshqa olamni beraman", - deb yozgan edi avliyo Avgustin[7]. Bunda onaning farzand tarbiyasida o'rni beqiyosligi namoyon bo'ladi. Xorijga chiqib, mehnat faoliyat bilan shug'llanib qaytgan xotin-qizlar oilalarida farzand tarbiyasida an'anaviy tarbiyadan farqlarni kuzatishimiz mumkin. Xususan, kuzatuvlar natijasida migratsiyaga tortilgan va tortilmagan ayollar farzand tarbiyasida turlicha yondoshuvi aniqlandi. Viloyatning shahar va qishloqlarida migratsiyaga tortilgan qishloqlarida xorijda mehnat migratsiyasida bo'lib qaytgan onalar farzandlarini o'qishga, til o'rgatishga katta e'tibor qaratishmoqda. Axborotchi 4 nafar farzandi bor Hamroyeva Nodira opaning ma'lumotlariga ko'ra, farzandlarini o'qimishli qilib tarbiyalash kerak. Chunki, ular biz kabi o'zga yurtlarga borib, qiyinchilikda mehnat bilan shu`gillanmasliklari kerak. Men farzandlarimga ham mehribon ona, vaqt kelganda qattiqko'l ota vazifasini bajaraman. Chunki, ular tarbiyasi uchun asosiy mas'ul shaxs o'zim ekanligimni his qilaman. Farzandlarim kichikligida ota-onam va yaqin qarindoshlarimga tashlab bir yarim yil xorijga ishlash uchun bordim. Turmush o'rtog'im bilan birgalikda ishlab, oilamizni iqtisodiy jihatdan yaxshilash uchun pul jamg'ardik. Xorijda mehnat qilib pul topish oson emasligini, u yerni qiyinchiliklarini ko'rib, farzandlarim bu kunlarni ko'rmasim degan fikrda ularga yaxshi ta'lim va tarbiya berish kerakligini anglab yetdim. Shu sababdan turmush o'rtog'im yuborayotgan pul mablag'larine asosli sarflashga, farzandlarim kundalik faoliyatida ta'lim bilan bir qatorda mehnat bilan tarbiyalab olib borishga harakat qilaman. 4 nafar farzandim ham turli qo'shimcha to'garaklarga borishadi. Ularni barchasi o'qib, olyi ma'lumotli bo'lishlari kerakligi, buning uchun yoshlikda

ko'p o'qib mehnat qilishlari kerakligini uqtirib boraman deb ta'kidladilar. U kishi ya'na shuni ta'kidladilarki, xorijga chiqib kelganimdan so'ng, turmush o'rtog'imdan pul so'rashdan ancha tiyildim. Chunki, uning og'ir mehnat faoliyatida ishlayotganligi ko'z oldimga kelaveradi [2].

Psixolog olimlarning Uganda va Senegaldagi tadqiqotlariga ko'ra, afrikalik bolalar ikki yoshgacha yevropalik bolalarga nisbatan jismoni, psixik va aqliy jihatdan tez o'sishgan. Sababi, onalar shu yoshga qadar bolalarini emizishgan va doimo o'zlar bilan birga yelkalariga osib yurganlar. Ikki yoshdan so'ng esa ona bilan bola o'rtasidagi yaqinlik birdaniga uzelgan. Oqibatda endi afrikalik bolalar yevropalik bolalardan orqada qolishgan[8]. Bunda onalarning bola tarbiyasidagi ahamiyati katta ekanligi ko'rinish turibdi. Chunki, ona va bolalar o'rtasidagi munosabat qanchalik ko'p bo'lsa, bola undan ko'p narsalar o'rganadi.

Migratsiya natijasida yurtimizda ham shunday holatlar kuzatilmoqda. Farzandi 2 yoshga to'lmasdan onasi mehnat migratsiyasiga ketish holatlari kuzatilmoqda. Bunda asosan farzand tarbiyasiga mas'ul etib bobo-buvisi hamda yangalariga tanlab olinmoqda. Bu holatda bolaning ruhiy holatida turli buzilishlar kuzatiladi. Xususan, Chiroqchi tumani Dodiq qishlog'iда istiqomat qiluvchi axborotchimiz Madina Abduzohirovaning ma'lumotlariga qaraganda, iqtisodiy muammolar sabab 1 yoshga ham to'lman Oysha ismli farzandini uning qaramog'iga ovsini tashlab ketadi. Yangasi unga mehr berib kata qiladi. Ko'rsatilgan mehr-muhabbat natijasida bola yangasini Ona deb chaqiradi. O'zi tug'gan onasini esa Yanga deb biladi. Bu holatda bolaning ruhiy holatida buzilish yuzaga kelgan. Kelgusi faoliyatda mehr bermagan, faqat iqtisodiy ta'minotchi sifatida namoyon bo'lgan ona, farzandidan qanday mehr kutishi mumkin? Bu holatda migratsiyaning salbiy jihatlari namoyon bo'ladi.

Shaxs shakllanishida otaning tutgan o'rmini tadqiq etishga bag'ishlangan barcha izlanishlar ota bilan bola o'rtasidagi aloqaning muhimligini ko'rsatadi[15]. Lekin bola tarbiyasida otaning rolini va ota g'amxo'rliги bo'lman holatning oqibatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar juda kam o'tkazilgan. Bunga sabab uzoq vaqt daromida asosiy e'tibor onaning tarbiyasiga qaratilganligi va otaning tarbiyaviy salohiyatiga yetarlichcha baho berilmay kelinganligidir. Jumladan, amerikalik mashhur antropolog M. Mid "otalar – bu biologik zaruriyat, lekin sotsial tasodifdir"[8], – deb hisoblaydi. Lekin keyingi yillarda olib borilgan ilmiy ishlarda shaxs shakllanishida, ayniqsa, o'g'il bolalar uchun ota homiyligining ko'rsatilmasligi salbiy oqibatlagda olib kelishi tasdiqlangan. Xususan, Chiroqchi tumanning bazi migratsiyaga ko'p tortilgan mahalla va qishloqlarda shunday holatlar kuzatilmoqda. Masalan, o'smir yigitlar ota tarbiyasi va nazorati bo'lmanligi sababli, turli buzuq xulq-atvor egalariga aylanib borishmoqda. Kech paytlari yig'ilib, turli spirtli ichimliklar, psixatrop dorilar qabul qilish holatlari kuzatilmoqda. Dorilar ta'sirida o'smirlar ruhiy holatlarida buzilishlar bo'lmoqda. Axborotchilar ma'lumot berishicha, maktab hovlisida kech soat 1-2 larda o'smirlarning ruhiy buzilish holatida topilgan. Bu holat haqida bolalarning onasiga borib, farzandingiz qayerda yuribti? deb savol berganida, kechqurun uyda uxmlayapti yoki do'sti bilan birga degan javoblarni berishgan. Bunda onalar tomonidan o'smir farzandlari nazorat qilishda qiyinlashgani namoyon bo'ladi. Onalik mehrni farzandning buzuq xulq atvoriini otasidan yashirish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa kelgusida ko'plab muammolarni yuzaga keltirib chiqaradi. Vaqtida ota tarbiyasi va nazorati o'rnatalgan oilalarda bunday muammolar kuzatilmaydi.

Otaning tarbiyaviy o'rni haqida V.A. Suxomlinskiy: "Qayerdaki ota o'zini o'zi tarbiyalasa, bolalarning o'zini o'zi tarbiyalashi paydo bo'ladi. Agar otaning ravshan namunasi

bo‘lmasa, bolaning o‘zini o‘zi tarbiyalashi haqidagi har qanday so‘z shunchaki gap bo‘lib qolaveradi” [9], - deb yozgan edi. Bunda farzandlar uchun ona mehr timsoli bo‘lib gavdalansa, ota har sohada ideal shaxs bo‘lib namoyon bo‘ladi.

O‘zbek oilasining etnopsixologok xususiyati oilada erkak kishining yetakchiligidir[14]. Shuningdek, bolaning otaga gap qaytarishi – nomaqbul holatdir. Ko‘pchilikning fikriga ko‘ra, ota urishganda ham bolalar jum o‘tirishlari shart[12]. Lekin bu holat hozirgi kunda bazi migrant oilalarda kuzatimaydi. Bunga sabab sifatida ota farzand tarbiyasida faol ishtirok etmaganligi hamda, faqat iqtisodiy taminotchi vazifasini bajarayotganligidadir.

Fransuz psixologi M. Poroning fikricha, onalarning bolaga bo‘lgan munosabatidagi funksiyalari, asosan, onalik mehri bilan, otalarniki esa obro‘-avtoritet bilan belgilanadi[13]. Migrant oilalarida ona tarbiyasi ko‘proq o‘gil bolalarda uyatchanlik, mehribonlik, rahmdillik va boshqa xislatlardan ko‘proq namoyon bo‘ladi. Aksariyati hatto xo‘roznini ham so‘ya olishmaydi. Bu holatni o‘g‘il bola onasi tomonidan qilinmagan ish sifatiga qabul qiladi. Qushlarga mehr ko‘rsatish hissi unda kuchlilik qiladi. M. Oreon, J. R. Barro va J. Rashforlarning xulosalariga ko‘ra, otaning qattiqqo‘l hokimiyatiga bo‘lgan istak bolalarning instinktiv ehtiyojida namoyon bo‘ladi[1]. Ota tarbiyasini olgan o‘g‘il bolalarda esa bu holatda qattiqqo‘llik kuzatiladi. Yani u bolalar Xo‘roznini qurbonlik uchun so‘ya olishadi. Shuningdek eston tadqiqotchilar A. Tavit va D. Kutsarlar aniqladilarki, turli jinsga mansub bo‘lgan ota, onalar va bolalar o‘rtasidagi

munosabatga nisbatan bir jinsga mansub bo‘lgan ota, onalar va bolalar orasidagi aloqalar kuchliroqdir[10]. Bunda otalar va o‘g‘illar, onalar va qizlar o‘rtasidagi munosabatlar yaxshiroq yo‘lga qo‘yilganligi namoyon bo‘ladi. Bunga sabab sifatida bir jins vakillari o‘rtasidagi imotsional yaqinlikni ko‘rish mumkin.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shunday xulosa qilish mumkinki, ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar keng ko‘lamli munosabatlar tizimi bo‘lib, asrlar davomida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bog‘liq tarzda ham ko‘lamli, ham sifati jihatdan o‘zgarib kelgan. Mazkur munosabatlar tizimi ota-onalik hissi, ularning bolaga bo‘lgan mehr-muhabbati, burch va mas’uliyatni his qilishi, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi ruhiy-emotsional aloqalar, bolaning oiladagi o‘rni va mavqe‘i va boshqa shu kabilarni o‘z ichiga oladi. Ushbu munosabatlar taraqqiyoti Yevropa va Sharq xalqlarida o‘ziga xos tarzda kechgan.

Bugungi kunda o‘zbek oilalarida ota-onalar va farzandlar orasidagi munosabatni rivojlantirish uchun oiladagi muhit, uning jamiyatga ta’siri, oilada er-xotin munosabatlari, oilada otaning o‘rni, jamiyatda ayollarning qadr qimmati, jamiyatda va oilada farzandlarni o‘rni, ularning tarbiyasida onalarning o‘rni, ayollarning ishlab chiqarishga jalb etilishi, ularning o‘z oilasidan begonalashuvi, oiladagi sog‘lom muhit va uning farzandlarni jismoni sog‘lom, ma‘naviy barkamol etib tarbiyalashga ko‘rsatgan ijobil ta’siri kabi muammolarni hal etish muhim.

ADABIYOTLAR

1. Oraison M., Barean J.C., Rochefort J. Les enfants proques. Paris, 1962. P. 158.
2. Dala yozuvlari Shahrisabz tumani 2021.
3. Dala yozuvlari Chiroqchi tumani 2022.
4. Dala yozuvlari Chiroqchi tumani 2023.
5. Dala yozuvlari Chiroqchi tumani 2024.
6. Дарский Л. Е. Рождаемость и продуктивная функция семьи. // Демографический развитие семьи. Ереван, 1979. 123-бет.
7. Кон И. С. Ребенок... 49-50-бетлар. Шнейдер, Л. Б. Психология семейных отношений. — Москва: Апрель Пресс; ЭКСМО-Пресс, 2000. — 239 с.
8. Мид М. - Культура и мир детства. М., 1938.
9. Сухомлинский В.А. Изб.пед.соч: В 3 т. Том 3. – М., 1981. 415-бет.
10. Тавит А., Кутсар Д. Отценка отчего дома вступающими в брак. // Проблемы семьи. III. Тарту. 1978. 87-бет.
11. Убайдуллаева Б. “Ўзбек этнопедагогикаси тенденциялари”, Т-2018. 78-бет.
12. Убайдуллаева Б.М. Ўзбекларнинг ёш авлод тарбияси борасидаги анъаналари ва замонавийлик. – Т.: YANGI NASHR, 2010. 103-бет.
13. Харчиев А. Г. Брак и семья в СССР. – М., 1964. 286-бет.
14. Шоумаров Ф. Б., Шоумаров Ш.Б. Мұхаббат ва оила. – Т.: Ибн Сино, 1994. 61.
15. Hamdamovich A.R. O‘zMU xabarlari. 6 (№ 6 son. 2020,), bet-3-7.



Rafikjon ATAXANOV,

"Kokand University" Andijon filiali dotsenti, PhD

E-mail: ataxanov1966@gmail.com

AndMII professori, t.f.d U.Abdullayev taqrizi asosida

GREAT STATEHOOD: REVERENCE AND RECOGNITION

Annotatsion

This article emphasizes the special attention paid at the state level to the history of Uzbekistan at the new stage of its development. In particular, the creation of the centralized state of Temur on the land of Turan, his activities as a great commander, and his merits in the creation of national statehood are analyzed and described. The place and role of Amir Temur in world history, his recognition by world historians, politicians and researchers are shown.

Key words: Amir Temur, history, development, patriotism, statehood, greatness, recognition, cultural, kingdom, creativity, heritage.

ВЕЛИКАЯ ГОСУДАРСТВЕННОСТЬ: ПОЧТЕНИЕ И ПРИЗНАНИЕ

Аннотация

В данной статье подчеркивается особое внимание уделяемое на государственном уровне к истории Узбекистана на новом этапе его развития. В частности, проанализирована и описана создание централизованного государства Темура на земле Турана, его деятельность как великого полководца, заслуги в создании национальной государственности. Показано место и роль Амира Темура в мировой истории, его признание мировыми историками, политиками и исследователями.

Ключевые слова: Амир Темур, история, развитие, патриотизм, государственность, величие, признание, культурное, царство, творчество, наследие.

BUYUK DAVLATCHILIK: E'TIBOR VA E'TIROF

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida tarixga bo'lgan e'tiborining davlat darajasidagi ahamiyati yoritilib, unda jumladan, Temurning Turon zaminida markazlashgan davlatining barpo etishi, buyuk sarkarda sifatidagi faoliyati hamda milliy davlatchilik barpo etishdagi xizmatlari tavsif va tahlil qilingan. Xususan, Amir Temurning jahon tarixidagi o'mni, uning jahon tarixchilari, siyosatchilari va tadqiqotchilari tomonidan e'tirof etilishi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, tarix, taraqqiyot, vatanparvarlik, davlatchilik, buyuklik, e'tirof, madaniy, saltanat, bonyodkorlik, meros.

Ma'lumki, o'tmishni anglash, buyuk tarixiy shaxslar faoliyatiga bo'lgan ehtirom, bugungi va ertangi kunimizni, taraqqiyot yo'limizni to'g'ri tanlashda katta ahamiyatga ega.

Kirish. Insoniyat tarixida buyuk kishilarning o'rni va roli hamisha muhim hisoblanib kelgan. Tarix har bir insonni o'z Vataniga muhabbat, sadoqat, o'z xalqining o'tmishi haqidagi aniq tasavvyrga ega bo'lish, uning hozirgi kuni va kelajagi bilan g'ururlanish ruhida tarbiyalashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Shonli tariximizda Amir Temur va temuriylar davri o'ziga xos o'ringa ega. Mazkur davr tarixi besh yuz yildan beri o'rganilib kelinayotgan bo'lsa-da, ammo uning jahon tarixi odidagi qimmati hozirgacha o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Shu boisdan, Temur davri tarixini o'rganish, uni ilmiy jihatdan tadqiq va tahlil kilish, har doim dolzarbligini saqlab qoladi.

Yangi O'zbekiston shiori ostida rivojlanib kelayotgan mamlakatimizda yangicha fikrash, yangicha tafakkyr tushunchalari takomillasha borib, ko'p asrlar davomida ajdodlar tomonidan yaratilgan bebabu ma'naviy va madaniy merosni tiklashga, milliy davlatchilik an'analariga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'tmishimizga bo'lgan munosabat o'zgardi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek; bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q [1]. Amir Temur siyoshi, uning jahon tarixi tamadduniga qo'shgan hissasi hali ming yillard davomida kelajak avlodni har

tomonlama tarbiyalashda o'zining ahamiyatini saqlab qoladi. Binobarin, kuchli irodali kishilar ma'lum davrda jamiyat taraqqiyotiga va tamaddyniga g'ov bo'lib qolgan ijtimoiy-siyosiy illatlarni oldindan ilg'ab oladilar va o'zlariga xos noyob qobiliyat, mustahkam iroda tufayli ko'pchilikni ergashtirib, dono siyosati bilan insoniyatni farovonlikka yetaklaydilar [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'kidlab o'tmoq joizki, Temur va temuriylar sulolasi Movarounnahr, Eron va Ozarbayjon, Iroq, Afg'onistonu Hindistonda o'z xukmronligini o'rnatib, hisob-kitoblarga qaraganda, hammasi bo'lib 488 yil hukmronlik qildilar [3]. Insoniyat tarixida eng katta imperiyalardan biri (qariyb 4,4 mln kv. km maydon) — Temuriylar imperiyasi sifatida jahon tarixidan o'r'in oldi. Ushbu saltanat O'rta Osiyoda 35 yil (1370-1405) hukm surdi. Temur Markazi Osiyo hududlarini yagona markazlashgan davlatga birlashtirdi, Hind va Gangadan to Sirdaryo va Zarafshongacha, Tyan-Shandan to Bosforgacha bo'lgan ulkan imperiyani barpo etdi [4]. Sohibqiron Temur jami bo'lib 27 ta davlatni o'z hukmronligiga bo'yusundirdi. Shonli tarix Amir Temurni jahoning mashhur sarkardalari — Iskandar Zulqarnayn, Doro 1, Yuliy Sezar kabi yirik sarkardalar bilan bir qatorga qo'yadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, jahon tarixshunosligida Amir Temur davri o'ziga xos ahamiyatga ega. Temur tuzgan markazlashgan davlat, uning qudrati va rivojlanishi jahon

tarixi sahifalarida o'chmas iz qoldirgan. Shuning uchun Temur va Temuriylar davri nafaqat mahalliy o'zbek olimlari balki, dunyo olimlari tomonidan o'rta asrlar zamonlaridan boshlab, hozirgacha o'rganib kelinmoqda. Ta'kidlash joizki, Temur davri tarixiy zamonlar silsilasida jamiyatning qaysi tuzumga xos ekanligidan qat'iy nazar o'rganilishdan to'xtamadi. Binobarin, o'rta asr arab, fors, yevropa olimlari tomonidan bu davrning o'ziga xos qirralari o'rganilib kelindi. Xatto, O'rta Osiyo mustamlaka va sho'solar davrida ya'ni kommunistik mafkura xukmron bo'lgan siyosiy bo'hronlar zamonida ham rus olimlari Temur haqida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borib, tarixni qanchalik soxtalashtirishga urinmasin, uning buyukligidan yuz o'girolmadilar. Faqat aytish mukin-ki, faqatgina 70 yillik sovet davri, yagona millat, yagona xalq kabi bema'nini siyosati Temur davri qudratli hamda uning shaxsiyha qida ayrim "cho'pchak"larni singdirib keldi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Respublikamizning taniqli olimlari hamda tadqiqotchilarini tomonidan Temur va Temuriylar davri tarixinining ko'plab qirralari keng ilmiy jamoatchilikka taqdirm etildi. Bugunga kelib esa Amir Temur to'g'risida aqallli bitta maqola yozmagan olimming o'zi bo'lmasa kerak. Maxsus olib borilgan tadqiqotlarning esa sanog'i yo'q desak mubolag'a bo'lmaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, qariyib olti yuz yildan ortiq davr mobaynida Yevropa va Sharq tillarida Amir Temurga bag'ishlab yozilgan asarlarning soni 500 dan 1000 ga yaqin yetdi. Bugungi kunda Temurga bag'ishlangan ilmiy va badiiy adapbiyotlar turli aspektlarda tadqiq etilmoqda. Jumladan, mazkur davr tarixi uzoq yillardan buyon qiyosiy, nazariy, tahvil qilish usullari orqali o'rganib kelinmoqda. Shuningdek, fanning turli sohalari nuqtayi nazaridan Temur shaxsini o'z mavzusi doirasida ham o'rganilishi bu davrni mukammal yoritishga yanada kengroq imkoniyat bermoqda.

Temur buyuk davlat arbobi va sarkarda sifatida mamlakatni qariyib 150 yil davomidagi to'xtovsiz bosqinchilik urushlaridan xalos etdi. O'z xalqining ozodligi, yurt ravnaqni uchun Mavarounnahrda mustaqil, markazlashgan, kuchli davlat tuzishga erishdi va shubhasiz, mamlakatda barqaror siyosiy ahvolni ta'minlashga, ilm – fan, madaniyat, ma'rifat, hamda aholini turmush tarzining rivojiga ulkan hissa qo'shdidi.

Tahlil va natijalar. Amir Temurning muvaffaqiyatlari va zafarli harbiy yurishlari o'z davrida jahoning geografik xaritasini o'zgartirib yuborishiga sabab bo'ldi. Temur davri tarixi va madaniyati umumjahon tamadduniga ulkan o'z hisasini qo'shdidi. Temurning tarix oldidagi xizmatlari ulkan bo'lib, jumladan quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin, u o'zining xarbiy yurishlari bilan;

Mo'g'ullarning Xitoya solayotgan xavfining oldini oldi;

Oltin O'rdani yengib Moskva Rusini katta xavfdan himoya qildi;

1402 yilda Usmonlilar sultoni Boyazid ustidan g'alaba qozonib, Usmonlilarning Konstantinopolni istilo etishlarini yarim asr ortga surib yubordi;

Fransuz tarixchisi R. Gryssening ta'kidlashicha: XX – asr boshlarida "Amir Temurning Boyazid ustidan g'alabasi xristian olamini asrab qoldi" [5].

Temur davrida madaniyat, ma'rifat chinakam ma'noda gullab-yashnadi. XIV-asrning ikkinchi yarmida Mavarounnahr Yaqin va O'rta Sharqning tijorat, iqtisod va madaniyat markaziga aylanib bordi. Chingizzon qo'shinlari tomonidan vayronaga aylangan Samarqand, Kesh, Buxoro, Termiz, Toshkent, Marv, Hirot kabi qadimiy shaharlar obod bo'la boshladi. Masjidu madrasalar, maqbaralar, karvonsaroyslar va hammomlar qurildi. Samarqand O'rta Sharq va Markaziy Osiyoning eng yaxshi me'morlari to'plangan shaharga aylandi. Me'mor va bunuodkor ustalarining yuksak did,

mahorat va malakalari tufayli jahon me'morchiligidagi yangi yo'nalish paydo bo'ldi va sharq arxitekturasining go'zal na'munalarini in'om etdi.

Rus tarixchisi akademik V.V.Bartoldning qayd etishicha, Samarqand, Temurning fikriga ko'ra, dunyoning eng dongdor va mashhur shahri bo'lishi kerak edi. Shu sababdan Samarqand atrofida qator qishloqlar bunyod etilib, ushbu qishloq va shaharlarga musulmon mamlakatlarining o'z davridagi bosh shaharlari hisoblangan Bog'dod, Damashq, Misr (Kohira), Sheroz va Sultoniy nomlari berilgan edi [6]. Temur davri madaniyati haqida gap ketar ekan, O'rta Osiyo san'atining ko'zga ko'rigan tadqiqotchilari – L.I.Rempel va G.A.Pugachenkovalar Mavarounnahr, xususan Samarqandda yangicha – o'ziga xos san'at yuzaga kelganligini qayd etadilar. Buni hattoki, Temurning zamondoshlari ham tan olishgan: jumladan, Ibn Arabshoh Temurning shahar tashqarisidagi saroylari haqida hikoya qilib, ylar "Yangi uslubda" qurilganligini to'g'ridan – to 'g'ri ko'rsatib o'tadi [7].

Turkiyada Amir Temurni "Buyuk turk hoqoni" deb ta'riflaydilar, Yevropada Tamerlan nomi bilan mashhur bo'lgan buyuk sohibqiron Amir Temur jahon tarixchilarini tasvirida O'rta asrning atoqli davlat va harbiy arboblaridan bo'lib tan olinadi va unga yuksak ehtirom ko'rsatiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirga qadar Angliya qurollari kuchlari Temur harbiy yurishlarining taktika va strategiyasidan saboqlar berilar ekan. Xatto Yevropada XV asrlardayoq Temur sharafiga teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlari namoyish etilgan. Fransiyada esa Temur sharafiga xaykal yaratilib, unga oltin suvidan "Yevropaning haloskor" deb bitilgan.

Yevropa olimlaridan F.Shlosser o'zining "Jahon tarixi" asarida: temur to'g'risida fikr yuritib, uni "Baxtiyor jangchi, jahongir, Sharqda qonunshunos bo'lishi bilan birga, o'zida Osiyoda kam uchraydigan taktik va strategik bilimlarni ifodaladi", deb yozgan bo'lsa, yana bir nemis tarixshunos olimi M. Veber: "Temur o'z dushmanlariga nisbatan juda berahm bo'lgan, lekin sarkardalik, davlatni boshqarish va qonunchilik sohasida buyuk talantga ega edi", deb ta'riflaydi [8].

Ma'lumotlarga ko'ra, Alisher Navoiyga Amir Temurning ilm va ma'naviyat ahliga ko'rsatgan g'amxo'rliji juda yoqqan. Bu haqda bobomiz Navoiy shunday degan: "Agar Temur qayerda fan, madaniyat va san'at ahlini uchratsa, ularni o'z homiyligiga olar, ularga izzat-ikrom ko'rsatar, ularning tarbiyasiga ahamiyat berar hamda bu zotlardan o'z oliy majlisida maslahatchi sifatida va boshqa lavozimlarda foydalananardi" [9].

Temur to'risida ilmiy izlanishlar olib borgan ko'plab tadqiqotchilar Parij ilmiy kutubxonasida saqlanayotgan hujjatlardan misollar keltirib quyidagi yozuvlarni taqdim etadilar: "Temurbek fors, arab va turk tillarini biladi. Qur'on ilmi va islam huquqshunosligi ilmida shu qadar kuchli olimki, hech bir musulmon olimi bilan munozara qilishga qodir emas, u olim va shoirlarga katta hurmat bilan qaraydi. Buning sababi shundaki, uning o'zi olim va donishmanddir" [10].

Fransuz olimi Alfons de Lamartin esa Amir Temur davlatni mustahkamlashda qonun-qoidalarning ya'ni tuzuklarning tutgan o'rniga keng e'tibor berganligini ta'kidlab: "Yevropada, na Iskandarda, na Atillada va na Moskoviya zafarini quchgan Napoleonda adolatlari qonunlar asosiga qurilgan bunday boshqaruvni bunyod etgan emas" [11] - deya e'tirof etadi. Sohibqironning shaxsiyati shu qadar yuksak maqomga, ega ediki, xatto Ibn Arabshoh garchand Temurga qarshi dushmanlik bilan qarasada, uning daholigi, tafakkuri, ilmu-zakovatiga, insoniy qiyofasi, odilliği va adolatsevarligini inkor qila olmagan va uning ushbu xislatlarni e'tirof etishga majbur bo'lgan. Ibn Arabshoh Temurni tasvirlar ekan, uni quyidagicha ta'riflaydi: "Ishlarni bajarishda Temur o'tkir fikr va uzoqni ko'ra bilish qobiliyatiga ega edi. Uning

tafakkur dengizi cheksiz edi. Har doim qonunlarni o'z mamlakatida amalgalashishiga turardi. Hikmat va jadal (munozara) bobida Ibn Sinoni ortda qoldirar, mantiqda yunonliklarni soqit qilardı” [12].

Temurning nafaqat sarkarda balki, yuksak ma'naviyat va ma'rifat egasi ekanligi ilmiy adabiyot va tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Xususan, Rus tarixchisi Aleksandr Yurevich Yakubovskiy Amir Temurni yoshligidanoq zukko, aqlining tiniqligi va mardligi bilan ajralib turishini, boshqa bir olimlar esa uning shaxsiy hayoti ibrat maktabi ekanligini ta'kidlab, Temurning faqat his-tuyg'ular emas, balki yuksak ma'naviyatli, favqulodda kuchli aqliy qobiliyatları haqidagi fikrlar bildirganlar. Jumladan, Temurning piri ustozni bo'lgan mir Sayyid Baraka poyiga bosh qo'yib yotishi butun insoniyatga yuksak ma'naviyat ibratini berganligi Yevropa olimlarini hayratga soladi. Chunki Temur hayotlik vaqtlaridayoq, vaftodan keyin qabrularini Sayyid Barakaning oyoq tomonlariga qo'yishligini vasiyat qilgan edilar. Fransuz rassomi V.F.Mone “Amir Temurni dunyoviy bilimlarda ham Sohibqiron desa bo'ladi - deb ta'riflaydi. Uning aqliy qobiliyatları va qiziqishlari ko'lamni kishini hayratga soladi. U zavq bilan olimlarning munozaralariga kirishar va ko'pincha g'olib chiqar edi. Temur tarix ilmi bo'yicha mashhur tarixchi olim Ibn Xaldunni ham qoyil qoldirar edi”- degan fikrlarni bildiradi.

Xulosa va takliflar. Temur shaxsi, uning ijobili xislatlari, sarkardalik faoliyati, ma'naviy va ma'rifiy tafakkuri, ilm-fanga bo'lgan munosabati hamda davlat boshqaruvidagi oqilonva va odilona siyosati ko'plab olimlar, jamoat arboblari hamda siyosatchilar tomonidan e'tirof etilgan. Bir so'z bilan aytganda, Yevropa va Sharq olimlari, siyosatchilarini Temurni

Sharq Renesansining bunyodkori sifatida qaraydilar. Bu fikrni uning o'zi “Qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga 10 g'isht qo'yidirdim. Bir daraxt kestirsam, o'rniga 10 ta ko'chat ekтирildim” [13],— deya ifodalagan.

Bugungi kunda milliy davlatchilik an'analariga katta e'tibor berilayotgan bir vaqtida ajdodlarimiz o'gitlari Yangi O'zbekiston davlatini barpo etishda dasturulamal bo'lishi ayni haqiqat ekanligini barchamiz birdek anglamog'imiz zarur. Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o'z nutqlarining birida bu xususda fikr bildirib: “Men har bir askar, Vatanning har bir posboni Amir Temur va ulug' lashkarboshilarimiz o'gitlarini, ularning harbiy merosini chuqur bilishi kerak, deb qayta-qayta ta'kidlab kelaman. By o'imas va bebafo meros hozirgi kunda ham har birimizning qalbimizga cheksiz g'urur baxsh etadi, muqaddas tuprog'imizga sadoqat tuyg'ularini kuchaytiradi – deb ta'kidlagan [14].

Temur to'g'risida iliq fikrlar yuritilar ekan, muallif mazkur maqola orqali uning shaxsini maqtovlar ila bo'rttirib ko'rsatish yoxud fanga ma'lum bo'lgan ayrim ma'lumotlarni qaytadan yoritish emas, balki jahon tarixidan munosib o'rin olgan ajdodlarimiz ruhiga hurmat va ehtirom hamda shu yurtning farzandi sifatida buyuklikning qadr-u qimmatidan faxrlanish, g'ururlanish hissi yotishini bildirmoqni lozim topadi. Bil'aqs, o'tmishni mukammal bilmоq, tarixiy taraqqiyot yo'lini to'g'ri anglamoq kelajakka qo'yilgan tamal toshidir. Binobarin, buyuk tarixiy shaxslarning buyukligi asrlar osha buyukligicha qoladi va ularning qoldirgan merosi avlodlar uchun mustahkam davlat qurishning an'anasi sifatida hamisha barhayot bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR

1. <https://xs.uz/uzkr/post/>.
2. Sayfiddin hoji Jalil. Oqilona yashash tarzi. Toshkent 2009. 36 – bet.
3. Sayfiddin hoji Jalilov. Tariximiz vijdonimiz. “Hayot” nashriyoti Andijon – 2013. B-25.
4. <https://e-tarix.uz/maqolalar/1019-maqola.html>
5. <https://www.temurtuzuklari.uz/uz/pages/chronicle>
6. Ibrohim Mo'minov. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. Toshkent “Fan” 1993. B-28.
7. G.A.Pugachenkova, L.I.Rempel Istorija isskustv Uzbekistana sdrevneyshix vremyon do seredini devyatnadsatogo veka. M., «Isskustvo», 1965. S-309.
8. D.Ibragimov, NDPI. «Amir Temurning milliy davlatchilik siyosati: tarix va hozirgi zamон» mavzusidagi Amir Temur tavalludining 670 yilligiga bag'ishlangan ilmiy konferensiya materiallari. Toshkent Uzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti 2006. B-182.
9. Yo'ldoshev S., Qodirov M., Usmonov M. Ajdodlar merosi- mafkuramiz gavhari. Toshkent, 2001. B-183.
10. <https://e-tarix.uz/maqolalar/1029-maqola.html>
11. <https://e-tarix.uz/vatan-tarixi/50-2010-03-06-12-57-54.html>
12. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/so-ib-ironning-olamshumul-tafakkuri/>. Akmal Saidov Abdulhakim Juzjoniy «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2005 yil №15.
13. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/04/09/amir-temur/>
14. <https://president.uz/uz/lists/view/4081>



Abdulloh DAVRONOV,

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: azamat.erolov.95@mail.ru

QarMII t.f.f.d., dots. A.Eralov taqrizi asosida

O'ZBEKISTON HARBIY XIZMATCHILARNING MA'NAVIY-MA'RIFIY SOHADAGI FAOLIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy sohadagi faoliyati haqida so'z boradi. Muallif ilmiy ma'lumotlarga tayanib, mavjud adabiyotlar asosida O'zbekiston harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy sohadagi faoliyati bo'yicha o'ziga xos jihatlarni o'rgangan va tahlil qilgan.

Kalit so'zlar: mustaqillik yillarda, Qurolli kuchlar, islohotlar, harbiy soha, harbiy kadlar, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat.

ДУХОВНАЯ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье рассказывается о деятельности военнослужащих Узбекистана в духовно-просветительской сфере. Автор, опираясь на научные данные, на основе доступной литературы изучил и проанализировал конкретные аспекты деятельности военнослужащих Узбекистана в духовно-просветительской сфере.

Ключевые слова: в годы независимости, Вооруженные Силы, реформы, военный сектор, военные кадры, духовность, просвещение, культура.

SPIRITUAL AND EDUCATIONAL ACTIVITY OF UZBEKISTAN MILITARY SERVANTS

Annotation

This article talks about the activities of the military servicemen of Uzbekistan in the spiritual and educational sphere. The author, relying on scientific data, studied and analyzed specific aspects of the activities of the military servicemen of Uzbekistan in the spiritual and educational sphere based on the available literature.

Key words: in the years of independence, Armed Forces, reforms, military sector, military cadres, spirituality, enlightenment, culture.

Kirish. Mamlakatimiz keng ko'lamda rivojlanib, mustahkamlanib borayotgan bir paytda yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va etnik guruh vakillarining ma'naviyaxloqiy va madaniy yuksalishining jadallahuviga xizmat qildigan qadriyatlarni qaror toptirish va uzlusiz takomillashtirib borish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon esa, milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg'unlashuvi, vatanparvarlik va milliy g'urur, davlat va ijtimoiy-etnik manfaatlar, fuqaro burchi va shaxs mas'uliyati bilan bog'liq muammolarni ilmiy-siyosiy jihatdan o'rganishni taqozo etadi[2].

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlari samaradorligini oshirish Konsepsiyasida "...harbiy xizmatchilarga ezzulik va rahmdillik an'analarini singdirish, insonparvarlik va mehr-oqibat munosabatlarini shakllantirish hamda ularni milliy madaniyatimiz va qadriyatlарimizga hurmat va ehtirom, ularning madaniyat va san'atning turli sohalariga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ushbu maqsadda adabiyot, kino, teatr, tasviriy san'at imkoniyatlaridan keng foydalananishni tizimi asosda yo'lg'a qo'yish"[1] asosiy maqsadlaridan biri sifatida qabul qilindi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlari samaradorligini yanada takomillashtirish, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immuniteti shakllangan, burchiga sadoqatli, yuqori professional harbiy xizmatchilarni tayyorlash maqsadida quyidagilar:

harbiy xizmatchilarning ma'naviy saviyasi va intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlari va an'analarimizga asoslangan dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan yagona tizimni tuzish;

harbiy xizmatchilarning ongu tafakkuriga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat xavfsizligini himoya qilish uchun mas'uliyat tuyg'usini chuqur singdirish;

dinning asl mazmun-mohiyatini teran ochib berish orqali harbiy xizmatchilarga ezzulik va rahmdillik an'analarini singdirish, insonparvarlik va mehr-oqibat munosabatlarini shakllantirish hamda ularni milliy madaniyatimiz va qadriyatlарimizga hurmat va ehtirom, fidoyilik va sadoqat, halollik va poklik, mustaqil fikr va sog'lom turmush tarzi asosida tarbiyalash asosiy vazifalari etib belgilandi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida haftaning xar juma kuni "Ma'naviy yuksalish" va vatanparvarlik kuni" etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlari vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Milliy gvardiyasining Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlari samaradorligini oshirishda munosib hissa qo'shan harbiy xizmatchilarga hamda fuqarolarga harbiy xizmatchilar va yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirishga katta ta'sir ko'rsatgan ishlari va yutuqlari uchun topshiriladigan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlari a'lochisi" ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berildi[3].

Qurolli Kuchlari tizimida haftaning juma kuni "Ma'naviy yuksalish" va vatanparvarlik kuni" deb e'lon qilinib,

muntazam ma'naviy tadbirlar tashkil etildi. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ishtirotida 1100 dan ortiq madaniy tadbirlar, sport musobaqalari uyushtirildi. Xususan, "Armiya va xalq – bir tanu bir jon", "Xotira – aziz, qadr – muqaddas", "Oila va nikoh" tadbirlari keng ko'lamma o'tkazildi. Barcha harbiy qism va muassasalaridagi kutubxonalar moddiy-teknik bazasi mustahkamlanib, yangi adaptiviyotlar bilan ta'minlandi.

Harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bandligini ta'minlash va ularni tadbirkorlikka keng jalb etish maqsadida viloyat bandlik boshqarmasi bilan hamkorlikda bo'sh ish o'rinnari yarmarkalari o'tkazildi. Qurolli Kuchlar safidan zahiraga bo'shatilgan 1168 nafar pensionerlarning hayotiy tajribasidan foydalanish maqsadida ular ta'lim muassasalarini, mahalla fuqarolariga yig'inalriga ishga joylashdi. Muddatli harbiy xizmatni o'tab kelgan yigitlarning 317 nafari bandligi ta'minlandi, 75 nafari Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qilish organlariga ishga qabul qilindi.

Tahhil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida harbiy-vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishslash organlari negizida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari tashkil etiladi.

Brigadalarda (ularga tenglashtirilgan harbiy qismlarda) va alohida batalonlarda "harbiy psixolog" (ofitser) lavozimi joriy etiladi.

Harbiy okruglar boshqaruv apparatlarida "psixolog", "yetakchi sotsiolog", brigadalarda (ularga tenglashtirilgan harbiy qismlarda) va alohida batalonlarda "harbiy qism komandirining ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha maslahatchisi - Madaniyat markazi boshlig'i" (Qurolli Kuchlar xizmatchisi) lavozimlari joriy etiladi. Ularning oylik maoshlariga lavozim moyanasidan 30% miqdorda xar oy qo'shimcha ustama pul to'lash belgilandi[4].

O'zbekiston ijtimoiy madaniyatida ham harbiy madaniyat harbiy nuqtai nazardan juda muhim o'rin egallaydi. Harbiy madaniyatning mamlakat va millat mustaqilligida ham o'rni beqiyos. Harbiy madaniyatning falsafiy-madaniyat tushunchasi mavjud bo'lib, harbiy madaniyat jamiyat va mamlakatdagi har bir fuqaroning milliy hayot tarzi va tarixiy rivojlanishdagi o'rmini, davlatning qurolli himoyasini tashkillashtirishdagi o'rmini kuchaytiradi.

2019-yilning aprel oyida "Farg'ona" poligonida Sharqiy harbiy okrugi tasarrufidagi harbiy qism va muassasalar o'rtaida ixtirochilik, ratsionalizatorlik va innovatsion g'oyalar ko'rgazmasi o'tkazildi.

Jangovar tayyorgarlik, jangovar ta'minot, texnik ta'minot, reketa artilleriya qorol-aslahalari hamda tarbiyaviy va mafkuraviy ishlari kabi beshta yo'nalish bo'yicha o'tkazilgan ko'rgazmani harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi, Farg'ona "Temurbeklar maktabi", Farg'ona davlat universiteti harbiy kafedrasini talabalari va Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tinglovchilar bevosita kuzatib bordi.

90 dan ortiq ratsionalizatorlik g'oyalari namoyish etilgan ko'rgazma davomida ishtirotchilar hali hech yerda qo'llanilmagan ilg'or texnikalar bilan tanishdi. Kichik serjant U.Matxalilov tomonidan yaratilgan va poligon uchun xizmat qiladigan og'ir sharoitlarda nishonlarni ko'tarib tushirish elektron moslamasi ko'pchilikning diqqat markazida bo'ldi.

Shuningdek, leytenant I.Hamidullayevning makedta o'q otish mashqini yangicha usulda simulyatsiya qilish moslamasi, shartnoma bo'yicha harbiy xizmatchi oddiy askar K.Amirovning BTR-70 texnikasida tashqi kuchlar tomonidan ehtimoliy yong'in sodir etilganida texnika ichidan tashqariga chiqmay turib yong'inni o'chirish moslamasi ko'pchilikda qiziqish uyg'otdi.

Mayor S.Ochilov taqdim etgan dala sharoitida axloqiy-ruhiy ta'minotni shakllantrishga xizmat qiladigan avtonom avtojamylanmaning loyihasi ham yig'ilganlarga ma'qul bo'ldi.

G'oliblar Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni polkovnik Lutfullo Buzrukov tomonidan diplom va esadalik sovg'alarini bilan taqdirlandi.

Ko'rgazma davomida harbiy xizmatchilar tomonidan kashf etilgan harbiy texnikalar va qorol-aslahalarning taktik-texnik xususiyatlarni yanada takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin bo'lган qurilmalar, ixtirolar namoyish etildi, foydalanishda qulaylik yaratuvchi, jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlarini o'tkazishda yangi innovatsion texnologiyalar va uskulnarni qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar berildi.

2021-yilning iyun oyida Bulung'ur tumanidagi harbiy qismlarning birida harbiy xizmatchilar ishtirotida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Tadbirda Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi bosh mutaxassis B.Abdullayev, Bulung'ur tuman hokimining diniy ishlari bo'yicha bosh mutaxassis I.Ravshanov, shoir Hamroqul Mahmudov, harbiy qism komandirlari hamda muddatli harbiy xizmatchilar ishtirot etishdi[5].

Uchrashuv davomida "Yangi O'zbekiston yangicha dunyoqarash" shiori ostida Bulung'ur tumanida olib borilayotgan islohotlar, o'zgarish va yangiliklar, barcha sohalarda, jumladan harbiylarga ham berilayotgan e'tibor, yaratilgan sharoitlar, harbiy xizmatchilar o'rtasida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning axamiyati haqida fikr yuritishib, harbiylarning ham zamonaviy bilimlardan xabardor bo'lishlari va mazkur jarayonlarda faol bo'lishlari muhim ekanligi ta'kidlandi.

Shuningdek, tadbirda ishtirot etgan shoir Hamroqul Mahmudov o'zining askarlarga bag'ishlangan she'rlari bilan tadbiriga yanada fayz kiritdi.

Ma'rifiy tadbir askarlar bilan savol-javoblar shaklida davom etdi.

2021-yilning oktyabrida Farg'ona viloyati Mudofaa ishlari boshqarmasi huzuridagi chaqiriluvchilarni harbiy-texnika mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlash markazi bilan hamkorlikda texnikum dekani A.Ergashev va «Xususiy-huquqiy fanlar» kafedrasining Konstitutsiyaviy huquq fani o'qituvchisi F.Mirjavharovalari ishtirotida harbiy xizmatga chaqiriluvchi yoshlar bilan «O'zbekiston Respublikasini himoya qilish. Mudofaasi va xavfsizligi» mavzusida huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'uloti o'tkazildi.

Mashg'ulotda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning yaratilishi uning mazmun mohiyati, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlari, mudofa va xavfsizlik masalalari mukammal yoritib berildi.

Mashg'ulot so'ngida chaqiriluvchilar tomonidan berilgan huquqiy savollariga atroflicha javoblar berildi.

2022-yilning dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ma'naviyat va ma'rifat markazida Jamoat xavfsizligi universiteti Psixologik ta'minlash bo'limi mutaxassisliklari tomonidan "Harbiy xizmatchilarning oilalarida ma'naviy qadriyatlar va ma'naviy muhitni mustahkamlashning psixologik jihatlari" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Mazkur tadbirda Jamoat xavfsizligi universiteti harbiy xizmatchilarining hamda xizmat vazifasini bajarish chog'ida halok bo'lganlarning oila a'zolari ishtirot etdi. Tadbirda, "Ma'rifat" targ'ibotchilari jamiyatni a'zolari, Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati sudyasi, Toshkent shahar bandlikka ko'maklashish Bosh boshqarmasi xodimlari o'z ma'ruzalari bilan ishtirot etdilar. Shuningdek, harbiy xizmatchilarning oilalarida ma'naviy muhitni hamda psixologik iqlimni mustahkamlash maqsadida tadbiriga Toshkent shahar bandlikka ko'maklashish Bosh

boshqarmasi yordamida Toshkent shahrining 42 ta korxona va tashkilotlari o'z bo'sh ish o'rnlari bilan, qiziqishi bo'lgan ayollarni hunarmandchilikka va kasanachilikka o'rgatish maqsadida 4 nafar tadbirkor ayollar o'zlarining qo'l mehnatida tayyorlagan namunalar bilan ishtirok etishdi[6].

Tadbir yakuniga ko'ra barcha korxona va tashkilotlarning mutaxassislari hamda hunarmand ayollar tomonidan harbiy xizmatchilarning oila a'zolariga o'zlarining zarur bo'lgan taklif va tavsiyalarini berdilar. Bundan tashqari, harbiy xizmatchilarni farzandlari uchun yangi yil bayrami archasi bezatilib, A.Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat drama teatri tomonidan sahnalashtirilgan "Yangi yil ertagi" nomli sahna ko'rinishi, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ma'naviyat va ma'rifat markazi xonandalari hamda Jamoat xavfsizligi universiteti orkestr jamoasi va badiiy jamoasi o'z chiqishlari bilan bolajonlarda yaxshi ta'surot qoldirdi. Tadbirda harbiy xizmatchilar oila a'zolari uchun O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi huzuridagi "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti

tomonidan Jamoat xavfsizligi universiteti o'rtasida tuzilgan o'zaro hamkorlik to'g'risidagi memorandum doirasida 15 nomdan iborat oila va oilaviy munosabatlar mavzusiga oid 200 dan ortiq qo'llanma, risola va boshqa targ'ibot materiallari tarqatildi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Harbiy xizmatchilarning oilalarida ma'naviy qadriyatlar va ma'naviy muhitni mustahkamlashning psixologik jihatlari yoritilib, ularning oilalaridagi sog'lom turmush tarzini barqaror bo'lishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatib, kelgusi xizmatlарини yanada samarali tashkil etishlariga xizmat qiladi.

Hozirgi yangilanish zamонида jamiyatning harbiy madaniyati va harbiy ijtimoiy ishni o'rganish jamiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Harbiy madaniyat va harbiy ijtimoiy ishni mohiyatini to'g'ri anglash, milliy iftixordek ulug'ver va teran tuyg'uning paydo bo'lishiga olib keladi. Mana shunday ezgu tuyg'u va bunyodkor g'oyalarni ongimiz va qalbimizdan joy olishi uchun xalqimiz yaratgan betakror madaniyat va ma'naviyatni egallashimiz juda muhimdir.

ADABIYOTLAR

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish Konsepsiysi. Toshkent. 2018.4 avgust.-3b.
- O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nuqtasi (<https://www.gazeta.uz>)
- Морихин В.И. Традиции офицерского корпуса в России. Научноисторические исследования. -М.: Граница, 2013.- 113с.
- Гребенков В. Н. Тенденции эволюции военной культуры современного российского общества. -М.: Прогресс, 2016.- 113с.
- Ismoilovna, H. G. (2020). Harbiy an'analar, urf-odatlar va marosimlar-jamiyat harbiy madaniyatining negizi. Перекрёсток культуры, 2(3).
- Hoshimova, G. I. (2020). O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari harbiy madaniyatining tarixiy asoslari. Взгляд в прошлое, 3(5).



Sanjarbek DJUMANOV,

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi, PhD

E-mail: sanjar.djumanov@bk.ru

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali, PhD O'.Mattiyev taqrizi asosida.

O'ZBEKİSTONDA SOVET HOKİMIYATI YILLARIDA DINİY QADRIYATLARIMIZGA MUNOSABAT VA UNİNG OQIBATLARI

Annotatsiya

O'zbekistondan sovet hukmronligi yillarda nafaqat moddiy boyliklар tashib ketildi, balki milliy va diniy qadriyatlarimiz hamda allomalarimiz ilmiy merosiga qarshi kurash olib borildi. Bu, o'z navbatida, O'zbekistuning ma'naviy hayotiga og'riqli ta'sir etdi. Ushbu maqolada sovet hukmronligi yillarda allomalarimiz ilmiy merosi va diniy qadriyatlarimizga munosabat va uning oqibatlari haqidagi ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Buyuk allomalarimiz, tarixiy binolar, islom dini, ateizm, qadriyatlarimizning sovetlashtirilishi.

ATTITUDE TO OUR RELIGIOUS VALUES AND ITS CONSEQUENCES DURING THE YEARS OF SOVIET POWER IN UZBEKISTAN

Annotation

During the Soviet rule, not only material wealth was taken from our country, but also the struggle against our national and religious values and the scientific heritage of our scholars. This, in turn, had a painful effect on the spiritual life of Uzbekistan. This article analyzes information about the scientific heritage of our scholars and the attitude to our religious values and its consequences during the years of Soviet rule.

Key words: Our great scholars, historical buildings, Islam, atheism, sovietization of our values.

ОТНОШЕНИЕ К НАШИМ РЕЛИГИОЗНЫМ ЦЕННОСТАМ И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЯ В ГОДЫ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

За время советской власти из нашей страны были вывезены не только материальные блага, но и борьба с нашими национальными и религиозными ценностями и научным наследием наших ученых. Это, в свою очередь, болезненно отразилось на духовной жизни Узбекистана. В данной статье анализируются сведения о научном наследии наших учёных и отношении к нашим религиозным ценностям и его последствиях в годы советской власти.

Ключевые слова: Наши великие учёные, исторические здания, ислам, атеизм, советизация наших ценностей.

Kirish. Ma'lumki, sovetlar hukmronligi davrida barcha sohalar qatori, diniy ma'rifiy sohada ham mustamlakachilik siyosati amalga oshirildi. Diniy qadriyatlarimizni ta'qilash, o'rganishni cheklash, allomalarimiz ilmiy merosini xalqimizdan yashirish va boshqalar shular jumlasidandir. Natijada, buyuk allomalarimizning ko'plab nodir asarlari yo'qotildi, muqaddas qadamjolar oyoq osti qilindi, tarixiy binolar, qabristonlar buzib tashlandi. Bunday holat xalqimiz ma'naviy hayotida og'riqli iz qoldirdi. Shu sababdan mazkur davr tarixini o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu, o'z navbatida, chuqur ilmiy asoslangan xulosa berish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mustaqillik yillarda sovet hukmronligi yillarda yurtimizda diniy qadriyatlarimizga bo'lgan munosabat va ularning oqibatlari bag'ishlangan bir qancha tadqiqotlar amalga oshirildi. Xususan, Vodiynoma ilmiy jurnalida 2020 yilda M.Mavrulova tomonidan e'lon qilingan "Sovet mustabid tuzumi sharoitida diniy qadriyatlar ahvoliga doir" nomli maqolasida sovet hukmronligi yillarda O'zbekistonda diniy qadriyatlarga munosabat va uning oqibatlari haqida ma'lumot berilgan. 2023 yilda U.G'afurov tomonidan e'lon qilingan "O'zbekistonda islom ta'limi tizimi: shonli tarix, istibbold zulmidan omon qolish va nurli istiqbol" nomli monografiyasida esa sovet hukmronligi yillarda O'zbekistonda diniy ta'limga munosabat tahlil qilingan.

Xususan, O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari idorasi faoliyati, uning diniy ta'limi yo'lga qo'yish yo'lida jonbozligi, sovet hukumatining bu boradagi tazyiqi, uning oqibatlari va boshqa shunga o'xshash ma'lumotlar bayon qilingan. Bundan tashqari, 2000 yilda "O'zbekiston tarixi" ilmiy jurnalida D.Alimova tomonidan e'lon qilingan "Islam i "voinstvuyushiy" ateizm v literaturi Uzbekistana 20-30-x godov" nomli maqola, D.Ziyoyeva tomonidan nashr qilingan "Turkistonda milliy ozodlik harakati (mustabid tuzuma qarshi 1916 yil va 1918-1924 yillardagi xalq kurashlari tarixshunosligi)" kitobi va boshqa adabiyotlarda mavzuning u yoki bu jihatlari tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani tayyorlashda umumqabul qilingan tarixiy metodlar – ilmiylik, xolislik, tarixiylik, qiyosiy tahlil va ketma-ketlik tamoyillariga amal qilindi. Tadqiqotning ishonchiligi va samaradorligini oshirish uchun mavzuga oid, ilmiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalar va rasmiy internet saytlar ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Islom dini Sovet Ittifoqida ikkinchi eng yirik din edi. Ushbu davlat tarkibiga kirgan 15 ta respublikadan oltitasida, ya'ni Ozarbayjon SSR, Tojikiston SSR, Turkmaniston SSR, Qirg'iziston SSR, Qozog'iston SSR va O'zbekiston SSRda aholining asosiy qismini musulmonlar tashkil etgan. Bundan tashqari, Volga va Ural sohillarida hamda RSFSRning shimoliy Kavkaz hududida ko'plab musulmonlar yashagan [1].

Sovet hukumati diniy qadriyatlarga qarshi kurashni tizimli tarzda amalga oshirdi. Dinga qarshi targ'ibot ishlari mafkura bilan shug'ullanuvchi idoralarning kuchli nazoatiga olindi. Bunda 1971 yil 16 iyunda KPSS Markaziy Komitetining "Aholining ateistik tarbiyasini kuchaytirish to'g'risida"gi qarori va O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining mazkur masala bo'yicha shu yilning avgust oyidagi qarori katta ahamiyatga ega bo'lди. Ushbu hujjatlarda barcha mafkuraviy tashkilotlar, partiya va sovet idoralardan diniy qadriyatlarga qarshi kurashni kuchaytirish, diniy marosimlar to'g'risidagi qonunchilikka rioxasi qilinishi ustidan nazoratni yanada jonlantirish, "diniy mutaassiblarni aniqlash" talab qilindi [6].

Bunday tashqari, mazkur yillarda barcha mahalliy kengashlarda din va dindorlar bilan bo'lgan munosabatlarni masalasini hal qiluvchi komissiyalar tuzila boshlandi. Bunday kengashlarning asosiy vazifasi din va dindorlarga nisbatan partiya siyosatini yuritish, diniy qadriyatlarni "jilovlab turish"dan iborat edi. Bunday tadbirdilar KPSS Markaziy Komitetining 1984 yil 22 sentyabrdagi "Ateistik propagandagi kuchaytirish to'g'risida"gi qarorida yanada aniq belgilab berildi. Qarorda diniy qadriyatlar kommunistik mafkura g'oyalariga mos ravishda tashkil etilishi ta'kidlandi [6]. Shu bilan birga, bu kabi tadbirdirlarni yanada kuchaytirish maqsadida 1985 yil 4 avgustda KPSS Markaziy Komiteti "Islom dini ta'siri orriborishiga qarshi kurashni kuchaytirish to'g'risida"gi qarorni qabul qildi. Mazkur qarorda ham bu boradagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirdilar belgilab berilgan edi. Ammo 80-yillar oxirida Sovet Ittifoqida "Qayta qurish" siyosati natijasida boshlangan o'zgarishlar bu sohada ham o'z aksini topdi. Xususan, yuqorida nomi keltirilgan qaror jamoatchilik ta'siri ostida 1990 yil 7 avgustga kelib bekor qilindi [6].

Sovet hukmonligi davrida hukumat tomonidan amalga oshirilgan denga qarshi siyosat tufayli diniy muassasalar, xususan, masjidlar soni yildan yilga kamayib borgan. Jumladan, 1917 yilda Ittifoq bo'yicha masjidlar soni 25 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 1970 yilga kelib esa ularning soni 500 taga tushib qolgan edi [3]. 1980-yillar oxiriga kelib Sovet Ittifoqining deyarli 45-50 million aholisi o'zini musulmon hisoblagan bo'lsa, ular ibodat qilayotgan masjidlar soni yuqorida keltirilgan raqamdan oshmadidi. Bu davrda rasman ro'yxatga olingan masjid va madrasalar tashqarisida diniy faoliyat bilan shug'ullanish man etildi [8].

Sovet hukumati xalqaro maydondag'i ayrim jihatlardan ko'z yuma olmas edi. Xususan, Ve'etnam urushi, Yaqin Sharqdagi mojarolar, kuchayib borayotgan sovuq urush sharoitida islom dunyosi mamlakatlarining xayrihohligiga erishish lozim edi. Shu maqsadda, ichki siyosatda ham din borasida ayrim tadbirdirlarni amalga oshirishga majbur bo'lди. Imom Buxoriyning 1974 yilda 1200 yilligining nishonlanishi shu maqsadda qo'yilgan qadamlardan biri edi. Bu amalda xalqaro ahamiyatga ega voqeа bo'lди. Shu yili 20-23 avgust kunlari o'tkazilgan "Imom al-Buxoriy va bugungi kun" mazusidagi ilmiy konferensiya mazkur bayramning yakuni bo'lди. Unda barcha Diniy boshqarmalar va yuzga yaqin masjid vakillari ishtirok etdi. Konferensiya sobiq Ittifoqning ko'zga ko'rning diniy arboblari bilan bir qatorda Osiyo, Afrika va Yevropaning 27 ta davlatidan 60 dan ortiq yirik ilohiyotchi olimlar va din arboblari, shuningdek, Butunjahon Islom Ligasi vakillari qatnashdi [2].

Sobiq Ittifoqda, yuqorida aytilganidek, 1985 yilda sovet jamiyatini yangilash borasida chuqur islohotlar boshlandi. Bu davrda huquqiy davlat qurish, yangicha siyosiy fikrlash, sotsializmning yangicha qiyofasi kabi masalalar bilan bir qatorda, davlat va din munosabatlarini yaxshilash masalasi ham kun tartibiga qo'yildi. Bu ishlarni natijasida 1989 yil may oyida KPSS Markaziy Qo'mitasining Ideologiya komissiyasi

majlisida "Vijdon erkinligi to'g'risida"gi yangi qonun loyihasi muhokama qilindi. 1988 yilda Rusda xristianlik joriy etilganining 1000 yilligini nishonlash nafaqat xristian cherkovi uchun, balki mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta voqeа bo'lди. Bu davlat va din munosabatlarda yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlardan dalolat edi [2:83].

Bunday o'zgarishlar tezda O'rta Osiyo respublikalariga ham yetib keldi. Xususan, 1988-1989 yillarda O'zbekistonning barcha viloyatlarida masjidlar ochildi, 1930-1950 yillarda tortib olingan qator maqbara va masjidlar dindorlarga qaytarib berildi. Hukumatning maxsus qarori bilan Qur'oni karimning nodir nusxasi – Mus'hafi Usmon musulmonlarga qaytarib berildi. Bundan tashqari, "Sovet Sharqi musulmonlari" jurnalni olti tilda (o'zbek, arab, fors, dariy, ingliz va fransuz tillarida) chiqarila boshladи. Shu bilan birga, taqvim (oy kalendari), diniy broshyura va plakatlar ham chop etish yo'lga qo'yildi. Buyuk muhaddis Imom Buxoriy tavalludining 1200 yilligiga bag'ishlab, diniy boshqama tomonidan "Sahihul Buxoriy", "Sulosiyot al-Buxoriy", "Al-adab al-mufrad" kabi asarlari chop etildi. Shuningdek, Imom Termiziyning 1200 yilligiga bag'ishlab, besh jildlik asarlari to'plami nashr qilindi [2].

Bu davrda mahalliy kadrlar yurtimizda diniy qadriyatlarni asrab-avaylash borasida jonbozlik ko'rsatdi. Mana shunday shaxslardan biri O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi raisi, sobiq muftiy Ziyovuddinxon Eshon Boboxon o'g'li edi. Uning tashabbusi bilan 1971 yil 1 noyabrda "Oliy diniy madrasa" tashkil etildi va "Namozgoh" masjidida faoliyat yuritdi. Yuqorida aytilganidek, 1974 yilda Imom Buxoriy tavalludining 1200 yillik yubileyining keng nishonlanishi munosabati bilan ushbu bilim dargohiga buyuk vatandoshimizning nomi berilib, "Oliy ma'had", ya'ni Toshkent islom instituti deb yuritila boshlandi [11]. Ushbu ta'lim dargohi sobiq Ittifoqda yagona edi. Shu sababli, bu yerga SSSRning boshqa musulmon o'lkalaridan ham talabalar tahsil olgan. Yaratganni inkor etuvchi tuzum sharoitida oliy diniy bilim yurtini ochish katta jasorat talab qilar edi. Shu sababli, Toshkent islom instituti yuqorida aytilganidek, sobiq Ittifoqda yagona bo'lib, Kavkazorti, Shimoliy Kavkaz, SSSRning Yevropa qismi va Sibir musulmonlari diniy boshqarmalarining bo'lajak kadrlari ham shu yerda tahsil olgan. Ammo tahsil oluvchilar soni kam bo'lib, bu, o'z navbatida, diniy sohaga ixtisoslashmagan oliy o'quv yurtlari bilan solishtirganda katta farqni tashkil qilar edi. Bu holat esa diniy soha faoliyatini cheklar edi. Xususan, 1980 yil holatiga ko'ra, oliy ma'hadda 30 kishi ta'lim olganini ko'rish mumkin [2].

Shu o'rinda, bu davrda buyuk allomalar abadiy qo'nim topgan joylarning xarobaga aylantirilgan to'g'risida ham aytilib o'tish joiz. Ma'lumki, Imom Buxoriy dafn etilgan joyda (hozirgi Payariq tumani, Xartang qishlog'i) XVI asrda kichikkina maqbara tiklangan, yoniga masjid qurilib, hovlisiga bir necha tup chinor ekilgan edi. Sovet hukmonligi davrida esa, Allomaning nafaqat ilmiy merosini o'rganish ishlariga yetarlicha e'tibor berilmadi, balki uning qabri joylashgan hudud xarobazorga aylantirildi. Bunday holatdan nafaqat yurtimiz musulmonlari, balki ayrim nufuzli xorijiy mehmonlar ham norozi bo'lgan edi. Livanning taniqli jamoat arboblaridan biri Shayx Naim al-Jisrning 1956 yildagi Sovet Ittifoqiga tashrifli bu fikrimizni isbotlaydi. Xalqaro maydonda o'ziga tarafdarlar yig'ish bilan mashg'ul bo'lgan sovet hukumati musulmon mamlakatlarini bilan ham munosabatlarni mustahkamlashga harakat qiladi. Bundan asosiy ko'zlangan maqsad, bu mamlakatlarni uning geosiyosiy raqibi AQSH tomoniga og'ib ketishning oldini olish edi. Shu bilan birga, bu ikki buyuk davlatni ushbu davlatlarning tabiiy zaxiralari ham qiziqitirar edi.

Shu maqsadda sovet hukumati muslimon mamlakatlari bilan aloqalarni mustahkamlash payiga tushadi. Buning uchun birinchi bo'lib, sovetlarga xayrihoh Livan mamlakati tanlab olinadi. Livanning taniqli davlat va jamaot arboblari mamlakatga taklif qilinadi va o'zini diniy sohada ochiq mamlakat sifatida ko'rsatishga urinadi. Ammo sovet hukumatining bunday ishlari o'zi kutgan natijani bermaydi. Yuqorida ismi keltirilgan Livanlik yirik jamaot arbobi Shayx Nadim al-Jisr boshliq mehmonlar Sovet Ittifoqiga tashrif buyurgach, Imom Buxoriy qabrimizni ziyorat qilish istagini bildiradi. Tabiiyki, bu vaqtida Alloma qabri xarob ahvolda bo'lib, uning atrofi paxtazorga aylantirilgan, yonidagi masjidda esa kimyoiy o'g'itlar saqlanar edi. Shu bilan birga, sovet rasmiyarining hech biri Imom Buxoriy qabri qayerda ekani to'g'risida ma'lumotga ega bo'lmaydi.

Tezkorlik bilan amalga oshirilgan surishtiruvlar natijasida Alloma qabri Samarcand viloyatining Xartang qishlog'ida ekani ma'lum bo'ldi. Sovet maxsus xizmatlari livanlik muftiyini atay poyezdga chiqaradi. Chunki mehmon Toshkentga yetib kelgunicha maqbarani biroz yaxshilash va masjidni ta'mirlash ko'zda tutiladi. Bu ishlarga boshliq sifatida muftiy Ziyovuddinxon Boboxonov tayinlanadi. Bu paytda u kishining oldida ikki muhim vazifa turar edi. Birinchisi, livanlik mehmonni munosib kutib olishga tayyorgarlik ko'rish va ikkinchisi, fursatdan foydalани, ushbu tabarruk maskanga davlat e'tiborini tortish edi. Bu paytda atrofdagi qishloq ahli bu ishgaga qadar yordam beradi. Ular maqbara va masjid atrofini chiqindi uyumlardan tozalash uchun uch-to'rt kun timay ishlaydi [12].

Shayx Nadim al-Jisr sahar vaqtiga Xartangga keladi. Mashinadan tushib, Imom Buxoriy maqbarasi tomon yura boshlaydi. Nogahon, kuzatib kelgan va peshvoz chiqqanlar o'rtasida o'tirib oladi. Hamma uni hayron kuzatib turardi. U Qur'on tilovat qila boshlaydi. Shu holda peshingacha o'tiradi. Yumib olgan ko'zlaridan to'xtovsiz yosh oqadi. Nihoyat, u tilovatni to'xtatadi. O'midan turib, yonidagilardan: "Eng kattangiz qaysingiz? Men Respublika Prezidenti bilan uchrashishni xohlayman", deydi. Mehmonni O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining o'sha paytdagi raisi qabul qiladi. Uchrashuvda livanlik muftiy Imom Buxoriy maqbarasi va atrofidagi tuprog'ining vazniga teng og'irlikda oltin berib, sotib olish istagini bildiradi. Prezidium raisi unga bu yodgorlik Imom Buxoriyning yuksak maqomiga mos ravishda qayta qurilishini aytadi [4]. Shayx Nadim al-Jisriyning safari shunday tushkun kayfiyatda nihoyasiga yetadi. Mehmon o'z yurtiga qaytib ketgach, u yerda uzoq yillar muftiy lavozimida faoliyat yuritadi. Ammo uning bu masalani biror joyda ko'targani to'g'risida ma'lumot mayjud emas.

Bu davrda Sovet Ittifoqiga tashrif buyurgan muslimon mamlakatlari yetakchilari ham Imom Buxoriy qabrimizni ziyorat qilish istagini bildiradi. Bunda 1956 yilda Indoneziya

Prezidenti general Sukarnoning tashrifi muhim ahamiyatiga ega. Sovet Ittifoqiga tashrif davomida mehmon davlat prezidenti Samarqanddagagi Imom Buxoriy qabrimizni ziyorat qiladi [7]. Shu o'rinda aytish mumkinki, Prezident Sukarno ulug' alloma qabrimizni ziyorat qilish orgali Indoneziya va O'zbekiston o'rtasidagi ziyorat turizmiga asos solgan shaxs sifatida tarixga kirdi. U O'zbekistonga safari so'ngida o'zbek xalqini "Ko'zga uzoq, qalba yaqin" ma'nosidagi indoneziya maqoli orqali ta'riflagan edi [9].

Sovet hukmonligi davrida nafaqat Imom Buxoriy abadiv qo'nim topgan maskan, balki boshqa ulug' allomalar yotgan joylar ham xarobazorga aylantirildi yoki buzib tashlandi. Imom Moturidiy Shayx Abu Nasr Marg'inoniy qabri ham shular jumlasidandir. Ushbu ikki alloma qabri rus bosqini va sovet tuzumi davrida unutildi va toptaldi. Bu qabrlar joylashgan Chokardiza qabristonining katta qismi 1947 yilda aholiga beriladi. Aslida Chokardiza qabristonining bu holati Buxoro amiri Nasrullo davrida boshlangan edi. U 1840-yillarda atrofida Samarqanddagagi islonmi qabul qilgan va xalq orasida "chala" degan nom olgan yahudiy larga ushbu qabristonning bir chekkasini ajratib, alohida yahudiy mahallasi va qabristonini barpo etishga ruxsat bergan edi. Bunday kaltabinlik oqibatida qanchadan qancha aziz ulamolar xoki yahudiyalar tiklagan hovli joylar ostida qolib ketadi. Hatto, o'sha paytda ayrim hovlilarining sahni juda mashhur ulamolarning qabrtoshlari bilan yopilgan. 1878 yilda allaqachon o'z ahdidan qaytgan yahudiyalar Chokardizada devor tiklab, o'z qabristonini alohida qilib oladi. Bu yerda ular sinagog ham tiklaydi [10]. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Chokardiza qabristoni Islom olamida Makka va Madinadan so'ng ulug' ulamolar dafni etilgan uchinchi mo'tabar joy sifatida tan olinadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, sovet hukmonligi yillarda O'zbekistonda diniy qadriyatlarimizga qarshi kurash olib borildi. Bu holat turli ko'rinishlarda ro'y berdi. Allomalar asarlarini yo'q qilish, ular qo'nim topgan maskanlarni xarobaga aylantirish yoki buzib tashlash, diniy ta'limni cheklash va boshqalar shular jumlasidandir. Shuningdek, bunday ishlarni amalga oshirish uchun turli yillarda tegishli qarorlar e'lon qilindi. Hukumat tomonidan tazyiq va siquvlarga qaramasdan, yurtimizning asl farzandlari nafaqat diniy qadriyatlarimizni saqlab qolishga intildi, balki uni rivojlanishish choralarini ko'rdi. Sovet hukumati dahriylik siyosatini tashqi siyosiy holatiga qarab o'zgartirib turdi. Muslimon mamlakatlari o'zini diniy siyosatda ochiq ko'rsatishga urinishi ortidan ayrim cheklovlarini yumshatishga majbur bo'ldi. Ammo shunday bo'lsa-da, bunday tazyiq va cheklovlar O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgunga qadar u yoki bu tarzda davom etdi.

ADABIYOTLAR

1. Alimova D.A. Islam i "voinstvuyushiy" ateizm v literature Uzbekistana 20-30-x godov// O'zbekiston tarixi. № 4, 2000.
2. G'afurov U. O'zbekistonda islam ta'limi tizimi: shonli tarix, istibdod zulmidan omon qolish va nurli istiqbol. Monografiya. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2023.
3. Ziyoyeva D. Turkistonda milliy-ozodlik harakati (Mustabid tuzumga qarshi 1916 yil va 1918-1924 yillardagi xalq kurashlari tarixshunosligi). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
4. Imom Buxoriya hurmat: istiqlolgacha, istiqloldan so'ng. Hidoyat jurnali, 2011 yil 8 son.
5. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Ikkinci kitob. – Toshkent, 2019.
6. Yunusova X. O'zbekistonda millatlararo munosabatlari va ma'nnaviy jarayonlar. – Toshkent, 2009.
7. <http://old.muslim.uz/index.php/rus/novosti-2018/item/32660-prezident-indonezii-sukarno-polozhil-nachalo-palomicheskemu-turizmu-mezhdu-nashimi-stranami-posetiv-mogilu-imama-bukhari>
8. <https://bestpublication.org/index.php/iq/article/view/387>
9. <https://islom.uz/maqola/11525>
10. <https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/xurshid-davron-bu-voqeal-olis-1956-yilda-bolib-otgan-edi.html>
11. <https://oliymahad.uz/institut-haqida>
12. https://ziyouz.com/books/jurnallar/hidoyat/Hidoyat%20-%20202011_8.pdf



Akmal MAMATQULOV,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Madaniyatshunoslik" kafedrasi mudiri

E-mail: mamatkulov_ay@mail.ru

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) U.O'sarov taqrizi asosida

SAMARQAND-QARSHI IQTISODIY RAYONINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (XX ASRNING 50-80 YILLARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqolada erkin iqtisodiy zonalar faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish, erkin iqtisodiy zonalar ishtirokiga yanada qulay sharoitlar yaratish kabi masalalar tahlil qilingan. Shuningdek, sobiq totalitar tuzum davrida iqtisodiy rayonlar faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish hamda modernizatsiyalash dolzARB ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so'zlar: tog'-kon sanoati, Fanlar akademiyasi, paxtachilik, uzumchilik, pillachilik, dehqonchilik, qishloq xo'jaligi, yalpi mahsulot, lalmi yerlar.

ОСОБЕННОСТИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЙОНА САМАРКАНД-КАРШИ (50-80-Е ГОДА XX ВЕКА)

Аннотация

В статье проанализированы такие вопросы, как внедрение инноваций в деятельность свободных экономических зон, создание более благоприятных условий для участия свободных экономических зон. Также в период бывшего тоталитарного режима актуальность приобретает совершенствование и модернизация правового регулирования деятельности экономических районов.

Ключевые слова: горнодобывающая промышленность, Академия наук, хлопководство, виноградарство, коконоводство, земледелие, сельское хозяйство, валовой продукт, засушливые земли.

FEATURES OF THE SAMARKAND-KARSHI ECONOMIC REGION (50-80S OF THE 20TH CENTURY)

Annotation

The article analyzes such issues as the introduction of innovations in the activities of free economic zones, the creation of more favorable conditions for the participation of free economic zones. Also, during the period of the former totalitarian regime, the improvement and modernization of the legal regulation of the activities of economic regions becomes relevant.

Key words: mining industry, Academy of Sciences, cotton growing, viticulture, cocoon growing, farming, agriculture, gross product, dry lands.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng yurtimizda ma'muriy-hududiy va iqtisodiy rayonlarni o'rganish ham zaruratga aylandi. Chunki mamlakatimizning har bir mintaqasida rayonlar iqtisodiy rivojlanishi bugungi kun uchun ham ahamiyatga ega. Shuningdek, erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilish, bu yerdagi korxonalar va ishchi hodimlari uchun hukumat tomonidan tegishli sharoitlar va imtiyozlar yaratish, ular bo'yicha huquqiy-me'yoriy xujjatlarni ishlab chiqish va takomillashtirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu masala tarixiga nazar soladigan bo'lsak, 1951 yilda O'zbekiston hukumati tomonidan O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi qoshida ishlab chiqarish kuchlarini o'rganish bo'yicha kengash tuzilgan edi. Kengashga O'zbekiston SSR davlat reja qo'mitasi bilan hamkorlikda xalq xo'jaligining muhim masalalarini o'rganish, tegishli rayonlarning kompleks muammolari yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borish vazifasi topshirildi [1]. Bu topshiriqdan kelib chiqib belgilangan vazifalar O'zbekistonning umumittifoq fondiga qo'shayotgan hissasini oshirishga, urushdan keyingi iqtisodni rivojlantirishga ko'mak berishi lozim edi. O'sha vaqlarda Mirzacho'l, Farg'ona vodiysini, Angren-Olmaliq tog'-kon sanoati rayonini, Buxoro-Navoiy, Amudaryoning quyi oqimidagi va boshqa rayonlarni o'zlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishi kerak edi.

1960 yillarda respublika ittifoqdosh respublikalar orasida aholisining soni bo'yicha RSFSR, Ukraina, Qozog'istondan keyin to'rtinchi o'rinda turganligi, O'rta

Osiyo iqtisodiy rayoni tarkibidagi to'rt respublika orasida esa birinchi o'rinni egallashi [2] kengash diqqat markazida bo'ldi. Shu munosabat bilan ishlab chiqarishda band bo'lmagan aholisiga ega bir necha, jumladan, Jizzax, Marg'ilon, Qarshi, Urganch, Xovos, To'rtko'l, Chimboy kabi shaharlarni sanoatlashtirish vazifalari belgilanishi lozim edi [3]. Ayni paytda O'zbekistonning viloyatlari rivojlanishi bo'yicha turlicha bo'ldi. Toshkent, Samarqand viloyatlari, Farg'ona vodiysi viloyatlarda sanoat tarmoqlari yaxshi rivojlangan edi. Kengash faoliyati keyingi yillarda ham davom etib, O'zbekistonning mintaqaviy rivojlanishi bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Ularda S.K.Ziyadullaev, K.N.Bedrinsev, K.I.Lapkin kabi olimlar muntazam ishtirok etib keldilar. Bu munozaralari mavzu bo'lib, 1980 yillarga kelib ham davom etdi. T.M.Axmedov, A.M.Sodiqov va boshqalarning ishlari mamlakatda rayonlashtirish ishlarini amalga oshirish, ya'ni respublika hududini mintaqalarga ajratishga qaratildi. Bunda ba'zi olimlar mamlakat hududini 6 yoki 7 taga bo'lishni taklif etganlar. Bir guruh olimlar O'zbekistonni Toshkent, Farg'ona, Quyi Amudaryo, Janubiy Mirzacho'l va Zarafshon iqtisodiy hududga bo'lish tarafdori bo'lib chiqqan bo'lsalar, ikkinchi guruh olimlar Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarini bir mintaqqa sifatida olib, rayonlar turini quyidagicha tasnifladilar - Toshkent, Farg'ona, Mirzacho'l, Samarqand-Navoiy, Buxoro-Qashqadaryo, Surxondaryo va Quyi Amudaryo [4]. Tabiiyki, O'zbekistonning tabiiy sharoiti xilma - xil va asosan xalq xo'jaligining turli tarmoqlarini rivojlantirish uchun quayayligi, respublikada keng maydonni egallagan vodiylar

ham, jazirama qum sahrolari ham, tog'lar, yer osti va boshqa tabiiy boyliklar mavjud bo'lib, boshqa ittifoqdosh respublikalar orasida o'z o'mniga egaligi bunday qarashlarga sabab bo'lganligi sir emas edi.

1970 yillarda O'zbekistonda iqtisodiy rayonlar [5], quyidagilardan iborat bo'ldi.

1960 yillarda respublika ittifoqdosh respublikalar orasida aholisining soni bo'yicha RSFSR, Ukraina, Qozog'istonidan keyin to'rtinchı o'rinda turganligi, O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni tarkibidagi to'rt respublika orasida esa birinchi o'rinni egallashi [6] kengash diqqat markazida bo'ldi. Shu munosabat bilan ishlab chiqarishda band bo'lмаган aholisiga ega bir necha, jumladan, Jizzax, Marg'ilon, Qarshi, Urganch, Xovos, To'rtko'l, Chimboy kabi shaharlarni sanoatlashtirish vazifalari belgilanishi lozim edi [7]. Ayni paytda O'zbekistonning viloyatlari rivojlanishi bo'yicha turlicha bo'ldi. Toshkent, Samarqand viloyatlari, Farg'onan vodiysi viloyatlarida sanoat tarmoqlari yaxshi rivojlangan edi. Kengash faoliyati keyingi yillarda ham davom etib, O'zbekistonning mintaqaviy rivojlanishi bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Ularda S.K.Ziyadullaev, K.N.Bedrinsev, K.I.Lapkin kabi olimlar muntazam ishtirot etib keldilar. Bu munozarali mavzu bo'lib, 1980 yillarga kelib ham davom etdi. T.M.Axmedov, A.M.Sodiqov va boshqalarning ishlari mamlakatda rayonlashtirish ishlarini amalga oshirish, ya'ni respublika hududini mintaqalarga ajratishga qaratildi. Bunda ba'zi olimlar mamlakat hududini 6 yoki 7 taga bo'lishni taklif etganlar. Bir guruh olimlar O'zbekistoni Toshkent, Farg'ona, Quyi Amudaryo, Janubiy Mirzacho'l va Zarafshon iqtisodiy hududga bo'lish tarafdiri bo'lib chiqqan bo'salar, ikkinchi guruh olimlar Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarini bir mintaqqa sifatida olib, rayonlar turini quyidagicha tasnifladilar - Toshkent, Farg'ona, Mirzacho'l, Samarqand-Navoiy, Buxoro-Qashqadaryo, Surxondaryo va Quyi Amudaryo [8]. Tabiiyki, O'zbekistonning tabiiy sharoiti xilma - xil va asosan xalq xo'jaligining turli tarmoqlarini rivojlanirish uchun qulayligi, respublikada keng maydonni egallagan vodiylar ham, jazirama qum sahrolari ham, tog'lar, yer osti va boshqa tabiiy boyliklar mavjud bo'lib, boshqa ittifoqdosh respublikalar orasida o'z o'mniga egaligi bunday qarashlarga sabab bo'lganligi sir emas edi.

1970 yillarda O'zbekistonda iqtisodiy rayonlar [9], quyidagilardan iborat bo'ldi.

Samarqand-Qarshi iqtisodiy rayoni (Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari) respublika hududining 11,8, aholining esa 18 foizini tashkil etgan [10]. U paxtachilik, uzumchilik, pillachilik rivojlangan rayon hisoblangan. Dehqonchilik qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 75 foizini bergen. Lalmi yerkarning katta maydonlari Qashqadaryo va Samarqand viloyatlariga to'g'ri kelgan. Bu viloyatlarda qishloq xo'jaligini rivojlanirish uchun qator suv omborlari qurilgan.

Qashqadaryo viloyati aholisining 74 foizga yaqini, Samarqand viloyatining 70 foizga yaqin aholisi qishloqlarda yashagan [11]. Ularning asosiy qismi qishloq xo'jaligi bilan band bo'lgan. Garchi Qashqadaryoda zarur resurs va imkoniyatlar mavjud bo'lsa-da, biroq, bu yerda sanoat rivojlanishi hamma ko'rsatkichlar jihatidan orqada bo'lgan [12]. Shunday bo'lsa ham, sanoatda yengil va oziq - ovqat, mashinasozlik va metalsozlik, kimyo va qurilish materiallari, tabiiy gaz olish va uni qayta ishslash tarmoqlari asosiy hisoblangan. Hatto, Samarqand kimyo zavodlari atrofida chiqindi bo'lgan - fosfogips "tog'lari" paydo bo'lgan. Ularni saqlash uchun bir necha ming gektarlab yer kerak bo'lgan

[13]. Respublikada ishlab chiqarilgan elektr – energiyasining asosiy qismi Toshkent (40,9 foiz), Sirdaryo (32,2 foiz) viloyatlaridan keyin Samarqand (15,4 foiz) viloyatlariga to'g'ri kelgan [14]. Samarqand-Qarshi iqtisodiy rayoni trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha Farg'ona iqtisodiy rayoni singari muhim rol o'yagan [15].

Mashinasozlikning yana bir tarmog'i elektrotexnika sanoati respublika mashinasozligining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, u respublika mashinasozligidagi salmog'i 20 foizni tashkil etgan hamda salkam qishloq xo'jalik mashinasozligi tarmog'i bilan teng bo'lgan. O'zbekistonning elektrotexnika mashinasozligi korxonalarini turli transformatorlar, elektr stansiyalar va podstansiyalar uchun shchit, panellar, turli maqsadlarda ishlatalidigan kabellar, elektr asbob-uskunulari, umumiyy hisobda 200 turda mahsulot ishlab chiqargan. Bu mahsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqishda O'zbekiston mamlakatda yetakchi o'rinni egallagan. Elektrotexnika mashinasozligining eng yirik korxonalariga O'zbekistonda Toshkent elektrotexnika va kabel zavodlari, Chirchiq va Namangan transformatorlar zavodi, Andijondagi "Elektroapparat" va "Elektrosvigatel", Qo'qon elektr mashinasozligi zavodlari va boshqalar kirgan. Respublika elektrotexnika mashinasozligi korxonalarini ikkita ishlab chiqarish texnika birlashmasi "Sredazelektroupparat" va "Uzelektroterm" birlashmalari tarkibiga kirgan.

1970 yillarda og'ir sanoat O'zbekiston sanoatining yetakchi tarmog'i bo'lib, yalpi mahsulotning 42,1 foizi, ishchilarining 57,1 foizi va butun sanoatdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining 77,7 foizi og'ir sanoat hissasiga to'g'ri keldi. Og'ir sanoatni rivojlanirish ega, avvalo, respublika xalq xo'jaligining moddiy-texnika bazasini va asosan paxta kompleksi uchun moddiy-texnika bazasini vujudga keltirish bilan bog'liq bo'ldi. Yengil sanoat hissasiga yalpi mahsulotning 39 foizi, ishchilarining 29,1 foizi va asosiy vositalarning 10,2 foizi to'g'ri keldi. Yengil sanoatda paxta tozalash, tikuvchilik, shoyi, charm-poyafzal va boshqa sanoat katta o'rinni egalladi [16]. Umuman, O'zbekiston sanoatining qator tarmoqlari, butun ittifoqda foydalanilayotgan mahsulot ishlab chiqardi. Bu tarmoqlarga rangli metallurgiya, gaz sanoati, mashinasozlik va elektrotexnikaning ayrim turlari, paxta tozalash, shoyi va oziq-ovqat sanoatining mevakonserva, yog' zavodi, vinochilik va boshqa tarmoqlar kirdi.

O'zbekistonda rivojlangan soha tarmoqlaridan yana biri kimyo sanoati bo'lib, u vujudga kelgan dastlabki yillardan paxtachilik xalq xo'jaligi kompleksi uchun xizmat qildi. 1940 yilda ish boshlagan Chirchiq elektrokimyo kombinati, keyinchalik 1946 yilda Qo'qon va 1957 yilda Samarqand superfosfat zavodlari qurildi. Kimyo sanoatining paxtachilik xalq xo'jaligi kompleksi bilan bog'liq bo'lgan mahsulotlari ishlab chiqaradigan yana bir yo'nalishi g'o'za zarakunandalariga va begona o'tlarga qarshi kimyoviy preparatlar, g'o'za bargini to'kadigan defoliantlar, g'o'za ildizini quritadigan desikant Navoiy elektrokimyo kombinatida, Farg'ona azot o'g'itlari zavodida va boshqa zavodlarda tayyorlandi.

Xulosa qilib aytganda o'zining ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishi bilan har bir iqtisodiy rayon o'z vazifasini bajarib kelmoqda. Ular sotsialistik ishlab chiqarish tizimida ishlab, sotsializmning asosiy iqtisodiy qonuniga amal qilganlar. Ayni paytda mamlakatdagi iqtisodiy rayonlarning rivojlaniridigan jihatlar rayondagi texnika, muayyan ishlab chiqarish malakalariga ega bo'lgan aholi, o'zining tabiy sharoiti va boyliklari bo'lgan.

ADABIYOTLAR

- Бедринцев К., Мошенко В. Совет по изучению производительных сил Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1981. – С.3.

2. Бедринцев К., Мирзаев А. Ўзбекистонликларнинг келажак авлодлари қаерда яшайди // Ўзбекистон коммунисти. 1988 йил 12 декабрь. – 11 б.
3. Развитие и размещение производительных сил СССР. ... –С.47.
4. Хошимов П.З., Жумаев С.К. Минтақалар ижтимоий – иқтисодий ривожланиши ҳолатининг таҳлили // Иқтисод ва молия. 2012, №10. – 33 б.
5. Балтаев Т. Сбалансированность спроса и предложения товаров легкой промышленности. (региональные проблемы). ... – С. 27.
6. Бедринцев К., Мирзаев А. Ўзбекистонликларнинг келажак авлодлари қаерда яшайди // Ўзбекистон коммунисти. 1988 йил 12 декабрь. – 11 б.
7. Развитие и размещение производительных сил СССР. ... –С.47.
8. Хошимов П.З., Жумаев С.К. Минтақалар ижтимоий – иқтисодий ривожланиши ҳолатининг таҳлили // Иқтисод ва молия. 2012, №10. – 33 б.
9. Балтаев Т. Сбалансированность спроса и предложения товаров легкой промышленности. (региональные проблемы). ... – С. 27.
10. Зиядуллаев С.К. Ўзбекистон экономикасининг регионал проблемалари. ... – 17 б.
11. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1987 году. (Стат. ежегодник). ... –С.15.
12. Досумов. Р.Я. Перестройка управления промышленным производством в новых условиях хозяйствования. ...- С.12.
13. Аскаров М. Ўзбекистон химиясининг истиқболи. – Тошкент: Фан, 1985. – 35 б.
14. Тўхлиев Н. Ўзбекистон иқтисодиёти. ... – 29 б.
15. Балтаев Т.Т. Сбалансировать спроса и предложения товаров легкой промышленности. Региональные проблемы. ... –С.28.
16. Ўзбекистон саноати структурасидаги прогрессив силжишлар. - Тошкент: Фан, 1974. – 182 б.



UDK: 433: 61(091)

Urol MAMATRAIMOV,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tadqiqotchisi
E-mail: esb-1515@mail.ru.uz

TISU professori, t.f.d E.Qobulov taqrizi asosida

THE ROLE OF FOLK MEDICINE IN PRESERVING THE HEALTH OF THE POPULATION

Annotation

Today, modern medicine is developing in the world to protect people's health and cure various diseases. At the same time, the number of new diseases is increasing among people as a result of the effect of various chemical substances on the human body. Official medical institutions are powerless to prevent these problems. For this, it is important to use folk medicine, which has been experienced for thousands of years. The activity of folk medicine has been the cause of controversial discussions for several years. This article describes the meaning of the concept of folk medicine, methods of treatment, the attitude to this activity in the Soviet era, and today's work in the development of folk medicine in our republic, as well as problems related to the field.

Key words: Medicine, doctor, treatment, diagnosis, patient, method of treatment, history of medicine, traditional medicine, modern medicine, disease, drug, medicinal plant, Zoroastrianism.

РОЛЬ НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ В СОХРАНЕНИИ ЗДОРОВЬЯ НАСЕЛЕНИЯ

Аннотация

Сегодня в мире развивается современная медицина, направленная на защиту здоровья людей и лечение различных заболеваний. В то же время среди людей увеличивается число новых заболеваний в результате воздействия на организм человека различных химических веществ. Официальные медицинские учреждения бессильны предотвратить эти проблемы. Для этого важно использовать народную медицину, опыт которой накоплен тысячелетиями. Деятельность народной медицины уже несколько лет является предметом спорных дискуссий. В данной статье описывается значение понятия народной медицины, методы лечения, отношение к этой деятельности в советское время и сегодняшняя работа по развитию народной медицины в нашей республике, а также проблемы, связанные с этой областью.

Ключевые слова: Медицина, врач, лечение, диагноз, пациент, метод лечения, история медицины, традиционная медицина, современная медицина, болезнь, лекарство, лекарственное растение, зороастризм.

XALQ TABOBATINING AHOLI SOG'LIG'INI SAQLASHDAGI O'RNI

Annotatsiya

Bugungi kunda jahonda kishilarning sog'lig'ini muhofaza qilish va turli kasalliklarning odini olishda zamonaviy tibbiyat rivojlanib boryapti. Shu bilan birgalikda odamlar orasida turli kimyoviy moddalarining inson organizmiga ta'siri natijasida yangidan yangi kasalliklar soni ortib bormoqda. Ushbu muammolarning oldini olishda rasmiy tibbiyat muassasalarini ojizlik qilmoqda. Buning uchun necha ming yillardan beri tajribadan o'tib kelayotgan xalq tabobatidan foydalanish muhimdir. Xalq tabobati faoliyati necha yillardan beri bahsli munozaralarga sabab bo'lmoqda. Ushbu maqolada xalq tabobati tushunchasining mazmuni, davolash usullari, sovetlar davrida bu faoliyatga bo'lgan munosabat va bugungi kunda respublikamizda xalq tabobatinning rivojida amalga oshirilayotgan ishlar hamda sohaga oid muammolar haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Tabobat, tabib, davolash, tashxis, bemor, davolash usuli, tibbiyat tarixi, an'anaviy tibbiyat, zamonaviy tibbiyat, kasallik, dori, shifobaxsh o'simlik, zardushtiylik.

Kirish. Xalqimizning boy tarixiy merosini o'zida aks ettirib kelayotgan qirralardan biri bu xalq tabobati hisoblanadi. Xalq tabobati nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, etnos asrlar davomida to'plagan tibbiy qarashlari asosida sodda usul va dorilar bilan kasalliklarni davolash shakli bo'lib, tibbiy o'gitlar, tajribalar avloddan avlodga og'zaki tarzda o'tib keladi. Tabobat an'analari xalqning kundalik tur mush tarzi, mashg'ulot turi, tabiat bilan munosabati asosida shakllangan empirik bilimlar yig'indisidir. Tabobat an'analari tarkibiy jihatdan kasallikning oldini olish, davolash, tashxis qo'yish va atrof-muhitda mavjud bo'lgan tabiiy vositalardan malham tayyorlashga asoslangan xalq bilimlari majmuasi sanaladi. Xalq tabobati sohasining eng asosiy vakillaridan biri bu – tabiblar hisoblanib, ularning muolaja va davolash usullari ma'lum bir aniq tajriba va bilimlarga tayanganligi, tabobatga doir turli xil qo'llannalar, tibbiyat sohasi bilimdonlarining

asarlaridagi ko'rsatmalarga asoslanib faoliyat yuritganligi bilan ahamiyatlidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xalq tabobati an'analari targ'ibotiga bag'ishlangan ilmiy ishlarda ushbu sohaga milliy qadriyatlarning bir bo'lagi sifatida qaraganligini biliishimiz mumkin. Qator mualliflar xalq tabobatining vakillari faoliyati, ularning davolash usullari va vositalarini o'rghanish bo'yicha tadqiqotlar olib bordi hamda izlanish natijalarida ilmiy maqolalar, risola va monografiyalar nashr etildi. Jumladan, H.Hikmatullayev, M.Hasaniy, A.Qodirov, M.G'oyibov, B.M.Salohiddinov, M.Muhammadov, Sh.B.Ergashev, X.Dadayev, M.Hasaniy, M.A.Qodirov, O.Qayumov, S.B.Shadmonova, X.Dadayev, X.S.Jumanazarov, B.N.Li, G.E.Mo'minova, R.Xonnazarov va O.Ochilovalarning izlanishlari diqqatga sazovordir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Xalq tabobatida bemorda kasalliklarning holatini bilib olish va tashxis qo'yish usullari turli xil bo'lgan. Bemorning tashqi ko'rinishidan, alohida tana a'zolarining holatidan, pulsiga (erkaklarning pulsi o'ng qo'lida, ayollarniki esa chap qo'lida o'changan), tilga, peshob, qon, balg'am va boshqa holatlarga qarab aniqlangan.

An'anavy xalq tabobatining yana keng tarqalgan vakillaridan biri bu siniqchilar hisoblanadi. Siniqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi kishilar xalq orasida "shikastband", "soluvchi", "usta" [1]. kabi nomlar bilan atalgan. Shuningdek, uqalovchi tabiblar pay cho'zilishi yoki et eziлиши kuzatilsa, uqalash muolajasini qo'llashgan, xalq orasida bunday tabiblar esa siloqchi nomi bilan tanilgan [2].

Xalq tabobatining ming yillardavomida shakllangan an'analariga sovet davrida jiddiy zarar yetkazildi. Sovetlar hokimiyat tepasiga kelgan ilk yillardayoq xalq tabobati vakillariga dindorlar sifatida qarab, ularning faoliyatiga chek qo'yish chora-tadbirlarini olib bordi. Tabiblikni cheklash to'g'risida rasman maxsus qaror ham qabul qilinib, bu faoliyat turi sog'iqliq saqlash tizimidan butunlay chiqarib tashlandi. Bunga asosiy sabab qilib bemorlarlarning kasalxonalarga og'ir ahvolda kechikib olib kelinayotganligi sabab sifatida ko'rsatilgan [3]. Lekin sovetlar davrining ta'qib va quvg'inlariga qaramay tabiblar og'ir sharoitlarda o'z faoliyatini davom ettirib, avloddan avlodga o'tkazib kelmoqdalar. Xalq tabobati va an'analarini viloyatning geografik joylashuvi, iqlim sharoitlari, aholining asosiy mashg'ulot turlaridan kelib chiqib qaysidir jihatlari bilan respublikaning boshqa hududlaridan farq qilgan.

Bugungi kunda fuqarolarga zamonaviy tibbiyotning davlat va nodavlat tashkilotlari tizimi tomonidan ko'rsatiladigan malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi kafolatlangan. Shu bilan birga, aholining tabiblarga murojaat qilishi va ularning xizmatidan foydalanish ko'rsatkichlari yuqoriligacha qolmoqda. Bunga xalq tabobatining o'ziga xos an'analarini aholi salomatligini ta'minlash, tibbiy-sanitar yordam ko'rsatish, surunkali kasalliklar profilaktikasi, ularni davolashda sifat, xavfsizlik hamda samaradorlik kabi omillar sabab bo'lmoqda.

Xalq tabobati vakillari kasalni davolashda davo choralarini qo'llash bilan birga turli irim-sirimlar va u bilan bog'liq urf-odatlarni bajarganlar. Masalan, ko'z og'riganda qizargan va achishgan vaqtarda xalq orasida "poshshoyi tanga" deb nomlanuvchi Buxoro amirligining kumush tangasi ko'zga qo'yilib, uch-to'rt bora "irimi-sirimi shu bo'lsin, bor kelgani yo'q bo'lsin" deyilib ko'zda buralgan. Albatta bu faqatgina kasallikning irimi bo'lib, qushnoch ko'zni toliqtirmaslik va ko'zga chang tushirmsandan toza latta bilan artib turishni buyurgach shifo topilgan. Chunki bunday holatlarda ko'pincha ko'z soqqasi va qovoqni birlashtirib turuvchi pardaning yallig'lanishi (meditsina konyutivit) kuzatilib profilaktika choralar vaqtida amalga oshirilishi kasallikning tuzalib ketishiga olib keladi. Xuddi shunga o'xshash holatni qichima (zamonaviy meditsinada prurigo) misolida ham ko'rishimiz mumkin. Buning irimi sifatida kasal kishi to'nining etagini qayrib unga arpa solib eshakka olib borib yedirilgan. Shuning uchun ham mazkur kasallik xalq orasida "eshak yemi" deb ham yuritiladi. Kasallik sababi odatda yuqumli virus bo'lib, ajdodlarimiz buning irimi sifatida chorvaga sadaqa chiqarish ma'nosida "Qambar ota"ga chiroq yoqib yuqorida ta'kidlaganimizdek eshakka to'nida yem olib borib yedirgan [4].

Shuningdek zamonaviy meditsinada parotit deb nomlanuvchi tepki kasalligining kelib chiqishi qulq oldi so'lak bezining yallig'lanishi tufayli bo'lib, o'rinda yotish,

suyuq ovqat ichish, og'izni sodali suv bilan chayib turish bilan kasallikni davolasa bo'ladi. Xalq orasida ham bemorga nisbatan xuddi shunday tavsiyalar berilish bilan birga quyidagi irimni ham o'tkazgan. Bemor eshik ostonasiga yotqizilib, yonida supurgi tik holatda qo'yilib egiz farzandli yoki qushnoch ayol tomonidan bo'yinning tepki chiqqan tomoniga "Irimi-sirimi shu bo'lsin" deyilib ohista uch marta tepib qo'yilgan. Shuning uchun ham mazkur kasallik xalq orasida "tepki" deb nomlangan. Shu o'rinda mazkur irim chog'ida supurgi qo'yish zardushtiylik dini bilan bog'liq bo'lib, zardushtiylar bir kecha-kunduzni besh qismga bo'lib ibodat qilgan. Ibodatdan oldin har bir dindor belbog'ini yechib, yuz-qo'l va oyoqlarini sigirning tozalangan siydiqi bilan yoki qum, suv bilan tozalanib olgach, belbog'ini bog'laydi. Shundan so'ng ezgulik timsoli olovga tikilib maxsus duolar o'qilib Axuramazda ulug'lanib, Axriman esa la'natlangan. Mana shu paytda har bir dindor qo'lida albatta muqaddas o'simlik – barsman bo'lishi shart hisoblangan. Zardushtiylar muqaddas tutgan bu o'simlik biz bilgan isiriq bo'lib, ularning nazarida isiriq ziyon-zahmatlardan saqlagan. Supurgi mazkur irimda isiriqnинг transformatsiyalangan shaklda ko'rinishi bo'lgan bo'lishi mumkin. Shuningdek supurgiga xalq orasida uyning qo'riqchisi, tozaligini saqlovchi vosita sifatida qaralgan. Uyga keluvchi ziyon-zahmat, kasallikka qarshi vosita sifatida ham supurgi mazkur marosimda qo'llaniladi. Bemorni ostona qo'yib tepki bosilishida kasallik bo'sag'adanoq, boshidayoq qaytsin degan ma'no mujassam bo'lgan. Isiriq ming dardga davo deb hisoblanib, undan revmatizm, gripp, shol, radikulit, bezgak kabi kasalliklarni davolashda ham keng foydalanilgan. Isiriq (hazorispand - forscha hazor - ming) ispand ham deb nomlangan. Shuning uchun uya kelin tushirilganda, ular yashayotgan joylarga isiriq tutatilib, yomonliklarni daf etishiga ishonilib isiriq shodasi osib qo'yilgan.

Shuningdek, mahalliy tabiblar sarimsoq piyozdan ham samarali foydalanib kelishgan. Chunki, sarimsoq piyoz nafas yo'llarining ochilishi, yuqumli kasalliklarni yengishta samarali hisoblanib, uning tarkibida mikroblarni o'ldiruvchi moddasi mavjud. Xalq tabobatida sarimsoqdan ko'plab dorilar tayyorlashda ham foydalanilgan. Masalan, sarimsoq dumba yog' ichiga solingan va so'ng xamirga o'ralib, sholi to'ponidan bo'lgan qo'rga ko'milgan. Xamir yuzi kuya boshlagach, ichidagi sarimsoq pishgan o'rikka o'xshab, sarg'ayib pishgan va hidi ham ketgan. Shu bilan birga, davo xususiyatiga ega bo'lgan takasoqol, ismaloq, chuchukmiya, chayono't, ro'yon, qirqbo'g'im va limono't kabilar ham xalq tabobatida keng qo'llanilgan.

Xalq orasida keng tarqalgan xastaliklardan biri pashshaxo'rdadir. Pashshaxo'rda yarasi xalq e'tiqodiga ko'ra erkagi va urg'ochisi bor deb ikkiga ajratiladi. Bemorda pashshaxo'rda aniqlansa, uning irimi sifatida qushnoch yoki qo'l olgan shaxs tomonidan angishvona olib yaraning ustidan buralib aylantirilgan. Shuni qayd etish joizki, mazkur irim faqat kasallikning boshlanish bosqichida amalga oshirilib bundan yaraning to'liq tugab qaytib ketishi emas, ertaroq pishishi va yana ko'payib ketmasligi uchun amalga oshirilgan. Pashshaxo'rda va chipqonda davo sifatida anjir sutini surish, tez-tez hammomga borish hamda chaynalgan bug'doy yoki xamirturush yopishtirish tavsya qilinib, suyuq ovqatlar iste'mol qilish buyurilgan.

Aholi orasida eng ko'p tarqalgan kasalliklardan biri qizamiq (chechak) hisoblangan (xalq orasida qizilcha ham deb yuritiladigan kasallik bor). Qizamiq suyak yorib chiqadigan kasallik bo'lib boshdan belga tomon kuchayib borib, sog'ayish jarayoni esa aksincha beldan boshga tomon davom etib boradi. Qizamiq yuqumli bo'lganligi sabali uning oldiga hamma ham kiritilmagan va tez-tez isiriq tutatilgan. Kelib ketganlarning kiyimlaridan tutatqi olib qolinib isiriqqa qo'shib tutatilgan.

Bemorga qizil kiyim kiydirilgan (aynan mana shunday holat qizilchada ham kuzatiladi).

Xalq orasida gul (chechak) deb nomlanuvchi kasallikda ko'zga dog' (gul) tushadi. Buning oqibatida uning ko'rish qobiliyatini yo'qtishi ajdodlar tasavvuriga ko'ra gul o'simligi bilan bog'liq bo'lган deb izohlanadi. Chunki animistik tasavvurlarga ko'ra, qizil gul kuchli sehr qudratiga ega bo'lган, yovuz ruhlarni va jinslarni o'ziga chaqirib olib, jonli narsalarga, ayniqsa, kishilarga zarar yetkazuvchi o'simlik hisoblangan. Binobarin, kishining ko'ziga dog' tushishini tilash zamindida vujudga kelgan "ko'zingga gul tushsin" qarg'ishi metaforik ko'chim emas, balki ibridoib inson tasavvurida sehr kuchiga ega bo'lган gul turining kishiga zarar yetkaza olish xususiyati yotadi. Shuning uchun kishi ko'ziga yoki badaniga gul tushganda keksalar unga gul ko'rsatishmagan. Vohada qizamiq va gul chiqqanda daraxtga qizil latta parchasini ilib qo'yishgan. Buni muqaddas mazoratda ham chiroq yoqib (muqaddas joy nomiga) ixlos bilan o'sha yerga ilib qo'yishgan va bu bilan kasallik keltirib chiqargan yovuz kuchlarga qarshi pirlaridan yoki egzilik kuchlaridan shu yo'l bilan madad olishga harakat qilishgan. Chiroq bilan qo'shib yettiqa qatlama ham pishirilib xudo yo'liga xudoyi qilinib mushkulushod o'tkazilgan.

Ayrim qishloqlarda qizamiqdagi oting yoli ham isiriqqa qo'shib tutatilgan. Xalq orasida hatto qizamiq, chechak kabilar toshganda yoki kirna kirganda ("ko'z tekkanda" o'qiladigan maxsus afsunlar bo'lib ular alaslash jarayoni deb atalgan) maxsus afsunlar o'qilgan. Bunda

alaslanuvchi maydonga o'tqazilib yetti xil rangdagi matolar qiyqimlari olinib qilingan dasta yoqilib maxsus afsun o'qilgan.

Alas-alas,
Kasallikdan xolos
Alas-alas,
Bolaginamdan chiqsang bas...

tarzida kasalliklarga do'q urilgan Bu badikxonlik deyilib, u qaltiramoq, titramoq ma'nolarini anglatib turuvchi turkiy "baz" so'zidan olingen. Alaslovchi ya'ni ko'chiriq qiluvchi kasallikni "qo'rigitgach" uning ko'chadagi yerini ham ko'rsatadi.

Ko'ch-ko'ch ko'chasan!
Ko'char yering men aysam,
Moma bo'lsang ko'lga ko'ch,
Arvo bo'lsang, go'rga ko'ch...

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, ya'ni xalq tabobati bermor bilan tabib o'rtasidagi munosabatga katta e'tibor beradi hamda bemorning ishonch va e'tiqodidan ustalik bilan foydalanadi. Zero, zamonaviy meditsina ham davolashdagi eng ustuvor yo'nalish bu bemorning shifokorga bo'lган ishonchi va va ular o'rtasidagi munosabatga ko'p tomonlama bog'liq ekanligini inkor etmaydi. Umuman olganda inson ruhiyatidagi kuchli psixik holat organizmda kasallikka qarshi immunitetni kuchaytirishi bugun ilmiy jihatdan asoslangan. Shu sababli, tabiblar ham asrlar davomida tabobatda xalq ishonchini qozonib kelishmoqda.

ADABIYOTLAR

- Muminova G. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tarixi. Toshkent: Yangi nashr. 2015. B.251.
- Ochilova O.R. O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirishda xalq tabobatining o'rni 1945-2021 yy.): Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Qarshi – 2022. B.16
- Surxondaryo viloyat davlat arxivisi, 77-jamg'arma, 1-ro'yxat, 168-kitob, 5-varaq.
- Surxondaryo etnografiyasi. O'quv qo'llanma, S.N.Tursunov, T.R.Pardayev. Termiz: 2010. B.108.
- Курбонов А.Э. Этнические и локальные особенности традиционной культуры жителей Северосурханского оазиса (конец XIX – первая половина XX в.) Автoref. дис... канд. ист. наук.– Ташкент, 2009. – 30 с.
- Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С. 4.
- Tursunov N.N. Janubiy Surxon vohasi aholisining etnik xususiyatlari (XIX asr oxiri – XX asr boshlari).: Tarix fanlari nomzodi ... dis. – T., 2007. – B. 60-61
- Шишов А. Сарты. Этнографическое и антропологическое исследование / Сборник материалов для статистики Сырдарьинской области. Том 11. – Ташкент, 1904. – С.391.
- Пославская, Мандельштамм. Обзор десятилетней (1883-1894) деятельности амбулаторной лечебницы для женщин и детей в Ташкенте. – Ташкент, 1894. – С. 94.
- Успехи русской медицины среди туземцев // Туркестанский курьер. – 1909. – № 172, 173.
- O'zbekiston Milliy arxivisi, I.2231-fond, 1-ro'yxat, 165-ish, 72– varaq.
- Shahar kasalxonasi haqida // Turkiston viloyatining gazeti. – 1916. – №62.
- О народном врачевании сартов и киргиз Туркестана. Медицинская помощь инородцам Туркестана и их отношение к русским врачам. – СПб., 1903. – С. 112.
- Туркестанские ведомости. – 1886. – № 19.
- Muzaffarzoda R. Ichlar suvlارимизга bir nazar // Sadoi Turkiston. – 1914. – № 21.
- Tabibga muhtojlik // Sadoi Farg'ona. – 1914. – № 55.



Aziz FAYZULLAYEV,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

E-mail: fayzullayevazibek@gmail.com

TDSHU dotsenti, Sht. Ikromov taqrizi asosida

ANALYSIS OF RELATIONS BETWEEN AFGHANISTAN AND TURKEY BASED ON THE THEORY OF "SOCIAL CONSTRUCTIVISM"

Annotation

In the modern era, it is more and more evident that the classical theoretical views of international relations such as realism or liberalism can't fully reflect the relations between countries. In this regard, the involvement of relatively young theories in research opens the way to a better understanding of interstate relations. A. Wendt's theory of social constructivism is of great importance in proving that relations between Turkey and Afghanistan depend more on religious and ethnic social norms than on power and material structures.

Key words: Liberalism, Constructivism, relative, social thinking, religious commonality, international system, international society, regional security, Afghanistan, Turkey.

АНАЛИЗ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ АФГАНИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ НА ОСНОВЕ ТЕОРИИ «СОЦИАЛЬНОГО КОНСТРУКТИВИЗМА»

Аннотация

В современную эпоху все более очевидно, что классические теоретические взгляды на международные отношения, такие как реализм или либерализм, не могут в полной мере отражать отношения между странами. В связи с этим привлечение к исследованиям относительно молодых теорий открывает путь к лучшему пониманию межгосударственных отношений. Теория социального конструктивизма А. Вендта показывает, что отношения между Турцией и Афганистаном в большей степени зависят от социальных норм, религиозной и этнической близости.

Ключевые слова: Либерализм, конструктивизм, родство, социальное мышление, религиозная общность, международная система, международное общество, региональная безопасность, Афганистан, Турция.

"IJTIMOIY KONSTRUKTIVIZM" NAZARIYASI ASOSIDA AFG'ONISTON VA TURKIYA MUNOSABATLARINING TAHLILI

Annotatsiya

Realizm yoki liberalizm kabi xalqaro munosabatlardagi mumtoz nazariy qarashlar mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarni to'liq aks ettira olmasligi zamonaviy davrda ko'proq namoyon bo'imoqda. Bu borada nisbatan yoshroq nazaryalarni tadqiqotlarga jalb etish davlatlararo munosabatlari yanada yaxshiroq tushunishga yo'l ochadi. A. Vendtning ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi Turkiya va Afg'oniston munosabatlarini ijtimoiy meyorlarga, diniy va etnik yaqinlikka ko'proq bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: Liberalizm, Konstruktivizm, qarindoshlik, ijtimoiy tafakkur, diniy mushtaraklik, xalqaro tizm, xalqaro jamiyat, mintaqaviy xavfsizlik, Afg'oniston, Turkiya.

Kirish. Turkiya va Afg'oniston munosabatlari xalqaro munosabatlarga oid tadqiqotlarda ko'p o'rganilmagan mavzudir. Usmonlilar davridan beri chuqur aloqada bo'lgan va yuz yildan buyon tadrijiy davom etib kelayotgan Turkiya va Afg'oniston o'rtasidagi munosabatlar tarixining dinamikasini tushunish uchun xalqaro munosabatlarning ba'zi nazariyalariga murojaat qilishimiz lozim. Nazariyalar xalqaro munosabatlarning tarixini o'rganishda tartibga soluvchi va konseptual ta'sirga ega. Ular tadqiqotchini fundamental asos bilan ta'minlash, tegishli darajadagi tahlil va yo'nalishni tanlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, nazaryalar bizga ko'plab hodisalarini tasniflash va tanqidiy, mantiqiy hamda izchil o'rganish imkonini beradi.

Afg'oniston va Turkiyaning davlatlararo aloqalarini xalqaro munosabatlarga oid nazariyalar doirasida tahlil qilish oson emas. Sababi Turkiya Afg'oniston munosabatlari o'ziga xos bo'lib, ularni o'rgangan tadqiqotchilar mavzuni yaxshiroq tushunish uchun intellektual elementlarga va ijtimoiy xarakterlarga ham ahamiyat berishlari zarur. Afg'oniston va Turkiya o'rtasidagi munosabatlarda madaniy qadriyatlar, diniy o'xshashlik elementlari o'ziga xos o'rinn egallaydi. Ushbu munosabatlarning qadriyatlar, madaniyatlar va o'ziga xos

bo'lgan ba'zi tushunchalariga to'xtalganda Aleksandr Vendtning "jamoaviy o'ziga xoslik" ya'ni ijtimoiy konstruktivizm yondashuvi nazariyasini mazkur o'rinda ko'rib chiqishimiz mumkin bo'ladi. Shuningdek, ikki xalqlarning munosabatlari haqida gapirganda qarindoshlik madaniyati, Afg'oniston shimoliy hududdaridagi turkiy millatga mansub odamlar bilan Turkiya o'rtasidagi dahldorlik hisslariga mos keluvchi o'ziga xos elementlar tadqiqotchilarining e'tiborini tortadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xalqaro munosabatlarda nazariyalar masalasi ko'p o'rganilgan bo'lsada, ijtimoiy konsrtuktivzm nazariyasini tadqiqotlarda kam olimlar ishlatishgan. Ushbu nazariyaning 1989-yilda Florida universiteti (AQSh) siyosatshunos olimi Nikolas Onuf xalqaro munosabatlarning alohida nazariyasi sifatida fanga kiritdi[1]. Bu sohani rivojlantirishda Aleksandr Vendtning hissasi katta bo'ldi. U ijtimoiy konstruktivzmni inson ongi va uning xalqaro hayotdagi mavqeyi deb ta'riflaydi[2]. Shuningdek bu borada Yevropa va Amerikaning mashhur klassik olimlaridan Z.Bjezinskiy[3], F.Fukuyama[4], B.Buzan[5], G.Kissinger[6], S.Xantington[7] kabilarning xalqaro munosabatlarning muhim masalalariga bag'ishlangan bir qator yirik ilmiy asarlarini

keltirib o'tish mumkin. Ular o'z ishlarida Afg'onistonning geosiyosiy joylashuviga urg'u bergen holda, sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot, mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro terrorizmning jilovlanishi kabi ekzestensial masalalarda uning rolini qayd etib o'tishgan. Ushbu tadqiqotlar xalqaro munosabatlarning dolzarb muammolariga bag'ishlangan holda mazkur ilmiy tadqiqot uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Turkiya-Afg'oniston munosabatlari Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan ikki tomonlama munosabatlardan biroz farq qilgan holda o'ziga xos tuzilishga ega. Bu ikki davlatning geografik uzoq masofalarga qaramasdan tarixi, dini va madaniyati mushtarakligi xalqaro munosabatlar doirasida alohida yondashuvni taqazo etadi. Bu munosabatlar tarixiy jarayonidagi xalqaro kon'yunkturaga qarab ayrim davrlarda mustahkamlanib, boshqa davrlarda zaiflashgan.

Xalqaro munosabatlarda ijtimoiy konstruktivizm siyosiy nazariya bo'lib, ushbu ta'limot Ikkinci jahon urushidan so'ng tadqiqotlarda murojaat qilina boshlandi. Konstruktivistlar dunyo tartibining tuzilmalari va jahon siyosatining ishtiroychilari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni to'liq ohib berish uchun tabiiy omillar va manfaatlardan kelib chiqishning o'zi yetarli emasligini isbotlay oldilar. Har bir o'rjanilayotgan jamiyatdagi qadriyatlар tizimini tartibga soluvchi qoidalarni va me'yorlar uzluksizligi bo'lgan "manfaatlar" va "o'ziga xosliklarni" qiyosiy o'rganish birinchi o'ringa qo'yildi[1]. Ijtimoiy dunyoni ontologik tushunish konstruktivistlardan sotsiologik, lingvistik, qiyosiy siyosatshunoslik va qiyosiy tarixiy usullarni birlashtirishni lab qildi. Konstruktivist metodologiyaning rivojlanishiga Aleksandr Vendtning tadqiqotlari sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Davlat yoki ulkan korporativ tashkilotlarning ahamiyatiga e'tibor qaratgan realizm va liberaliz kabi an'anaviy nazariyalar xalqaro munosabatlarda shaxslarning rolini unutib qo'yishganini ta'kidlaydigan ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi tarafdarlari xalqaro munosabatlarda davlat yoki xalqaro tashkilotlar emas, balki oddiy odamlarning harakatlarini baholashga harakat qiladi. Ularga ko'ra davlatni ham, xalqaro tashkilotlarni ham aynan odamlar yaratadi. Konstruktivizm bu masalani ijtimoiy dunyo bizning yaratgan natijalarimiz deb ta'kidlaydi. Unga ko'ra shaxslar (odatda, yetakchilar, nufuzli fuqarolar va siyosiy liderlar) o'zlarining harakatlari va o'zaro ta'siri orqali xalqaro munosabatlarning mohiyatini doimiy ravishda shakkantiradilar va ba'zan o'zgartiradilar.

Tahlil va natijalar. A. Vendt xalqaro munosabatlarda realistik nazariyaning ahamiyatini inkor etmaydi, balki xalqaro tuzilmalar nafaqat moddiy, balki jamiyatning g'oyaviy omillari hamda shaxslarning qarashlari tufayli ham shakllanashimi va ushbu omillar ko'pincha uzoqroq va chuqurroq ta'sirga ega ekanligini ta'kidlaydi[8]. Ijtimoiy konstruktivizmga doir adabiyotlarda keltirilishicha mamlakatlarning diniy, madaniy va etnik omillar jihatidan bo'gliqligi yoki o'xshashligi davlatning tashqi munosabatlariga biz o'ylaganimizdanda chuqurroq ta'sir qiladi. Konstruktivistlar xalqaro munosabatlarda me'yorlar, g'oyalar, bilim va madaniyat kabi nomoddiy omillarni tekshirishga e'tibor qaratdilar[9].

Ushbu nazariyani ko'rib chiqishga sabab sifatida xalqaro munosabatlarga doir boshqa nazariyalar ko'pincha murakkab motivlarni, afsonalarni, mantiqiy yoki g'oyaviy xususiyatlarni uchinchi dunyo davlatlarining evolyutsiyasiga ta'siri masalalari e'tiborsiz qoldirilganligi bilan belgilashimiz mumkin. Masalan, Amerikalik tadqiqoqtchi D. Puchalaning so'zlariga ko'ra, "Xalqaro munosabatlar kuch siyosatiga shunchalik berilib ketganki, u uchinchi dunyo xattiharakatlarining madaniy va g'oyaviy tushunchalari

ahamiyatini e'tiborsiz qoldiradi"[10]. Haqiqatdan ham ushbu nazariy qarashlar bizning mavzuni o'rganishda o'zgacha ahamiyatga ega. Chunki Afg'oniston va Turkiya munosabatlarning qonuniy asosi yaratilish tarixiga nazar tashlasak, Afg'oniston hukmdori Omonullaxon turk xalqi va Turkiyaning rivojlanish modeliga kuchli xayrixohligini namoyish qilgan. 1924-yilda Turkiya respublika maqomiga erishgach xorijiy davlat rahbari sifatida aynan Omonullaxon Turkiya Respublikasiga rasmiy tashrif uyushtirgan birinchi xorijiy davlat rahbari edi. Ayni damda M.K. Otaturk vafotiga qadar afg'on amiridan boshqa davlat rahbarlari Turkiyaga tashrif buyurmagan. O'z navbatida uning Turkiyaga nisbatan bu "muhabat"ning shakllanishida Turkiyada uzoq yillar yashagan Muhammad Tarziyning ma'naviy ta'siri kuchli edi[11]. Yangi davrda turk-afg'on do'stligiga asos solgan Turkiyaning ozodlik tarafдори ziyyolilar edi. Bular asosan Abdulhamid rejimiga qarshi chiqqan va Misorda yashagan shifokorlar, muhandislar, moliyachilar, rassomlar va bosmachilarni ushbu ro'yxtagta kiritish mumkin. Aytgancha, Muhammad Tarziy nashr etgan Afg'onistonning birinchi gazetasi Siroj ul-Axbori Afg'onistonda mustaqillik g'oyasini uyg'otishga katta hissa qo'shdi. Bu jarayonlar shakllanishi haqiqiy konstruktivizmning ko'rinishiga misol bo'lish bilan birga unga ko'ra asosiy e'tibor siyosiy shaxslarning ijtimoiy tabiatiga qaratilishi va bu ijtimoiy xarakter siyosiy xulq-atvor uslubini belgilab berishini anglatadi. A. Vendtning fikricha, tarixiy tajribani idrok etishda ishtiroychilari shaxslarning xatti-harakatlaridagi ichki motivlarini, tashqi manfaatlar va ularning o'ziga xosligi o'rtasidagi munosabatlarini tushunish muhim hisoblanadi[12]. Ya'ni xalqaro munosabatlarning muhim jihatlari faqtgina moddiy omillardan iborat bo'lmasdan, balki tarixiy va ijtimoiy jihatdan qurilgan davlat rahbarlarining g'oyaviy e'tiqodlari, ijtimoiy me'yorlar va diniy omillar tomonidan shakllantirilishini ta'kidlaydi.

Ko'pgina xalqaro munosabatlar nazariyaları ayniqsa neorealizm va liberalizm nazariyalarida materialistik kayfiyat nihoyatda ustuvorlikka ega. Ya'ni liberalizm va realizm namoyondalari xalqaro munosabatlarda kuch siyosati asosiy ro'l o'ynashini va moddiylik katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlashadi. Unga ko'ra armiya quvvati, zamonaviy qurollayrog'lar, valyuta va oltin zaxirasi, kuchli iqtisod, energetika resurslari va korporatsiyalar xalqaro munosabatlarni shakllantiruvchi birlamchi vositalar sifatida izohlanadi.

Konstruktivistlarning fikriga ko'ra, manfaatlar ijtimoiy o'zaro ta'sir orqali shakllanadi hamda xalqaro va mahalliy me'yorlar hamda qadriyatlarni kontekstida belgilanadi. Konstruktivizmga ko'ra, siyosiy manfaatlar milliy va ijtimoiymadaniy qurilish jarayonlaridan so'ng shakllanadi. Ushbu kontekstga misol tariqasida afg'onlar Turkiyaning antiimperialistik kurashga qo'shilish chaqirig'iga teng samimiylilik va qo'llab-quvvatlash bilan javob berganliklarini misol sifatida aytish mumkin. O'sha paytda Turkiyada tahlil olgan afg'on yoshlari va Afg'onistondan to'g'ridan-to'g'ri kelgan piyoda vzvodlar Turkiya qo'shinlari safida Anadolu urushiga qo'shilgan. Bundan tashqari, ko'plab afg'onlar mamlakatning qashshoqligiga qaramay, Turkiyaning urush harakatlariga kichik xayriya hissalarini qo'shgan. Turkiya hali ham mustaqillik uchun keng ko'lamli urush olib borayotgan bir paytda, 1921-yil 1-martda Anqara hukumati tomonidan qabul qilingan Ittifoq shartnomasi asosida Afg'oniston Turkiya bilan diplomatik munosabatlarni o'rnatdi. Afg'oniston Turkiya bilan diplomatik aloqa o'rnatgan birinchi (ba'zi manbalarda ikkinchi, Armanistondan keyin) davlat bo'ldi[13]. O'z navbatida Kobulda ham yangi turk davlatining birinchi elchixonasi ochildi va bu mustaqil Afg'onistonda ochilgan birinchi diplomatik korpus edi.

Ajoyib ittifoqchi sifatida Afg'oniston har doim Turkiyaning omon qolishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha izchil majburiyatlarni taklif qilgan. Jumladan, 1921-yil 31-iyulda Turkiya hukumati sharafiga berilgan kechki ovqatda afg'on elchisi turk diplomatlari oldida agar Angliya Turkiyaga qarshi urush boshlashga jur'at etsa, Afg'oniston Londonga urush e'lon qilish bilan ochiq tahdid qilgan. Uning qo'shimcha qilishicha, agar inglizlar yunonlarga yashirinchalik yordam berishni davom ettiradigan bo'lsa, Afg'oniston Hindistonning shimoli-g'arbiy chegarasida tartibsizliklar keltirib chiqarish uchun chegara qabilalardan foydalanadi[14]. Ushbu dallilar konstruktivizm nazariyasi afg'on turk munosabatlari nechog'lik mos kelishi ko'rsatadi. Qolaversa, M.K.Otaturk va Afg'oniston hukumdoni Omonullaxonning siyosiy aloqalarida shaxslar dunyoqarashining o'xshashligi va ularning bir biriga bo'lgan do'stlik bog'lamlarini ikki davlat o'rtaisdagi siyosiy, iqtisodiy va chuqur madaniy aloqalarda ko'rishimiz mumkin. Omonullaxonning islohot paketlari va Turkiyani namunalidagi davlat sifatida qabul qilishi ikki davlat o'rtaisdagi aloqalarni Jadallashtirgan. Va bu aloqalarning vorislikka asoslanganligi bugungi kunga qadar Turkiya elitasinining nutqlarida tez tez uchrab turadi[15]. Bu tomonidan ushbu munosabatlardan ijtimoiy konstruktivizm elementlarini o'zida mujassam etadi.

Umuman olib qaraganda Ushbu ikki mamlakat o'rtaisdagi aloqalarning nazariy konseptual jihatlarini o'rganar ekanmiz A.Vendt xalqaro tuzilmalarning shakllanishida neorealistlarning moddiy kuch qobiliyatlariga haddan ortiq ko'p urg'u bergenini tanqid qilganiga guvoh bo'lamiz. Yoki A.Vendtning "Neo-liberallarning xalqaro aloqalar rivojlanib borishida ular o'ylaganchalik faqat kuch va siyosiy institutlar muhim ro'l o'yamasdan, ko'plab hissiy va abstarkt omillar ham mavjudligini unutmayslik lozim[16]", – degan fikri haqiqat ekanligi munosabatlarning madaniy jihatlariga e'tibor qilishga undaydi. Bu jihatdan Turkiya-Afg'oniston munosabatlari A. Vendt terminologiyasiga mos kelib, bu aloqalar o'ziga xos jamoaviy o'xshashliklarga egaligi namoyon bo'ladi. Moddiy elementlarga berilgan ta'rif A. Vendtning ijtimoiy konstruktivizm nazariyasida muhim o'rinni tutadi va "jamoaviy o'zlik" va "umumiyl kelajak" tushunchalarini Afg'oniston Turkiya munosabatlari ma'no beradi. A.Vendt tomonidan qo'llangan jamoaviy o'ziga xoslik xususiyatlarini vujudga keltiruvchi yaratuvchi "umumiyl taqdir", "o'zaro bog'liqlik", "bir xillik", "o'zini o'zi cheklash" kabi tushunchalar bu ikki davlat o'rtaisdagi munosabatlarni tushunish uchun yaxshi vositadir[17].

Bu yondashuvni Angliya va Shimoliy Koreya misolida ko'rsatgan A. Vendtning aytishicha, beshta yadro kallakkaliga ega Shimoliy Koreya besh yuzta yadro quroliga ega bo'lgan Buyuk Britaniyaga nisbatan Amerika va uning xalqi uchun

tajovuzkorroq deb hisoblanadi. Ushbu identifikatsiyalar xalqaro maydonda xavf omili yadroviy qurol (moddiy tuzilma) bilan emas, balki Shimoliy Koreyaning ijtimoiy muhitini (g'oyaviy tuzilma) bilan bog'liqligini ta'kidlaydi[18]. Agar biz ijtimoiy kontekstni shunday tushunmasak, yadroviy qurolning o'z-o'zidan ma'nosi yo'qligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, konstruktivistlar g'oyalar va e'tiqodlarning jahon siyosatiga ta'siri moddiy haqiqatdan ustunroq ekanligini ko'rsatadi. Bu e'tiqod rivojlanish tarixidagi o'xshashliklar, ijtimoiy tafakkurning yaqinligi hamda bir xil qadryatlar talqiniga asoslanadi. Buning sababi shundaki, umumiy ma'lumotlar va g'oyalar kontekstida Shimoliy Koreya dushman, Angliya esa do'st davlat sifatida qabul qilinadi[19]. Kollektiv o'ziga xoslikga ega deb hisoblagan bu ikki davlat ba'zi masalalarda birligida harakat qilishi yoki bir-biriga qarshi olib borayotgan siyosatlarida moddiy omillarni e'tiborsiz qoldirib, o'zlarini cheklashlari mumkin. "Umumiyl ma'no" kontekstida shaxslar xalqaro muhitda "do'st", "dushman", "raqib", "ittifoqchi" va boshqa sifatlarda namoyon bo'ladi. Ushbu qarashlar natijasiga ko'ra Afg'oniston Turkiyaning tashqi siyosatida do'st mamlakat sifatida tarixan o'ziga xos o'r'in egallagan. O'z navbatida Turkiya ham Afg'oniston va uning xalqi nazarida suyanish va ishonish mumkin bo'lgan ittifoqchi davlatlar qatoriga kiradi. Vendt xalqaro tizm avvalambor shaxslar tomonidan quriladi, deb ta'kidlaydi[2]. Demak, xalqaro munosabatlarni ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi asosida tadqiq qiladigan bo'lsak avvalo siyosiy ishtirokchining shaxsi uning qiziqishini, qiziqishi esa uning harakatini yuzaga keltirishini tushunishimiz kerak bo'ladi. Shunday ekan xalqaro munosabatlarni tahlil qilish kerak bo'lsa, shaxsrlarning xatti-harakatlariga sabab bo'lgan shaxsiyatini ham tahlil qilish, foydali bo'ladi.

Xulosa. Mazkur o'rganilayotgan ikki xalqlar o'rtaisdagi davlatlararo munosabatlarni to'liq idrok etish va bu masalani ochib berishda realizm va liberalizm nazariyalarini bilan bir qatorda, A.Vendtning ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi ham mamlakatlarning madaniy, diniy va ba'zi etnik yaqinligining ba'zi nozik jihatlarini yaxshiroq ko'rsatib berishda anchha maqbul yondoshuv hisoblanadi. Qolaversa, xalqaro munosabatlarda subyektlarning rolini o'rganishda konstruktivizm nazariyasi nihoyatda muhimdir.

A.Vendt yondashuvlarini o'rganib chiqib Turkiyaning Afg'oniston va Markaziy Osiyodagi iqtisodiy faoliyati xalq va davlat o'rtaisdagi munosabatlarning ijobjiy aksi bo'lib, bu mamlakatdagi turk kompaniyalari tomonidan mintaqaga aholisini ish bilan ta'minlaganligi moddiy imkoniyatlarning ijtimoiy ko'rinishi sifatida tushunlishi mumkin.

ADABIYOTLAR

- Onuf N. Constructivismus: A User's Manual // International Relations in a Constructed World / Ed. by V. Kubalkova, N. Onuf, P. Kowert. Armonk; N. Y., 1998. – P. 58–78.
- Wendt A. The Agent-structure Problem in International Relations Theory, – 1987. International Organizations, Vol.1 41(3), – P.335–370.
- Бжезинский З. Великая шахматная доска. Господство Америки и геостратегические императивы. – М.: Международные отношения, 1999. – 256 с.
- Fukuyama F. Nation Building Beyond Afghanistan and Iraq. – The John Hopkins University Press, Library of Congress Cataloging-in-Publication Data, 2006. – 255 p.;
- Buzan B., Waever, O. Region And Power The Structure Of International Security, UK: Cambridge University Press, 2004. – 588 p.
- Киссинджер Г. Рецепт хаоса // США – ЭПИ, 1994. – № 1. – С.77-79.; О'sha muallif. Diplomatia. – М.: Ладомир, 1997. – 848 с. О'sha muallif. Мировой порядок. – М.: AST Publishers, 2015. – 268 с.
- Хантингтон С.Ф. Столкновение цивилизаций. – М.: Издательство АСТ, 2003. – 605 с.
- Z.Mengshu, A Brief Overview of Alexander Wendt's Constructivism: E-International Relations // <https://www.e-ir.info/2020/05/19/a-brief-overview-of-alexander-wendts-constructivism/>
- M.Finnemore, K. Sikkink, Taking stock: The constructivist research program in international relations and comparative politics // Annual Review of Political Science, 2001. N 4. – P.391-416

10. Donald J. Puchala, "Third World Thinking and Contemporary International Relations", in Stephanie G. Neumann (ed), International Relations Theory and the Third World, London: Macmillan, 1998
11. И.И. Бобокулов Афғонистон Лугат – маълумотнома. – Т.: COMPLEX PRINT, 2021. – Б.179.
12. Wendt A. Anarchy is What States Make of it // International Organization. – 1992. № 46. Vol 2. – P.394.
13. M. Eksi, Turkey's increasing role in Afghanistan // Journal of Global Analysis. 2010. – P.141-151.
14. Appreciating Turkey's Afghanistan Policy: <https://www.cirsd.org/en/horizons/horizons-winter-issue-20/appreciating-turkeys--afghanistan-policy>
15. Вступительная речь министра иностранных дел Турецкой Республики Мевлюта Чавушоглу
16. на 13-ой конференции послов, 8 августа 2022 г., Анкара (Murojaat qilingan sana 27.02.2023)
https://www.mfa.gov.tr/data/BAKAN/bkon_2022_ru.pdf
17. Wendt, A. (2016). Uluslararası Siyasetin Sosyal Teorisi. (çev. H.S.Ertem,Ömer Ihlamur,G.S) İstanbul: Küre Yayıncıları. S.20 Türk Dış Politikası Yılığı 2013, Burhanettin Duran, Kemal İnat, Ali Balçı (Ed.) İstanbul: SETA. (S.89-115)
18. Jill Steans, Lloyd Pettiford, Thomas Diez and Imad El-Anis An Introduction to International Relations Theory Perspectives and Themes // British Library Cataloguing-in-Publication Data, 2010. – 289 p.
19. Theys S. Introducing Constructivism in International Relations Theory. FEB 23 2018 // <https://www.e-ir.info/2018/02/23/introducing-constructivism-in-international-relations-theory/>
20. Jackson. R and Sorensen G "Introduction to International Relations Theories and Approaches". Oxford Press,2013. – 373 p.



Odiljon XAMIDOV,

Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD

Gulmira KATTAYEVA,

Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD

Termiz davlat universiteti professori, t.f.d. Sh.Shaydullayev taqrizi asosida

NEW RESEARCHES ON THE OXUS CIVILIZATION PUBLISHED IN 2023: PART 3.1 (EXAMPLE OF PROCEEDINGS OF THE 12 TH INTERNATIONAL CONGRESS ON THE ARCHAEOLOGY OF THE ANCIENT NEAR EAST)

Annotation

The Oxus civilization is a new center of the Ancient Eastern civilization, combining the Bronze Age (2300-1450 BC). In recent years, researchers have published scientific articles on the history and archeology of the Oxus civilization in the most prestigious journals of the worlds in English and Russian. It is illuminated the scientific analysis of three articles that were published in the "Proceedings of the 12 th International Congress on the Archaeology of the Ancient Near East" in this article.

Key words: Oxus civilization, Southern Turkmenistan, Gonurtepe, historiography, Grain Layer, Stone Miniature, Iconographic items.

НОВЫЕ РАБОТЫ ПО ИСТОРИИ ЦИВИЛИЗАЦИИ ОКСА ОПУБЛИКОВАННЫЕ В 2023 ГОДУ: ЧАСТЬ 3.1 (НА ПРИМЕРЕ "МАТЕРИАЛЫ 12-ГО МЕЖДУНАРОДНОГО КОНГРЕССА ПО АРХЕОЛОГИИ ДРЕВНЕГО БЛИЖНЕГО ВОСТОКА")

Аннотация

Цивилизация Окса – новый центр древневосточной цивилизации, объединивший культуру бронзового века (2300-1450 гг. до н. э.). В последние годы исследователи опубликовали научные статьи по истории и археологии цивилизации Окса в самых престижных мировых журналах на английском и русском языках. В данной статье представлен научный анализ новых исследований, опубликованных в материалах «12-го Международного конгресса по археологии Древнего Ближнего Востока».

Ключевые слова: Цивилизация Окса, Южный Туркменистан, Гонуртепе, историография, Зерновой слой, каменные миниатюры, иконографические предметы.

**OKS SIVILIZATSIYASI BO'YICHA 2023-YILDA NASHR ETILGAN YANGI TADQIQOTLAR: 3.1-QISM
("QADIMGI SHARQ ARXEOLOGIYASI BO'YICHA 12-XALQARO KONFERENSIYA MATERIALLARI"
TO'PLAMI MISOLIDA)**

Annotatsiya

Oks sivilizatsiyasi bronza davriga oid (mil. avv. 2300-1450) bo'lib, Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining yangi markazi hisoblanadi. So'nggi yillarda tadqiqotchilar tomonidan Oks sivilizatsiyasining tarixi va arxeologiyasiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar dunyoning eng nufuzli jurnallarida ingliz va rus tillarida nashrдан chiqmoqda. Ushbu maqolada "Qadimgi Sharq arxeologiyasi bo'yicha 12-Xalqaro Konfrensiya materiallari" to'plamida chop etilgan yangi tadqiqotlarning ilmiy tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: Oks sivilizatsiyasi, Janubiy Turkmaniston, Gonurtepa, tarixshunoslik, don qatlami, tosh miniatyurlar, ikonografik obyektlar.

Kirish. Oks sivilizatsiyasi Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining yangi o'chog'i bo'lib, xronologik jihatdan mil. avv. 2500-1350 yillar bilan davrlashtirilgan[6].

So'nggi yillarda Oks sivilizatsiyasini ilmiy, tarixiy va arxeologik jihatdan o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar yaratilmoqda. Jumladan, 2023-yilda ham bir qator tadqiqotlar nashr etildi[7]. Qadimgi Sharq arxeologiyasi bo'yicha 12 - Xalqaro Konfrensiyasi (ICAANE- International Congress on the Archaeology of the Ancient Near East) – 2021-yil 6-9-aprel kunlari Italiyaning Bolonya shahrida o'tkazilgan bo'lib, 548 ta ma'ruzalar eshitildi (ma'ruza, poster, davra suhbatlari). Konferensiya to'plami ikki jilda nashr etilib[1], unda jami 142 ta maqolalar kiritilgan.

"Qadimgi Sharq arxeologiyasi bo'yicha 12-xalqaro Konferensiya materiallari" to'plamining birinchi jildi[1]da Qadimgi Sharq arxeologiyasi va tarixiga oid jami 73 ta maqola chop etilgan, shulardan 6 tasi Oks sivilizatsiyasiga oid. 2023-yilda nashr etilgan maqolalarda ham Oks sivilizatsiyasining tarkibiga kiruvchi Janubiy Turkmaniston hududida, bronza

davriga oid Marg'iyona madaniyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan Gonurtepa yodgorligining antropologiyasi, moddiy madaniyat buyumlari va migratsion jarayonlar haqida juda qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Qadimgi Sharq arxeologiyasi bo'yicha 12-Xalqaro konferensiya materiallari" to'plamida jami 73 ta maqola chop etilgan bo'lib, ularning 6 tasi Oks sivilizatsiyasi masalalariga bag'ishlangan. Dastlabki uchta maqolada, jumladan, L.Satayeva, R.Satayev va N.Dubova hammullifligida nashrдан chiqqan "Gonurdepadagi 2900-qabrdagi don qatlamining o'ziga xos xususiyatlari (Ilk bronza davri, Turkmaniston)" ("Characteristics of the Grain Layer in Tomb 2900 at Gonur Depe (Early Bronze Age, Turkmenistan") [5], N.A.Dubova, A.V.Fribus, N.N.Skakun, S.P.Grushin, V.V.Terekhina, A.M.Yuminov, R.M.Satayev, V.A.Aghananova, Y.K.Tirkishova hammullifligida nashrдан chiqqan "Margush davlatidagi tosh miniatyura ustunlari, disklari va tayoqlari (Bronza davri, Turkmaniston)" ("Stone Miniature Columns,

Disks and Scepters from the Polity of Margush (Bronze Age Turkmenistan”)[3], A.V.Fribus, S.P.Grushin, R.M.Satayev, N.A.Dubova va M.Begliyev hammullifligida nashrdan chiqqan “Gonurtepaning bronza davriga oid qayta o’rganilgan qazishmalaridan yangi ikonografik kashfiyotlar (Turkmaniston)” (“New Iconographic Discoveries from the Renewed Excavations at the Bronze Age Site of Gonur Depe (Turkmenistan)”) [4], maqolalarda yaqin yillarda Gonurtepa yodgorligida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida qo’lga kiritilgan topilmalar tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Birinchi maqola “Qadimgi Sharq arxeologiyasi bo‘yicha 12-Xalqaro Konferensiya materiallari” to‘plamining 2023-yildagi 1-sonida nashrdan chiqqan L.Satayeva, R.Satayev va N.Dubova hammullifligidagi “Gonurdepadagi 2900-qabrdagi don qatlamining o’ziga xos xususiyatlari (Ilk bronza davri, Turkmaniston)” (“Characteristics of the Grain Layer in Tomb 2900 at Gonur Depe (Early Bronze Age, Turkmenistan)”) [5] nomli maqola bo‘lib, unda Gonurtepa yodgorligidan 2002-yilda oshib o’rganilgan 2900 – qabr va undan topilgan 5- 10 sm qalinlikdagi kuygan bug’doy va arpa donlaridan iborat madaniy qatlami, ushbu don ekinlarining Marg’iyoning bronza davri qishloq xo‘jaligida tutgan o’rnii masalasi yoritilgan.

Gonurtepa - janubi-sharqiy Qoraqum cho‘li (Turkmaniston) qumlarida joylashgan ilk bronza davringning eng mashhur ilk shahar markazlaridan biri hisoblanadi va xronologik jihatdan mil. avv. 2500-1500-yillar bilan davrlashtirilgan [4:339]. Qadimgi Marg’iyona qishloq xo‘jaligi sivilizatsiyasi (BMAC, miloddan avvalgi 2300-1600-yillar) markazi hisoblanib, unda ko‘plab o’simlik turlari, birinchi navbatda, don (bug’doy, arpa, tariq) va dukkkalilar yetishtirilgan. Gonurtepaning umumiyyat maydoni 70 hektardan oshib, u yerdagi madaniy qatlamlar qalinligi esa 5 m dan ortiqni tashkil etadi. Bugungi kungacha yodgorlikdan jami 5000 dan ortiq qabrlar oshib o’rganilgan. Taxminan 10 hektar maydonni egallagan “Katta nekropol”da 2593 dan ortiq qabrlar topilgan, ulardan 2447 tasi insonlar dafn etilgan qabrlardir. Alovida o’rinni “Shoh nekropoli” egallaydi, u yerda, ehtimol, mahalliy zodagonlarga tegishli 60 dan ortiq qabrlar topilgan. Bu qabrlar miloddan avvalgi 2300-2200-yillarga tegishli hisoblanadi.

Maqolada 2002-yilning kuzida oshib o’rganilgan, Gonurtepaning shimoliy qismida joylashgan 2900-qabr va undan topilgan kuygan bug’doy va arpa donlari, ularning radikarbon tahlil analizi natijalarini orqali xronologik davri, bronza davri qishloq xo‘jaligida tutgan o’rnii masalalarini yoritilgan. Qabr xom g’ishtdan to‘g’ri to‘rburchak shaklida tayyorlangan (o’lchami 280x195 sm). Uning ichida keksa erkak va ayol va turli artefaktlar - kumush va bronza buyumlar, ulardan ba’zilarining vazifasi aniq emas (bronza “narvon” va “uchburchak”), zargarlik buyumlari, fil suyagidan yasalgan buyumlar, ko‘p miqdorda sopol idishlar, shuningdek kuygan bug’doy va arpa donlari aniqlangan. Ushbu donlarning radiokarbon tahlili ularning xronologik davri mil. avv. 2156-yil, eng past qiymati esa mil. avv. 2035-yilni tashkil etishini ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida tadqiqotchilar, kuygan donlarning umumiyyat hajmi 700 kg dan kam emasligini, arpa va bug’doyning kuygan donalarining bir xil aralashmasi bu o’simliklar birligida o’stirilganligini ko’rsatishini, ushbu shakldagi aralash ekinlar Yaqin Sharq va Markaziyo Osiyo sug’orma dehqonchiligi uchun muhim ekin turlaridan biri ekanligi, bu esa, noqulay ob-havo sharoitida hosilning nobud bo‘lish xavfini kamaytirishga yordam berishini alovida

ta’kidlab o’tishgan. Maqola Qadimgi Marg’iyona aholisining qishloq xo‘jaligi texnikasining o’ziga xos xususiyatlari haqidagi ma’lumot berib, uni oshib berishga xizmat qilgan.

Ikkinchi maqola N.A.Dubova, A.V.Fribus, N.N.Skakun, S.P.Grushin, V.V.Terekhina, A.M.Yuminov, R.M. Sataev, V.A.Agakhanova, Y.K.Tirkishova hammullifligidagi “Marg’iyona siyosatidagi tosh miniatyura ustunlari, disklari va tayoqlari (Bronza davri, Turkmaniston)” (“Stone Miniature Columns, Disks and Scepters from the Polity of Margush (Bronze Age Turkmenistan)”) [3] nomli maqola bo‘lib, unda Marg’iyona moddiy madaniyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan yirik tosh buyumlar – “miniatyura ustunlari” (MC), “disklar” (SD) va “tosh hassalar” (“tayoqlar”) (SS) ning o’ziga xos xususiyatlari tasvirlangan. Shuningdek, maqolada ushbu buyumlar yasalgan xom-ashyosi tarkibi, ularni ishlab chiqarish texnologiyasi, qayta ishlashning xilma-xilligi va shakli tahlil etilgan.

2018-yilda Marg’iyonada bronza davriga oid barcha topilmalarning to‘liq inventarizatsiyasi boshlangan bo‘lib, katalogni tavsiflovchi asosiy qism Turkmaniston va Rossiya muzeylarida saqlanayotgan yirik tosh buyumlaridan iborat bo‘igan. Ushbu ashylarning asosiy qismi qabrlar va xonalardan topilgan, yana bir qanchasi yer ustti topilmalar hisoblanadi. 2018-yilda Marg’iyona arxeologik ekspeditsiyasi tosh topilmalar katalogni tuzishga kirishgan. Ushbu katalogning birinchi topilmalari Baqtirya-Marg’iyona arxeologik madaniyati (BMAC) uchun juda xos bo‘lgan yirik tosh buyumlar - “miniatyura (mitti) ustunlar” (MC), “disklar” (SD) va “tosh hassalar” (“tayoqlar”) (SS) hisoblanadi. Barcha topilmalarning asosiy xususiyatlari tasvirlangan va suratga olingan. Ushbu topilmalar Turkmaniston davlat muzeyi, Turkmaniston tasviri san’at muzeyi (Ashxobod), Mari tarixiy-madaniy muzeyi (Mari), Ermitaj, Sharq san’ati (Moskva, Rossiya) kabi muzeylarida va Rossiya Fanlar akademiyasining Moddiy madaniyat tarixi instituti (Sankt-Peterburg, Rossiya) va “Qadimgi Marv” tarixiy-madaniy bog’ida (Bayramali, Turkmaniston) saqlanmoqda. Hozirda katalogda 157 ta “miniatyura ustunlari” (MC), 20 “disklar” (SD), 62 “tosh hassalar” (“tayoqlar”) (SS) va ularning bo‘laklari haqidagi ma’lumotlar joy olgan bo‘lib, maqolada “miniatyura ustunlari” (MC), “disklar” (SD), “tosh (hokimiyat) hassalar” (“tayoqlar”) ning vazifikasi, xomashyosi va tarqalish geografiyasi haqidagi ilmiy-tahlilii ma’lumotlar tizimlashtirilgan, asosiy qismi, Murg’ob ichki deltasining turli joylarida (Gonur, Tog‘o‘loq, Adjı Kui vohalari), shuningdek, Kopettog’ etaklarida (Oltindepe va Ulug‘depe) topilgan.

Xulosa o‘rnida, mualliflar hozirgi vaqtida obyektlarni ishlab chiqarish uchun xom ashyo manbalarini aniqlash va ulardan vazifasini aniqlashtirish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilayotganligi alovida ta’kidlaganlar. Ishonamizki, mualliflar ushbu obyektlarning to‘liq arxeologik kontekstini yaratadilar, shuningdek, ularning Qadimgi Sharq mintaqalarida diaxronik va sinxron taqsimlanishi haqidagi ma’lumotlar jamlaydilar.

Uchinchi maqola A.V.Fribus, S.P.Grushin, R.M.Satayev, N.A.Dubova va M.Begliyev hammullifligidagi “Gonurtepaning bronza davriga oid qayta o’rganilgan qazishmalaridan yangi ikonografik kashfiyotlar (Turkmaniston)” (“New Iconographic Discoveries from the Renewed Excavations at the Bronze Age Site of Gonur Depe (Turkmenistan)”) [4] nomli maqola bo‘lib, unda 2019-yil bahorida Marg’iyona arxeologik ekspeditsiyasining Gonurtepa yodgorligining shimolidagi 18- va 20-qazishmalarida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqot natijalariga bag’ishlangan. Ushbu maqola bronza davri jamiyatining vizual aloqa kodlari haqida yangi tushunchalar beradi. Jumladan, 2018-2019-yilgi qazishma mavsumida, Shimoliy Gonurtepaning shimoliy-

sharqida joylashgan 18-qazishmadan turli shakldagi sopol idishlar, zargarlik buyumlari (lazurit, steatit va billur toshidan yasalgan sirg'a va munchoqlar) va ba'zi bronza buyumlar (oyna, bilaguzuklar va to'g'nog'ichlar) topilganligi, ushbu maydonda qazilgan qabrlarning aksariyati chuqurcha shaklga ega erkak va ayol qabrlaridan ibortaligi, ular orasidan 4551 va 4557 qabrlar noadatiy topilmalari bilan alohida ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.

18-qazishmaning yuqori madaniy qatlamida ikki yuzali tosh muhr-tumor topilgan bo'lib, unda chayon, arxar, mushuksimonlardan birining ko'rinishlari va turli kombinatsiyalardagi oyoq izlari tasvirlangan. Muhr-tumor ellips shakliga ega bo'lib, ikki tomonlama kesilgan, kesma to'rtburchak va uzunchoq o'jni teshib o'tgan shaklga o'xshash teshikka ega. Bir tomonda chayon va odam oyog'ining "izi" tasvirlangan. Oyoq barmoqlari chayonning boshi sisfati qarama-qarshi tomonga yo'naltirilgan. Muhr-tumorning narigi tomonida qarama-qarshi tomonga burilgan archa va yirtqich mushuksimonlardan biri(yo'lbars yoki qoplon)ning boshlari tasvirlangan. Maqolada, shuningdek, Gonurtepaning 20-qazishmasidagi 78-raqamli qabrdan polixrom bo'yoq bilan bezatilgan yog'och buyum topilganligi haqidagi ma'lumot keltirib o'tilgan. Yog'och buyumning ustki qismi 22×17 sm o'chamga ega bo'lib, ma'lum qismi yemirilgan. Saqlangan parchalar asosida ilon bilan antropomorf shaklning sxematik tasvirini ifodalaydigan rasm o'ziga xos ahamiyatga ega. Aralash texnikada yaratilgan ushbu tasvir nafaqaq Gonurtepa, balki BMAC hududidagi polixrom rasmning birlinchi topilmasi hisoblanadi. Ma'lumki, ilon ramzi – qadimgi Sharqda eng ko'p uchraydigan tasvir bo'lib, himoya qiluvchi, qo'riqlovchi, mo'l-ko'llik va boylik keltiruvchi deb tushunilgan[9].

Xulosa o'rnila shuni aytib o'tish mumkinki, Marg'iyona arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan 2018-2019-yillarda olib borilgan tadqiqotlar Shimoliy Gonurning chekka hududlari va Gonur vohasining qo'shni manzilgohlarini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'lib, yangi topilgan materiallar Marg'iyonaning Markazi Osyo va Yaqin Sharqning qo'shni hududlari bilan keng aloqalari haqida qo'shimcha ma'lumot berishi shubhasizdir. O'yaylmizki tadqiqotchilar bu borada ilmiy izlanishlarini davom ettirib, keng ko'lamli ma'lumotlar bilan boyitadilar.

Xulosa va takliflar. "Qadimgi Sharq arxeologiyasi bo'yicha 12-Xalqaro Konferensiya materiallari" to'plamida jami 73 ta maqola chop etilgan bo'lib, ularning 6 tasi Oks sivilizatsiyasi masalalariga bag'ishlangan. Ushbu maqolada dastlabki uchta maqola ilmiy tahvil qilingan bo'lib, birinchisi maqolada Gonurtepaning topilgan 5-10 sm qalinlikdagi kuygan bug'doy va arpa donlaridan iborat madaniy qatlam va ushbu don ekinlari aralashma usuli Marg'iyonaning bronza davri qishloq xo'jaligidagi tutgan o'rnini masalasi yoritilgan bo'lsa, ikkinchi maqolada yirik tosh buyumlar – "miniatyura ustunlari" (MC), "disklari" (SD) va "hokimiyat hassalari" ("tayoqlar") (SS) ning o'ziga xos xususiyatlari tasvirlangan. Uchinchi maqolada Gonurtepa yodgorligining shimolidagi 18 – va 20 - qazishmalarida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqot natijalari (ikki yuzali tosh muhr-tumor, polixrom bo'yoq bilan bezatilgan yog'och) ilmiy tahvil qilingan. Umuman olganda, maqolalar Oks sivilizatsiyaning ajralmasi bir qismi hisoblangan Marg'iyona tarixi va arxeologiyasi bo'yicha yildan-yilga yaxshi tadqiqotlar yaratilayotganligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

- Proceedings of the 12 th International Congress on the Archaeology of the Ancient Near East 06-09 April 2021, Bologna. Vol. 1: Environmental Archaeology. Hammering the Material World. Cognitive Archaeology. Modeling the Past. Networked Archaeology. Endangered Cultural Heritage. Edited by Nicolò Marchetti, Michael Campeaggi, Francesca Cavaliere, Claudia D'Orazio, Gabriele Giacosa, Eleonora Mariani. Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2023. XII, 1044 pages, 689 fig., 43 tables.
- Proceedings of the 12 th International Congress on the Archaeology of the Ancient Near East 06-09 April 2021, Bologna. Vol. 2: Field Reports. Islamic Archaeology. Edited by Nicolò Marchetti, Michael Campeaggi, Francesca Cavaliere, Claudia D'Orazio, Gabriele Giacosa, Eleonora Mariani. Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2023. XII, 956 pages, 13 diagrams, 543 fig., 76 maps, 14 tables.
- Dubova N.A., Fribus A.V., Skakun N.N., Grushin S.P., Terekhina V.V., Yuminov A.M., Sataev R.M., Agakhanova V.A., Tirkishova Y.K. Stone Miniature Columns, Disks and Scepters from the Polity of Margush (Bronze Age Turkmenistan) // Proceedings of the 12 th International Congress on the Archaeology of the Ancient Near East 06-09 April 2021, Bologna. Vol. 1: Environmental Archaeology. Hammering the Material World. Cognitive Archaeology. Modeling the Past. Networked Archaeology. Endangered Cultural Heritage. Edited by Nicolò Marchetti, Michael Campeaggi, Francesca Cavaliere, Claudia D'Orazio, Gabriele Giacosa, Eleonora Mariani. Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2023. -P. 315-326.
- Fribus A.V., Grushin S.P., Sataev R.M., Dubova N.A., M.Begliev. New Iconographic Discoveries from the Renewed Excavations at the Bronze Age Site of Gonur Depe (Turkmenistan) // Proceedings of the 12 th International Congress on the Archaeology of the Ancient Near East 06-09 April 2021, Bologna. Vol. 1: Environmental Archaeology. Hammering the Material World. Cognitive Archaeology. Modeling the Past. Networked Archaeology. Endangered Cultural Heritage. Edited by Nicolò Marchetti, Michael Campeaggi, Francesca Cavaliere, Claudia D'Orazio, Gabriele Giacosa, Eleonora Mariani. Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2023. -P. 339-350.
- Sataeva L., Sataev R., Dubova N. Characteristics of the Grain Layer in Tomb 2900 at Gonur Depe (Early Bronze Age, Turkmenistan) // Proceedings of the 12 th International Congress on the Archaeology of the Ancient Near East 06-09 April 2021, Bologna. Vol. 1: Environmental Archaeology. Hammering the Material World. Cognitive Archaeology. Modeling the Past. Networked Archaeology. Endangered Cultural Heritage. Edited by Nicolò Marchetti, Michael Campeaggi, Francesca Cavaliere, Claudia D'Orazio, Gabriele Giacosa, Eleonora Mariani. Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2023. -P. 141-148.
- Kattayeva G.Ch., Xamidov O.A. Oks sivilizatsiyasi bo'yicha 2023-yilda nashr etilgan yangi tadqiqotlar: 1-qism (Povoljskaya arxeologiya jurnali misolida) // O'zMU xabarlari, 1/3/1. Toshkent, 2024. 31-33-bb.
- Xamidov O.A., Kattayeva G.Ch. Oks sivilizatsiyasi bo'yicha 2023-yilda nashr etilgan yangi tadqiqotlar: 2-qism ("Arxeologiya Yevraziyskich stepey" jurnali misolida) // O'zMU xabarlari, 1/3/1. Toshkent, 2024. 55-57-bb.
- Kattayeva G.CH. Sopolli madaniyatining zargarlik buyumlari. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya matni. Termiz, 2022. 189 bb.



Ulug'bek XALMUMINOV,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti, PhD.
E-mail: ula8286@gmail.com

O'z FA Milliy arxeologiya markazi professori, t.f.d. G'.Boboyorov taqrizi ostida

QADIMGI TURKLarda SAVDO-SOTIQ MUNOSABATLARI

Annotatsiya

Deyarli ikki ming yillik bir vaqt kesimini o'z ichiga olgan qadimgi turk davri - miloddan oldindi so'nggi mingyillik va milodiy ilk mingyillikning so'nggi asrlari turkiy xalqlarning barchasi uchun umumiy bo'lib, turkiylar tarixining muhim bir qismi bo'l mish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganishda qadimgi turklar hayotida katta o'rinn tutgan savdo-sotiq munosabatlarni tadqiq qilish dolzarbdir. Qadimgi turk yozma adabiyotining ilk o'raklaridan bo'l mish O'rxun – Enasoy bitiktoshlari, qadimgi uyg'ur yozuvidagi turkiy hujjatlar va Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" (Turkiy so'zlar devoni) asari bu masalani yoritishda muhim o'rinn tutadi.

Kalit so'zlar: Qadimgi turklar, tijorat, bitiktoshlar, turkiy so'zlar, atamalar.

TRADE RELATIONS IN THE ANCIENT TURKS

Annotation

The ancient Turkic period, which includes a period of almost two thousand years - the last millennium BC and the last centuries of the first millennium AD, is common to all Turkic peoples, and in the study of socio-economic processes, which is an important part of Turkic history, trade played a large role in the life of ancient Turks, research of sales relations is relevant. The Orhun-Yenisey inscriptions, one of the first examples of ancient Turkic written literature, Turkic documents in ancient Uyghur script, and Mahmud Kashgari's work "Diwan lug'ati-t-Turk" (The dictionary of Turkic languages) play an important role in elucidating this issue.

Key words: Ancient Turks, commerce, inscriptions, Turkic words, terms.

ТОРГОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ У ДРЕВНИХ ТЮРКОВ

Аннотация

Древнетюркский период, включающий период почти в две тысячи лет - последнее тысячелетие до нашей эры и последние века первого тысячелетия нашей эры, является общим для всех тюркских народов, и в исследовании социально-экономических процессов, которое является важной частью тюркской истории, торговля сыграла большую роль в жизни древних турок, исследование торговых отношений является актуальным. Важную роль в выяснении этого вопроса играют Орхон-Енисейские надписи, один из первых образцов древнетюркской письменной литературы, тюркские документы в древне-уйгурском письме и труд Махмуда Кашигари «Девону лугати-т-турк» (Словарь тюркских языков).

Ключевые слова: Древние тюрки, коммерция, древние надписи, тюркские слова, термины

Kirish. Turkiy xalqlar tarixida miloddan oldindi so'nggi mingyillik va milodiy ilk mingyillikning so'nggi asrlari qadimgi turk davri hisoblanadi. Aslida bunday yondashuv nisbiy va shartli bo'lib, bu davrning boshlang'ichi ancha qadimgi davrlarga borib taqaladi. Shuningdek, ayrim tadqiqotchilar qadimgi turk davrining so'nggi asrlari deganda Qoraxoniylar davrini (960-1212) ham ko'zda tutadilar. Demak, deyarli ikki mingyillik bir vaqtini o'z ichiga olgan bu davrda turkiylarning kundalik turmush tarzining muhim atributlardan biri bo'l mish savdo-sotiq, bozor munosabatlarni o'rganish orqali tariximizning shu paytgacha nisbatan kam o'rganilgan qismini o'rganish zarur bo'ladi. Shu jihatdan olganda, qadimgi turklardagi tijoriy munosabatlarni o'rganish uchun turli tillardagi yozma manbalarga va lingvistik atamalarga murojaat qilish zaruriyati tug'iladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'ngi yillarda qadimgi turklarning savdo-sotiq munosabatlari masalasi ochiqlanmagan va tadqiq etilmagan. Oxirgi paytlarda turkolog G'. Boboyorov tadqiqotlarida savdo-sotiqqa oid ilmiy maqolalar nashr etilib kelmoqda.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu-lug'oti t-turk" (Turkiy so'zlar devoni) asari ham tahlil qilinib shu mavzuga doir ko'plab ma'lumotlar olindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ilgari o'rganilmagan va hozirgi kunda nashr qilingan ma'lumot natijalari va tarixiy asarlар bilan umumlashtirilib tarixiy ma'lumotlar va qiyosiy taqqoslash metodlari orqali tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. Maqola tarix fanida qo'llaniladigan usullar – tarixiylik, ketma-ketlik, hududiy yondashuv tamoyillarga tayanib yozilgan bo'lib, qadimgi turklarda savdo-sotiq munosabatlari yozma manbalar va lingvistik materiallarga murojaat qilingan.

Bu mavzu boshqa mavzularga qaraganda ancha kam o'rganilgan bo'lib, ayrim tadqiqotchilargina qadimgi turklar, ayniqsa, Turk xoqonligi tarixini yoritish mobaynida bu masalaga ham qisqacha to'xtalib o'tishgan [1]. Izlanuvchilarining ko'pchiligi turkiy xalqlarning qadimgi davrlarda asosan ko'chmanchi hayot kechirib, oldi-sotdi ishlari ko'proq natural ko'rinishida amalga oshirilganiga urg'u beradilar. Shu bilan birga, keyingi yillarda ko'plab numizmatik materiallarning aniqlanishi, ayniqsa, Turk xoqonligi davrida o'nlab turkiy urug'larning o'troq hayotga o'tishi natijasida savdo-sotiq munosabatlarda tovar-pul almashinuvni yo'lga qo'yilgani, bu holat xoqonlik tomonidan

zarb qilingan ko'plab turdag'i tanga-pullarda o'z aksini topganiga e'tibor berila boshlagani ko'zga tashlanadi [2].

Qadimgi turklardagi savdo-sotiq masalalarini o'rganish uchun birlamchi manbalar sifatida xitoy yilnomalari, O'rxun-Enasoy yozuvidagi qadimgi turk bitiklari, uyg'ur yozuvidagi qadimgi turkcha oldi-sotdi aloqalari, qarz olish va qarz berish munosabatlariiga tegishli yozma manbalarni o'zaro solishtirish kerak bo'ladi. Shuningdek, bunday aloqalarni o'rganishda qadimgi turkcha atamalar ham ancha qo'l keladi.

VIII asr boshlariga tegishli Kul Tegin, Bilga xoqon, Tunyuqu va boshqa yana bir qator qadimgi turk bitiktoshlarida uchraydigan ma'lumotlarga asoslanilsa, Turk xoqonligining Sharqiy qismi aholisi - ko'k-turklar, ya'ni sharqda yashovchi turkiy elatlari ko'chmanchi turmush tarziga ega bo'lib, o'z chorvalari bilan o't-o'lanylarga boy hududlarda qo'nib-ko'chib yurishgan. Ularning oziq-ovqati, kiyim-kechagi, yalpi olganda, o'zlar uchun ehtiyoj buyumlarini xonaki hayvonlardan - ot, tuya, qo'y va echkilarning suti, juni, go'shti orqali ta'minlangan. Qadimgi turklarning uy-ro'zg'or buyumlari: idish-tovoqlar, mehnat, ov va urush qurollari ham asosan ularning o'z muhitida yasalgan. Markaziy Osiyo va unga qo'shni hududlardagi arxeologik yodgorliklardan topilayotgan yog'och, sopol va metall buyumlarining ko'pchiligi qadimgi turk hunamandlariga tegishli ekanining aniqnishi buni tasdiqlab turibdi. Shu bilan birga, qadimgi turklar bu va bu kabi bir qator ehtiyoj mollariga ehtiyoj tug'ilganda xorijlik, ayniqsa, xitoy va sug'diy tijoratchilar keltirgan buyumlarga murojaat qilgan hollar ham o'z davri yozma manbalarida o'z ifodasini topgan.

Kul Tegin va Bilga xoqon bitiktoshlarida xoqon tilidan turk xalqiga yuzlanilar ekan, aholining o'z davlatini mustaqil saqlab qolishlari uchun xitoyliklarning "yumshoq ipagi" va "shirin so'zi"ga uchmasdan, "tabg'ach xalqi - xitoy bilan o'zaro savdo karvonlari almashinuvni yo'lga qo'yish kerakligi"ga urg'u beriladi [3]. Bundan ko'rindiki, o'sha kezlarda qadimgi turklar orasida xitoy ipagi va ipak matolar ancha qadrlangan.

O'rxun bitiktoshlarida turk xoqonining muvaffaqiyatli harbiy yurishlarda mag'lublardan qimmatbaho buyumlar keltirgani "bir tuman ag'i altun kumush kergaksiz kelurti - o'n ming qimmatbaho oltin, kumush keraksiz (darajada) keltirdi" jumlalari orqali ifodalangan [4]. Bu esa qadimgi turk jamiyatida oltin va kumush buyumlar yuksak qadrlanganidan darak beradi. Boshqa tomonidan esa qadimgi turklarning iqtisodiy hayatida urushlarda qo'lga kiritilgan o'ljalar ham muhim o'rin tutgani anglashiladi.

Qadimgi turklarda mavjud savdo-sotiq aloqalari bo'yicha eng yorqin ma'lumotlar Mahmud Kosgh'ariyning XI asrda yozilgan "Devonu lug'ati-t-turk" (Turkiy so'zlar devoni) asarida saqlanib qolgan. Asarda o'zaro moliyaviy aloqalarga doir quyidagicha ma'lumotlar uchraydi: 1) alim - olim, olinadigan qarz; alimchi - qarz beruvchi; alish-berish - olish-berish (savdo); bergu - qarz; berim - olingen qarz, beriladigan narsa; sart - savdogar; satig' - oldi-sotdi, savdo-sotiq; satg'uch - sotuvchi; tavar - mol, jonli, jonsiz mol, tovar va b. [5]. Qadimgi turkiy yozma adabiyotining yorqin o'rnaklaridan bo'lmish uyg'ur yozuvida bitilgan moliyaviy va iqtisodiy munosabatlari bilan bog'liq qadimgi turkcha hujjatlarda ham "Devonu lug'ati-t-turk" so'zlarining ko'pchiligi uchrashi bilan birga yana quyidagicha so'z va atamalar o'rin olgani ko'zga tashlanadi: berush- "bir narsani olib bermoq"; qazg'an- "foyda qozonmoq"; terken al- "qarz olish, kiralamoq"; yultachi "sotuvchi, tujjor"; qalanchi "soliq yig'uvchi" va b.lar [6].

Qadimgi turklarning savdo-sotiq munosabatlari shaharlar ham katta o'rin tutib, Sharqiy Turkiston, Yettisu,

O'rta va Quyi Sirdaryobo'yi, Ural-Volgabo'yida o'nlab turkiy shaharlar qad ko'targan edi. Sharqiy Turkistondagi Kosgh'ar, Qo'chu, Besh-baliq, Yangi-baliq, Jan-baliq, Yettisuvdagi Bolosog'un, Suyab, Taroz, Sirdaryobo'yidagi Sutkent, Qarnoq, Sug'naq, Savron, Toshkent, Sayram va b. yana bir qator shaharlar tijorat markazlari sifatida dovrug qozongan edi [7]. Ularning deyarli barchasida yirik bozorlar bo'lib, turli o'lkalardan kelgan savdogarlar turkiy aholi bilan savdo-sotiq ishlarini yo'lga qo'ygan edilar. Birgina Sayram shahriga doir yozma manbalarda saqlangan ma'lumotlarga murojaat qilsak, qadimgi turk shaharları va ulardagı tijoriy ishlar haqidá muayyan tasavvurlarga ega bo'lamiz. Arab-fors yozma manbalarida Isbijob, Isfijob va shunga yaqin atamalar ostida tilga olingen shahar-davlat ilk o'rta asrlarda sug'diyalar va turkiylar o'zaro qo'shni va aralash yashaydigan o'inka sifatida bilinsa, IX – X asrlarda bu yer islom diniga o'tgan o'g'uz va qarluq turklari orasidagi chegara o'larroq eslatiladi.

Isfijobning kunchiqarida qarluqlar, kunbotarida esa o'g'uzlar o'rnashib, har ikkalasi ham "yabg'u" deb ataluvchi boshqaruvchisiga ega ayri-ayri siyosiy uyushmaga aylanadi. Bir muddat Somoniylar qo'l ostiga o'tgan Isfijob X yuziyillikning so'nggi yillariga kelgach, Qoraxoniylar xoqonligiga qo'shib olinadi. O'sha kezlarda O'rta Osiyoning turli o'lkalarini kezgan arab-fors elchi va sayyohlari bu shaharning mashhur poytaxt shahar ekanini, obod madina va rabodga egaligi, timlar, karbos bozori va jome masjidi borligi yozib, shaharning har bir darvozasi yonidagi rabodlar "Naxshabliklar rabodi", "Buxoroliklar raboti", "Samarqandliklar raboti" va "Qarotakin (Qora-tegin) raboti" deb atalishini aytib o'tishadi. X asrga tegishli fors tilida yozilgan maullifi aniqnammagan "Hudud ul-olam" asarida "Isfijob – Turkiston chegarasida joylashgan katta shahar bo'lib, uning atroflarida ko'p mol va qo'ylar yetishtirilgan. Butun Turkiston mamlakatida qanday mahsulot mavjud bo'lsa, shu yerga keltirilgan. Shuning uchun bu yerga butun dunyodan savdogarlar kelgan"ligiga urg'u beriladi [8]. Ushbu ma'lumotdan qadimgi turk shaharlariga "butun dunyodan", ya'ni turkiylar yashaydigan o'lkalarga yaqin hududda yashaydigan xalqlar vakillari – eroni, xitoy, arab, hind va boshqa elatlarga mansub tujjorlar kelganliklarini tasavvur qilish mumkin.

Xulosa. Qadimgi turklar ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzida savdo-sotiq, ayniqsa, qo'shni xalqlar bilan o'zaro oldi-berdilar muhim o'rin tutgan. Bu masalada ko'pchiligi yuzlab ko'chmanchi urug' va elatlardan tashkil topgan turkiy aholining o'zaro savdo aloqalari qanchalik o'rin tutgan bo'lsa, qo'shni davlatlar va xalqlar, xususan, xitoyliklar va sug'diyalar bilan aloqalar ham shu darajada yetakchilik qilgan. Qadimgi turklar jamiyatida savdo aloqalari rivojlangan bo'lib, bu holat turkiy tilli bitiklari va lug'at-so'zliklarda o'z ifodasini topgan. "Devonu lug'ati-t-turk" asarida savdo-sotiq, qarz munosabatlari bilan bog'liq o'nlab tub turkiy so'zlarining uchrashi buning yorqin o'rnaklaridir. Iqtisodiy-moliyaviy aloqalarda tanga-pullar vositachi vazifasini bajarganligi ham qadimgi turk jamiyatining ancha rivoj topganidan darak beradi. Qadimgi uyg'ur moliya va huquq tizimi bilan bog'liq hujjatlarda, shuningdek, lug'at-so'zliklarda bu sohaga aloqador o'nlab so'z va atamalrning uchrashi buni tasdiqlab turibdi. Qadimgi turklar savdo-sotiq munosabatlari shaharlar o'ziga xos o'rin tutib, turkiy aholi turli o'lkalardan kelgan xorijlik savdogarlar bilan oldi-berdi qilganlar. Ular shaharlardagi yirik bozorlarda o'z mahsulotlarini, ayniqsa, chorva mollari, sut va jun mahsulotlari, mo'yna va hokazolar sotish bilan birga o'z yurtlarida topilmaydigan mato va turli buyumlarni sotib olganlar.

ADABIYOTLAR

1. Boboyorov G'. G'arbiy Turk xoqonligining davlat tuzumi. Toshkent, 2018. – B. 306-316. (Boboyorov Gh. State system of Western Turkic Qaghanate. Tashkent, 2018. – P. 306-316).
2. Бабаяр Г., Кубатин А. К вопросу монетного чекана Западно-Тюркского каганата (на основе нумизматических материалов Ташкентского оазиса) // Тюрокология, № 6, Туркестан (Казахстан), 2005. С. 97-105 (Babayar G., Kubatin A. On the issue of coinage of the Western Turkic Khaganate (based on numismatic materials of the Tashkent oasis) // Turkology, No. 6, Turkestan (Kazakhstan), 2005. – P. 97-105).
3. Abdurahmonov G', Rustamov A. Qadimgi turkiy til. Toshkent, 1982. – B. 89-90 (Abdurahmanov Gh., Rustamov A. Old Turkic language. Tashkent, 1982. – B. 89-90).
4. Древнетюркский словарь / Под ред. В. М. Наделяева, Д. М. Насилова, Э. Р. Тенишева, А. М. Щербака. Ленинград, 1969. – С. 17 (Ancient Turkic Dictionary / Ed. V. M. Nadelyaeva, D. M. Nasilova, E. R. Tenisheva, A. M. Shcherbaka. Leningrad, 1969. – P. 17).
5. Koshg'ariy, Mahmud. Turkiy so'zlar devoni (Devonu-lug'oti t-turk) / Indeks - lug'at. G'. Abdurahmonov va S. M. Mutallibov ishtiroki va tahriri ostida. Toshkent, 1967. – B. 65, 210-211, 240 (Kashgari, Mahmoud. Dictionary of Turkic words (Dewanu-lughat at-Turk) / Index - dictionary Under the participation and editing of Gh. Abdurakhmanov and S. M. Mutallibov. Tashkent, 1967. – B. 65, 210-211, 240).
6. Elmalı M. Eski Uygur Sözleşme Belgelerinden Hareketle Türklerde İlk Ticari Girişimcilik Örnekleri // Türk Kültürü İncelemeleri Dergisi 45, İstanbul 2021. – S. 221, 231-232 (Elmalı M. Examples of Commercial Entrepreneurship in Turks Based on Old Uyghur Contract Documents // Journal of Turkish Culture Studies 45, Istanbul 2021. – P. 221, 231-232).
7. Koshg'ariy Mahmud. Turkiy so'zlar devoni (Devonu-lug'ot it-turk) / Indeks - lug'at. G'. Abdurahmonov va S. M. Mutallibov ishtiroki va tahriri ostida. Toshkent, 1967. – B. 397-400 (Kashgari Mahmoud. Dictionary of Turkic words (Dewanu-lughat at-Turk) / Index - dictionary Under the participation and editing of Gh. Abdurakhmanov and S. M. Mutallibov. Tashkent, 1967. – B. 397-400).
8. Hudud ul-olam. (Movarounnahr tafsifi). Fors tilidan tarjima, so'zboshi, ilmiy izohlar va joy nomlari ko'rsatkichi muallifi O. Bo'riev. – Toshkent, 2008. – B. 18 (Hudud al-Alam (Description of Movarounnahr). Translation from Persian, preface, scientific comments and index of place names by O. Boriev. Tashkent, 2008. – R. 18).



Ikrom XUDAYBERDIYEV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti
E-mail: ikromxudayberdiyev40@gmail.com

TDSHU dotsenti, Sh. Ikromov taqrizi asosida

THE ROLE OF CENTRAL ASIA IN MODERN AFGHANISTAN-PAKISTAN RELATIONS

Annotation

This article shows the role of Central Asian countries in the relations between Afghanistan and Pakistan. Also, interrelationships between the two regions, unresolved issues and major international projects that can be implemented in the future are described. The article is formed on the basis of the literature included in the scientific treatment.

Key words: Energy diplomacy, “economic circulation”, Tashkent-Hayraton, Ashgabat-Aqina, Dushanbe-Shirkhan Bandar, TAPI, TKPI, “Turkman Gaz”.

ЗНАЧЕНИЕ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В СОВРЕМЕННЫХ АФГАНИСТАНО-ПАКИСТАНСКИХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация

В данной статье показана роль стран Центральной Азии в отношениях между Афганистаном и Пакистаном. Также описаны взаимоотношения двух регионов, нерешенные проблемы и крупные международные проекты, которые могут быть реализованы в будущем. Статья сформирована на основе литературы, вошедшей в научное издание.

Ключевые слова: Энергетическая дипломатия, «экономический оборот», Ташкент-Хайратон, Ашхабад-Акина, Душанбе-Ширхан-Бендар, ТАПИ, ТКПИ, «Туркман Газ».

ZAMONAVIY AFG'ONISTON-POKISTON MUNOSABATLARIDA MARKAZIY OSIYONING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqola Afg'oniston va Pokiston munosabatlari Markaziy Osyo davlatlarining ro'li qanday ekanligini ko'rsatib beradi. Shuningdek, ikki mintaqqa o'rtasida o'zaro bog'liqliklar, hal qilinmagan masalalar va kelajakdag'i amalga oshrilishi mumkin bo'lgan xalqaro yirik loyihihalar bayon etilgan. Maqola ilmiy muomiliga kiritilgan adabiyotlar asosida shakillantirilgan.

Kalit so'zlar: Energetika diplomatiyasi, “iqtisodiy aylanma”, Toshkent-Hayraton, Ashxobod-Aqina, Dushanbe-Shirkhon Bandar, TAPI, TKPI, “Turkman gaz”.

Kirish. 2001-yil 11-sentabr voqealaridan so'ng Pokiston Markaziy Osyo davlatlari bilan yirik loyihihalar ustida ishlamadi va energiya manbalaridan foydalanmadidi. Chunki bu davrda Pokiston Afg'onistondagi siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish uchun katta sarmoyalalar kiritgan va harbiy amaliyotlarni nazorat qilishi kerak edi. Keyinchalik, Pokiston bir qancha iqtisodiy birlashmalar va loyihiharni tuzishni amalga oshirdi. Shuningdek, Hindistonning Pokistonga qarshi siyosati sharoitida Markaziy Osyo davlatlari bilan yaqinlashish uning taraqqiyotida ishonchli bo'lib ko'rindi. 11-sentabr voqeasidan so'ng vaziyat butunlay o'zgarib, biringchi marta Markaziy Osyo jahon hamjamiatining diqqat markazidan o'rinn oldi [1]. Buning natijasida, mintaqada o'z ta'sirni kuchaytirgan AQSh hukumati Janubiy Osiyoga qaratilgan iqtisodiy loyihiharni qo'llab-quvvatldi. Bu Eronning Markaziy Osiyoga qaratilgan geoiqtisodiy harakatlarini cheklash uchun amalga oshirildi.

Afg'oniston va Pokiston munosabatlarda mintaqadagi iqtisodiy va xavfsizlik masalalari o'zaro bog'liqligi ma'lum. Shuningdek, ularning xalqaro munosabatlarning kichik bir sohasi bo'lgan energetika diplomatiyasi yoki mintaqaviy energiya xavfsizligiga bo'lgan ehtiyoji ham bir xil darjada. Lekin gaz va elektr liniyalarining energiyaga muhtoj davlatlarga eksport qilinishi, energetik qaramlikni va boshqa muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Siyosiy munosabatlarni mustahkamlash va energiya manbalariga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida, ikki davlat ham mintaqaviy iqtisodiy loyihiharda ishtirok etgan. Loyihalarda qatnashish ularning geografik joylashuvini bilan

ham bog'liq. Bu o'z navbatida, ularning tranzit hudud sifatida namoyon qiladi va moddiy manfaatlari keltiradi. Prezident Ashraf G'anining Afg'onistonga “iqtisodiy aylanma” deb ta'rif berishi mintaqaning iqtisodiy imkoniyatlari katta ekanligiga ishora qiladi [2]. Janubiy Osyo, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoni bog'lay olish qobiliyatiga ega bu ikki davlat xavfsizligining yetarlicha ta'minlanmaganligi uchun ushbu imkoniyatlardan foydalana olmadi. Masalan, Pokiston Afg'onistondagi beqaror vaziyat tufayli Markaziy Osyo davlatlariga kirishi cheklanib qoldi. Prezident Ashraf G'ani iqtisodiy vaziyatni yaxshilash maqsadida Pokistonning Tojikistonga kirishini, Hindistonning esa Pokiston orqali Afg'oniston hududiga o'tishi taklifi bilan chiqdi. Pokiston hukumati bu boradagi pozitsiyasi aniq bo'lib, hind chegarasida yuk mashinalari yordamidan foydalanish uchun yetarlicha sharoitlar yaratilmaganligi bahona sifatida ko'rsatildi. Lekin Pokiston hukumati afg'on tovarlarini Vahga chegarasigacha olib borish imkoniyatini berdi [3]. Bu jarayon Pokiston tashqi ishlar vaziri Shoh Mahmud Qureyshiying ta'biri bilan aytganda Pokiston o'z hamkorlari bilan savdo-aloqalarini kuchaytirmoqchi va Pokiston tashqi siyosatining asosiy yo'naliishi geosiyosatdan geoiqtisodiyotga o'zgarmoqda”[4].

Dengizga chiqishga imkoniyati bo'lмаган Markaziy Osyo davlatlari Pokistonning iqtisodiy manfaatlarni qo'llab-quvvatlaydi. Chunki bu loyihihalar Afg'oniston orqali amalga oshirilishi Markaziy Osiyoga keladigan tahdidining oldini olishga yordam beradi. Markaziy Osyo davlatlari uchun Pokiston orqali dengizga chiqish eng yaqin yo'l hisoblanadi va Pokistonning Gvadar, Karachi, Qosim bandargohlariga chiqish

imkoniyatini beradi [5]. Markaziy Osiyo davlatlari yuqorida qayd etilgan bandargohlardan foydalanish orqali Bandar Abbas bandargohiga borish uchun bosib o'tadigan yo'liga nisbatan 680 km masofani tejab qolishi mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan transport va tranzit yo'laklarini rivojlantirishning o'n yillik davrga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish taklif qilingan. Tashabbus doirasida O'zbekistonda MDHning hududlararo birinchi forumini o'tkazishni rejalashtirildi.

Peshovar universiteti tadqiqotchisi Zahid Anvarning tadqiqotlariga ko'ra, Afg'onistonda barqarorlikning o'rnatilishi natijasida 52 ta yo'l orqali Markaziy Osiyo davlatlarini Afg'oniston va Pokiston bilan bog'lash uchun xizmat qilishi mumkin [6]. Yo'llarning bir nuqtada kesishishi quyidagi tartibda amalga oshiriladi. O'zbekiston (Toshkent-Hayraton) Turkmaniston (Ashxobod-Aqina) Tojikiston (Dushanbe-Shirxon Bandar) yo'nalishlari orqali Afg'onistonga kirishlari mumkin. Yo'llarning Afg'onistonga tutash qismi Spinbuldak-Chaman va Torkham chegara punkti orqali Pokiston hududiga o'tish imkoniyatini beradi.

2010-yilda boshlangan TAPI loyihi mintaqadagi xavfsizlik masalalarining to'liq bartaraf etilmaganligi tufayli loyiha ishga tushmaganligi va uning kelajakdagagi holati noaniqligicha qolmoqda. Lekin siyosiy xavfsizlikka energetik xavfsizlik orqali ta'sir ko'rsatish mavjud vaziyatni o'zgartirishi mumkin. Qanchalik manfaatdor davlatlar soni ko'p bo'lsa TAPI loyihasidagi qiyinchiliklarni yengish shunchalik oson bo'ladi. Shu bilan birga loyiha Afg'oniston va Pokiston munosabatlarning barqarorlashuviga sabab bo'lishi mumkin. Chunki ikki davlatlarning tashqi siyosatidagi maqsadlar bir nuqtada kesishmagan bo'lib, ushbu loyiha ularni bir maqsad yo'lida birlashtirish imkonini beradi. Loyihaning asosiy g'oyasi AQSH tomonidan tuzilgan. Afg'onistonda "Tolibon" rejimi qulagandan so'ng loyiha 2002-2008 yillarda qaytadan tiklangan. Loyihaning asosiy qismi Afg'oniston (774 km) va Pokiston (826 km) hududiga tog'ri kelishi loyihaning amalga oshishida xavfsizlik bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. TAPI loyihasida Xitoyning ishtirot etishi Afg'oniston hukumati tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Bu orqali Afg'oniston gazni yetkazish bilan birga tranzit davlat sifatida ham moddiy manfaatlarga ega bo'ladi. Afg'oniston TAPI loyihasida ishtirot etishining eng muhim jihat, boshqa davlatlar energiya manbaiga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida Afg'onistondagi barqaror siyosiy muhit yaratishga harakat qilishidadir. Masalan, Afg'oniston Pokiston hududiga o'tadigan gazni nazorat qila olish imkoniyatini beradi. Bu esa Afg'onistonning tashqi siyosatida bir qancha ustunliklar beradi va Pokistondan keladigan tahdidni nazorat qilish imkonini oshiradi.

Afg'oniston va Pokistonning Markaziy Osiyo bilan bog'lab turuvchi asosiy loyihalardan biri bu TAPI hisoblanadi. Ushbu loyiha ilmiy tadqiqot ishlarda juda ko'p marta takrorlangan lekin biz bu loyihami iqtisodiy jihatdan emas, balki Afg'oniston va Pokiston munosabatlardagi beqaror siyosiy vaziyatni yaxshilovchi loyiha sifatida va shu orqali ikki davlat munosabatlarda Markaziy Osiyo davlatlarining ro'lini ko'rib chiqamiz. Tadqiqotimiz doirasida Pokistonning Afg'onistondagi beqaror siyosiy jarayonlarga qanday aloqasi borligi haqida to'xtalgan edik. Endilikda Pokiston o'zining energiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun Afg'oniston hududidagi beqaror siyosiy vaziyatni barqaror qilishiga to'g'ri keladi. Albatta, bu Afg'onistondagi yangi "Tolibon" hukumati kelgandan keyin vaziyatni yanada o'zgartirdi. Demak, yuqorida ta'kidlanganidek energetik xavfsizlikni tiklash orqali siyosiy xavfsizlikni ham tiklash mumkin. Bu borada loyihami ishtirot etayotgan davlatlarning barchasi loyihadan ko'rayotgan foyda bilan birgalikda mintaqadagi xavfsizlikka ham birdekk hissa qo'shayotganliklarini tushunishlari lozim.

Loyiha yetakchisi Turkmaniston gaz yetkazib berish bilan birga o'zining energetika bozorida katta o'zgarishlar qilish imkoniyatini qo'llga kiritadi. Birinchidan, Turkmaniston mustaqillikka erishganidan beri uning asosiy gazini import qiluvchi davlat Rossiya edi. Buning natijasida Turkmaniston import qaramligiga tuship qolgan. TAPI loyihasi Turkmaniston gaz bozorini diversifikasiya qilishga yordam beradi. Ikkinchidan, Turkmaniston Afg'oniston bilan chegaradosh davlat ekanligi, Afg'oniston keladigan tahdidni oldini olish imkoniyatini oshiradi.

Afg'oniston ushbu loyihami Hamid Karzay va Ashraf G'ani davrida ham qo'llab-quvvatlangan. Lekin "Tolibon" harakatining hukumat tepasiga kelishi ushbu loyihaning uzoq vaqt markazdan chetda qolishiga sabab bo'ldi. E'tiborli jihat shundaki, loyiha "Tolibon" harakati tomonidan qo'llab-quvvatlanganligi va iqtisodiy qiyinchiliklarni boshdan o'tkazayotgan Afg'onistonga loyihami tugatish uchun Turkmaniston hukumati kredit ajratish masalasi muhokama qilingan. Loyiha ishga tushgandan so'ng Afg'oniston tranzitdan tushgan foyda orqali Turkmanistonning kredit mablag'ini qoplab beradi [7]. Gazni Afg'oniston hududidan Pokistonga o'tishi, Afg'oniston Pokistonning energiya xavfsizligini boshqarishini anglatadi. Loyiha bir vaqtning o'zida ikki davlat siyosiy jarayonlariga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Afg'oniston va Pokiston TAPI liyohasidan tashqari TKPI (Termiz-Kobul-Peshovar-Hindiston) loyihasida ham ishtiroy etgan. Bu loyiha TAPIning analog shakli hisoblanib Gaz yetkazib beruvchi davlat Turkmanistondan O'zbekistonga o'zgaradi. Bu O'zbekistonning Amudaryo havzasidagi gaz resurslarining mavjudligi bilan bog'liq. Janubiy Osiyo uchun TKPI loyihasi maqbul loyiha hisoblanadi. Bu uning hududiy yaqinligi bilan izohlanadi. Chunki TKPI loyihasi TAPI loyihasi masofasining yarimini tashkil qiladi. Ushbu loyiha amalga oshishi natijasida Markaziy Osiyo xavfsizligi ta'minlanishi mumkin. Bu O'zbekistonning mustaqillik yillarida vujudga kelgan "O'zbekiston Islom Harakati [1]" tashkiloti bilan bog'liq. Ushbu harakat Tojikiston orqali Afg'onistonga, "Tolibon" harakati ag'darilgandan so'ng Pokiston hududining Xaybar-Paxtunxva hududida o'z faoliyatini davom ettirgan. Bu borada Pokistonning O'zbekiston bilan 2001-yil 25-yanvarda o'zaro ekstraditsiya shartnomasini imzolagan. Shuningdek, Afg'oniston hukumatiga qarshi urush olib borayotgan kuchlar tarkibida O'rta Osiyodan chiqqan 400 ga yaqin jangarilarning ishtirot etayotgani ham ko'p narsani anglatadi. Afg'oniston va Pokistonning chegara hududlaridagi beqaror siyosiy vaziyatdan foydalangan, "O'zbekiston Islom Harakati" o'z faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Iqtisodiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash Afg'onistondagi yangi "Tolibon" hukumati va O'zbekiston hukumatini siyosiy nuqtalarda uchrashhtirishi mumkin. "Tolibon" hukumati tashqi ishlari vazirining O'zbekistonga rasmiy tashrifi doirasida ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Markaziy Osiyo davlatlari ichida Tojikiston "Tolibon" hukumati bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlar o'rnatishni ortga surmoqda. Bu "Tolibon" hukumatiga muxolifatda bo'lgan Amrulloh Solih va Ahmad Masud kabi liderlar bilan bog'liq. Bunga yana bir sabab, 2021-yil 25-sentabr kuni Rossiya tashqi ishlari vaziri Sergey Lavrovning bayonatida "Tolibon" harakatining tan olinishi muhokama qilinmayotganligi va Rossianing eng yirik harbiy bazasi mavjud bo'lgan Tojikistonni qo'llab-quvvatlashini e'lon qilgan.

Ikki yirik loyiha liderlari Turkmaniston va O'zbekiston gazni Janubiy Osiyoga yo'naltirsa, gaz narxini belgilashi mumkin. Rossiyaga shu davrgacha Markaziy Osiyoda foydali resurslarning monopolistik importyor davlati bo'lib keldi. Markaziy Osiyo respublikalari o'zlarining

energetik bozorlarini diversifikasiya qilishlari ularning iqtisodiy o'sishlaridagi eng foydali va sezirarli qadam bo'ladi. Gazning arzon ta'riflarda yetkazib berilishining negizida siyosiy jarayonlar yotadi. Bu ikki yoki undan ortiq davlatlarning o'zaro tovar almashinishi yoki mamlakatning tashqi qarzi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Loyihaning ishga tushirilishi Afg'oniston va Pokistondagi boshqa sohalariga ham ta'siri mavjud. Birinchidan, loyiha o'tkazilishi va uni muntazam tekshirib turish ishchi kuchini talab qilishi natijasida, ishsizlik darajasini kamaytirish mumkin. Ikkinchidan, loyiha asosan aholi yashash punktlariga yaqin hududdan o'tadi bu ana shu hudud vakillari uchun gazdan foydalanish imkoniyati berishi mumkin. Gaz bilan bog'liq barcha sohalar, umumiy qilib aytganda ishlab chiqarish hajmining o'sishida ushbu loyihaning ahamiyati katta hisoblanadi.

Loyihaning davom etishi Afg'onistonga "Tolibon" harakati kelganidan so'ng keskin o'zgarishi kutilgan edi. Lekin "Tolibon" ushbu loyihami qo'llab-quvvatlashini e'lon qildi. "Tolibon" tashqi ishlar vaziri Amirxon Muttaqiy va Turkmaniston tashqi ishlar vaziri Rashid Murodov loyihaning kelajakdagisi holati yuzasidan muzokarlar olib bordi. Shuningdek, Turkmaniston prezidenti Sardor Berdimuhamedov Pokiston va Turkmaniston munosabatlarning 30 yilligi munosabati bilan yo'llagan maktubida TAPI loyihasini ilgari surish masalasini ham aytib o'tgan. Xulosa qilish mumkinki, Turkmaniston "Tolibon" hukumatini de-fakto sifatida ko'rib, hamkorlik qilishga intilmoqda. O'z navbatida "Tolibon" harakati ham loyihami qo'llab-quvvatlash orqa Afg'onistonni qo'shni davlatlar bilan integratsiyalashtirishga harakat qilmoqda. 2023-yil 6-avgust

kuni Pokiston va Turkmaniston o'rtasida TAPI loyihasini amalga oshirish bo'yicha hujjat imzolandi. Hujjat Pokiston energetika vazirining neft sanoati bo'yicha o'rnbosari Musaddiq Masud Malik va Turkmaniston davlat vaziri, "Turkman gaz" davlat konserni raisi Maqsat Babayev imzoladi [8]. 2024-yil fevral oyida Afg'oniston mas'ul vakillari, neft vaziri Shahabuddin Delaver TAPI kompaniyasi bosh direktori Muhammetmirat Amanov bilan uchrashdi. Uchrashuvdag'i asosiy masala ishga tushirish jarayonini tezlashtirish va qurilish amalga oshiriladigan hududning xavfsizlik bilan ta'minlanishi masalasi ko'tarildi. Bunga javoban "Tolibon" qo'mondonlari 30 mingga yaqin jangchini ushbu loyiha xavfsizligi uchun yonlashmini bildirgan. Shuningdek, "Tolibon" matbuot kotibi Zabihulloh Mujohid "loyihaning boshqa ishtirokchilari ham ushbu masalaga birdeklas'ul bo'lishi kerakligini aytib o'tgan [9]. Bu uning tan olinmagan hukumat sifatidagi mavqeini yaxshilashi mumkin.

Xulosa. Hozirgi siyosiy va iqtisodiy jarayonlar Markaziy va Janubiy Osiyoning o'zaro munosabatlarda iqtisodiy loyihalar yetakchilik qilishi, Markaziy Osyo davlatlarining "Tolibon" hukumatiga nisbatan geosiyosiy jihatdan emas geoiqitsodiy jihatdan yondashganligini ko'rsatadi, Markaziy Osyo davlatlari xalqaro munosabatlarning bir sohasi bo'lgan energetika diplomatiyasini orqali Afg'oniston va Pokistonga istiqbolli takliflarini bermoqda. Bu energiyaga ehtiyojiga talab yuqori bo'lgan ikki davlat uchun juda muhim hisoblanadi, Janubiy va Markaziy Osyo davlatlari uchun mintaqaviy xavfsizlikka erishishning yana bir bo'lagi sifatida energetika xavfsizligidan foydalaniши va bu borada "Tolibon"ning xalqaro loyihalarni qo'llab-quvvatlashi xavfsizlikning garovi sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Safoyev. S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. – Toshkent: Patent press, 2005. – B.44.
2. Amina K. MR, Mohammad Ashraf Ghani, President, Islamic Republic of Afghanistan // Institute of Strategic Studies Islamabad 27.06. 2019. <https://issi.org.pk/report-public-talk-mr-mohammad-ashraf-ghani-president-islamic-republic-of-afghanistan/>
3. The News Report. Two Afghan trucks enter India first time after Pakistan allows transit // 19.07.2020 <https://www.thenews.com.pk/print/688944-two-afghan-trucks-enter-india-first-time-after-pakistan-allows-transit> (04.05.23)
4. Dawn. Pakistan's focus shifting from geopolitics to geo-economics, Qureshi informs Hungary Dialogue // 25.03.2021 <https://www.dawn.com/news/1614535> (03.07.23)
5. Anwar Z. Development of infrastructural Linkages between Pakistan and Central Asia.// south Asia Journal of South Asian Studies. 2011 – P. 104.
6. Anwar Z. Development of infrastructural Linkages between Pakistan and Central Asia.// south Asia Journal of South Asian Studies. 2011 – P. 107.
7. Tamer C. TAPI Project and Regional Power Struggle // Ankasam, 14.09.2023. <https://www.ankasam.org/tapi-project-and-regional-power-struggle/?lang=en>
8. Newcentralasia. Pakistan is committed to TAPI project, says Federal Minister for Petroleum. 27.03.2024. <https://www.newcentralasia.net/2024/03/27/pakistan-is-committed-to-tapi-project-says-federal-minister-for-petroleum/>
9. Boyarov E. Afghanistan expects to start work with Turkmenistan on TAPI gas project // Daryo.uz, 20.02.2024. <https://daryo.uz/en/2024/02/20/afghanistan-expects-to-start-work-with-turkmenistan-on-tapi-gas-project>